

TO'LQIN QOZOQBOYEV

JURNALISTIKA ASOSLARI



76.12
Q-52

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

3-770

TO'LQIN QOZOQBOYEV

JURNALISTIKA ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

FDU KUTURX
JIXOZ 372197

“MUSIQA” nashriyoti

TOSHKENT

2007

Taqrizchilar:

X.Do'stmuhammad,

Jurnalist-publitsist, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi,

Q.T.Ernazarov,

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet jurnalistika fakulteti dekani, tarix fanlari doktori,

N.N.G'afforov,

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet jurnalistika fakulteti dekani o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi

Sh.A.Miralimov,

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet matbuot kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

O'quv qo'llanmada jurnalistikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi, hozirgi zamon sharoitida uning tutgan o'rni, janrlari, erkinlashishi, ommaviy axborot vositalarining tarkibi, ularning faoliyati va samaradorligi o'rganiladi. Kitob jurnalistika fakulteti talabalari va shu sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Qat'iy buyurtma.

ISBN 978-9943-307-16-2

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Musiq" nashriyoti, 2007-y.

MUALLIFDAN

Jurnalistikaga oid o'quv qo'llanma yaratish zarurati M.Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat sanat institutida jurnalistika bilan bog'liq kurslarda dars bera boshlagan paytimda tug'ildi. Bunga san'atshunos jurnalist bo'lish orzusida institutning shu bo'limiga kirib o'qiyotgan talabalarda bu fanga ishtiyoqning zo'rligi va qobiliyatning borligi turtki bo'ldi. Chunki ushbu fanga oid darsliklar deyarli yo'q, borlari ham hozirgi kun talabiga javob bera olmas edi.

Biz o'quv qo'llanmani yozib tugatgunimizcha bir nechta ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar o'zbek tilida nashr etildi. Lekin bular hali yetarli emas. Chunki respublikadagi ko'pgina oliy o'quv dargohlarida jurnalistika fani o'qitilmoqda. Demak, jurnalistikaga oid qamrovli kitob yaratish zarurati bor, bu quvonarli hol. Lekin hozir shu fan bo'yicha qisman bo'lsa-da, bo'shliqni to'ldirish, jurnalistika sohasida ham mutaxassislashuv jarayoni borayotgani uchun talabalarga yordami tegar, degan niyatda qo'lingizdagi o'quv qo'llanma yaratildi. Unda o'zbek va rus olimlarining nashr etilgan asarlaridan, gazeta va jurnallardagi ilmiy-publitsistik maqolalardan, mutaxassislarning ma'ruza matnlaridan foydalan - dik.

Ushbu o'quv qo'llanmadan mukammal darslik yaratilgunigacha foydalalanish mumkin. Bu dastlabki qadam bo'lgani bois, kamchiliklardan xoli emas, albatta.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitetda va boshqa oliy ta'lim dargohlarida jurnalistika fanini o'qitishga e'tibor kuchaygan. Shu o'rinda Milliy universitetning jurnalistika fakultetiga qarashli kafedralar, O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining «Jurnalistika nazariyasi, amaliyoti va tarixi» kafed-rasi olib borayotgan ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar tahsinga loyiq.

Menga xayrixoh bo'lgan, o'z maslahatlari bilan yordam bergan barcha hamkasblarga minnatdorchilik bildiraman.

SO‘ZBOSHI

O‘zbekistonda istiqlol yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqilligi va erkinligini ta‘minlash yo‘lida ko‘pgina ishlar qilindi. Bu – hayot tasdiqlagan, o‘zimiz shohid bo‘lib, ishtirok etayotgan haqiqatdir. Mamlakat tarixida hech vaqt hozirgichalik matbuot e‘tibor topmagan. Tarixda ilk bor OAV uchun huquqiy asoslar yaratilganligi, jurnalistning erkin ijod etishi kafolatini beradigan qonunlar qabul qilinganligi, sobiq ittifoq davrida jurnalist qo‘lini qisqa, tilini bog‘liq, qalamini o‘tmas qilib turgan senzura bekor etilganligi, mamlakatda faoliyat olib borayotgan yuzlab nomdagi gazeta-jurnallar, radiokanallar, teleko‘rsatuvlar, davlat va davlat tasarrufida bo‘lmagan axborot agentliklari, ayni istiqlol yillari tashkil topgan eng zamonaviy axborot tizimi — Internet jurnalistikasi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunda jahon axborot maydonida raqobat qila oladigan milliy o‘zbek jurnalistikasi vujudga kelganligi, Milliy matbuot markazi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron OAV Milliy Assotsiatsiyasi kabi jurnalistlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan tashkilotlar barpo etilganligi ham istiqlol bergan ne‘matlardir.

O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilgan shunday ishlar, erishilgan yutuqlar oz emas. Zero, matbuot, radio, televideniye faoliyatini yanada erkinlashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini ta‘minlashga mamlakatimizdagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralayotganligi ushbu yutuqlar omili bo‘lmoqda.

Bu borada amalga oshirilgan ishlar o‘zimizniki, ular biz bosib o‘tgan dovon. Hayot esa davom etadi va bizning oldimizga yangi-yangi vazifalar qo‘yadi. Shular haqida o‘ylarkanmiz, yurtboshimiz Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma yig‘ilishida qilgan ma‘ruzasida ommaviy axborot vositalarini ri-vojlantirish yo‘lida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar haqida bildirgan fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ma‘ruzaning ushbu qismi OAVga daxldor har bir insonda alohida qiziqish uyg‘otdi, uni mushohada etishga chorladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prezidentimiz to‘g‘ri qayd etdilar: biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma‘muriy nazorati va senzurasidan katta qiyinchilik bilan xalos bo‘lyapmiz. Hali matbuotimiz xalqimiz bizdan kutayotgan darajada tezkor va xolis axborotlar, islohotlar va yangilanishlar yo‘lidan borishimizga to‘sqinlik qilayotgan nuqsonlar, hayotning dolzarb muammolari haqida oshkora, professional, tahliliy materiallar yetkazib bera olmayapti. Hali jurnalistlarimiz faoliyatida o‘zini o‘zi senzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatlarini sezilib qolayotgani ham haqiqat.

OAVni «to‘rtinchi hokimiyat», deb ataydilar. Biz jurnalistlar ham mamlakatimiz matbuoti, radio, televideniyesini amalda «to‘rtinchi hokimiyat» darajasiga yetkazish yo‘lida astoydil harakat qilishimiz lozim. Buni esa, muhtaram Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, «axborot erkinligini ta‘minlamasdan, OAVni odamlar o‘z fikri va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan

voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib» amalga oshirib bo'lmaydi. Yurtboshimiz bu vazifalarni amalga oshirish haqida fikr yuritar ekanlar, buning uchun, avvalo, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash lozim va shu munosabat bilan OAVni qo'llab quvvatlash bo'yicha mustaqil jamoatchilik fondi tashkil etish fursati yetdi, degan fikrni ilgari surdilar.

Bu – mamlakatimiz jurnalistlarining ko'nglidagi orzu edi. Bu fikrni biz katta mamnuniyat va minnatdorlik bilan qarshiladik. Zero, bu fondning tashkil etilishi mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan o'zini o'zi ta'minlay oladigan elektron, bosma va boshqa turdagi, shu jumladan, xususiy axborot vositalarini o'z ichiga oluvchi davlat va nodavlat OAVning yaxlit tizimini shakllantirish jarayonini qo'llab quvvatlashga yordam beradi, bozor iqtisodiyotining murakkab jarayonini o'z boshidan kechirayotgan matbuot faoliyatiga birmuncha yengilik baxsh etadi.

Ma'lumki, hech bir soha rivojini malakali va yetuk mutaxassislersiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matbuot, jurnalistika ham bundan istisno emas. Kadrlar malakasini oshirish, bugungi kunninggina emas, balki ertangi kun talabiga ham javob beradigan jurnalistlar tayyorlash oldimizda turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tashkil qilinadigan fond mablag'lari bu sohaga ham yo'naltirilishi, ijodkorlarimiz nafaqat mamlakatimizda, balki, xorijdagi e'tiborli axborot markazlari, agentliklarda malaka oshirishlari, xorijlik kasbdoshlari bilan tajriba almashishlari, jahondagi nufuzli jurnalistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish mamlakatimiz OAV taraqqiyoti, uning jahon miqyosida o'z nufuziga ega bo'lishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Bu borada keyingi yillarda kitoblar, ko'plab ilmiy maqolalar chop etildi. Jurnalistikaning rivojiga «O'zbekiston matbuoti» jurnali katta hissa qo'shdi. Lekin bular jurnalistika nazariyasi bo'yicha, uning barcha qirralarini kengroq yoritishdek qamrovli vazifani bajardi, degan so'z emas. Bu sohadagi mazkur bo'shliqni to'ldirish lozim. Shu o'rinda kamchiliklardan xoli bo'lmagan, lekin dastlabki qadam sifatida mamnuniyat bilan e'tirof etish lozim bo'lgan darslik tug'ilgani maqtovga loyiq.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, alohida e'tibor qaratilgan sohalardan biri ma'naviyatdir. Zero, ma'naviy hayot moddiy hayotdan kam bo'lmasligi kerak. Ma'naviyati buyuk xalqning istiqboli ham buyuk bo'ladi. Ta'lim-tarbiya, adabiyot va san'at kabi matbuot ham ma'naviyatning uzluksiz qismidir. Uning ravnaqi yurtimiz istiqboliga xizmat qiladi.

O'quv qo'llanma respublikamiz oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan bo'lajak jurnalist kadrlar, shu sohaga qiziqqanlar, hatto OAVda mehnat qilayotgan xodimlar uchun ham foydali, deb hisoblaymiz.

Jurnalistikaga oid o'quv qo'llanma yaratilgani bilan muallifiga, unga xayrixohlik qilgan, maslahatlarini ayamagan hamda darslik haqida fikr bildirgan taqrizchilarimizga minnatdorchilik bildiramiz.

Sherzod G'ULOMOV,

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi.

I. KURSNING PREDMETI VA VAZIFALARI

«Jurnalistika asoslari» kursida talabalar jurnalistikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi, hozirgi zamon sharoitida uning tutgan o'rni, janrlari, erkinligi, jurnalistik faoliyatning samaradorligi, ommaviylik kabi mavzularning nazariy asoslarini o'rganadilar. Tahriri-yatlarda bo'lib, tahririyat ishlari, reportyor uslubi, jurnalistning sotsiologik va psixologik madaniyati, matbuotning huquqiy va axloqiy normalari, nashr uslublari va boshqa mavzular bilan tanishadi.

Bular jurnalistika asoslari kursi o'rganadigan ob'ektlar hisoblanadi.

«Jurnalistika» atamasi fransuzcha «Journal» so'zidan olingan bo'lib, «Kundalik» degan ma'noni bildiradi. Demak, jurnalist kunda bo'ladigan eng so'nggi axborotlarni xalqqa yetkazishdek olijanob vazifani bajaradi deyish to'g'ri bo'ladi.

«Jurnalistika – ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari va boshqalar) orqali tarqatish bilan shug'ullanadi»¹. Jurnalistika, hatto, «Ommaviy axborot vositalari» (OAV) tu-shunchasidan kengroq. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunida «Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radio eshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir»², deb yozilgan.

Yuqorida aytilganidek, jurnalistika - matbuot, radio, televideniye, kino va boshqalar uchun dolzarb mavzuli axborotlarni yig'ish, ularni ishlash, tarqatish bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy faoliyat turi bo'lgani uchun ham ommaviy axborot jurnalistika mazmunini, uning matnini ifodalovchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari ommaning axborotga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish uchun publitsistikadan foydalanadi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2002, 3-jild, 642-bet.

² To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. T., 2003, 7-bet.

«Ijtimoiy» degan ma'noni bildiruvchi publitsistika O'zbekiston milliy ensiklopediyasida yozilishicha, «Davrning ijtimoiy siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turi.

Publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg'otish va uni shakllantirish, ma'lum maqsadga yo'naltirish, hujjatli fakt-ma'lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat. Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti unga aloqador o'tmish va kelajak faktlari publitsistikaning predmetidir»¹. Shuni e'tirof etish kerakki, ba'zi mualliflarning har qanday jurnalistik material publitsistika deb qarashlari bizningcha juda ham to'g'ri emas. Chunki publitsistikaga qo'yilgan talab, yuqorida aytganimizdek, boshqacharoq. Publitsistika – ijtimoiy fikrga ta'sir etuvchi so'z san'ati.

Publitsistika va uning ko'rinishlari bilan keyingi boblarda kengroq tanishamiz.

Talabalarga jurnalistika asoslarini o'rgatish - bo'lajak jurnalistlar uchun yetarli degani emas. Talabalar jurnalist bo'lib yetishishi uchun albatta adabiyot, falsafa, psixologiya, stilistika, mantiq, chet tili va boshqa shu kabi fanlarni ham chuqur o'rganishlari lozim. Xuddi shunda ularda sinchkovlik, fikrlash qobiliyati, matn yozish kabi jurnalist uchun juda zarur sifatlar paydo bo'ladi. Nazariyanigina bilish jurnalist uchun kamlik qiladi, u amaliyotni ham bilishi, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etishi juda muhim.

Matbuotni tor ma'noda tushunmaslik lozim. U, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi deyish juda ham to'g'ri emas. «Matbuot, – deb yozadi taniqli olim Tohir Pidayev, – ijtimoiy ongning o'tkir va ta'sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta'sir ko'rsatadi. Jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g'oyaviy omil hisoblanadi»².

Bo'lajak jurnalistlar dilimiz to'rida va tilimiz uchida turgan, o'zimiz aytolmay qiynalayotgan, son-sanoqsiz, chigal muammolarga javob beradigan, Arastudan Abu Ali ibn Sinogacha, Aflotundan Abu Rayhon Beruniyigacha, Jaloliddin Rumiydan Alisher Navoiyigacha, Sohibqiron Amir Temurdan Zebunisogacha, Zahiriddin Muhammad Boburdan Muhammadsharif Gulxaniyigacha yuzlab mutafakkir zotlarning, shu bilan bir qatorda Xo'ja Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Uvaysiy, Xo'ja Samandar Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy,

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2004, 7-jild, 194-bet.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003, 5-jild, 507-bet.

Muhammad Zehniy, Barxurdor ibn Mahmud, Abdulbarakot Qodiriy, Majiddiddin Xavofiy, Muhammad Siddiq Rushdiy singari allomalarning teran, ibratli fikrlarini chuqur o'rganmog'i kerak.

Talabalardan yana jurnalistikaga oid bo'lgan manbalarni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, me'yoriy hujjatlarni, jurnalistika sohasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarni va, albatta, tahririyat faoliyati va tajribalarini chuqur bilishlari talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida:

«Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi.

Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi»¹, deyiladi.

Binobarin, bu qoida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, «Yuksak maralarga erishish uchun keyingi yillarda mamlakatimizda qonunchilik sohasida va amaliy hayotimizda, ommaviy axborot vositalari va matbaachilikning erkin faoliyati uchun zarur kafolat va sharoit barpo etish, jurnalist kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ko'p ishlar qilindi va qilinmoqda»².

Keyingi yillarda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Jurnalistika faoliyatini himoya qilish to'g'risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» va boshqa qonunlar qabul qilindiki, ularning oqilona ishlashini ta'minlash lozim. Ular jamiyatning demokratlashuv jarayonini tezlatmoqda.

Risolaga jurnalistika asoslari to'la, har taraflama mukammal yoritilgan deb qaramaslik, balki jurnalistikaning ba'zi qirralari, janrlari va uning vazifalariga qisman urg'u berilgan o'quv qo'llanmasi deb qaralishi lozim.

Muallif amaliyotchi bo'lgani bois kelajakda jurnalistikaning tug'ilishi, rivojlanishi, mustaqillik davrigacha bo'lgan faoliyati va mustaqillikdan keyingi o'zgarishlarni olimlar mukammal, aniq misollar bilan ta'riflashadi, jurnalistikaning qamrovi qanchalik katta bo'lmasin, bu muammolar, albatta, ijobiy hal qilinadi, deb umid qiladi. Muallifda «O'zbekiston matbuoti» jurnali qoshida kengash

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992, 21-bet.

² To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. T., 2003, 4-5-bet.

tuzilib, jurnalistika ilmi bo'yicha «O'zbekiston matbuoti kutubxonasi» rukni ostida risolalar chop etish amalga oshadi, degan umid ham bor. Bu ishlar jurnalistika rivojiga katta turtki bo'ladi.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. «Jurnalistika» atamasi qanday ma'nolarni bildiradi?
2. Jurnalistika kursi o'rganadigan ob'yektni ayting.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunida OAV tushunchasi haqida nima deb yozilgan?
4. «Jurnalistik faoliyatning nazariy asosi» deganda nimani tushunasiz?
5. Jurnalistikaning ijtimoiy faoliyat turi ekanligini qanday izohlaysiz.
6. Publitsistika va uning vazifasini aytib bering.
7. «Jurnalistika asoslari» kursining vazifasini ayting.
8. Jurnalistikada matbuot o'rni haqida nima bilasiz?
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlarida OAV, xususan, matbuot haqida nimalar yozilgan?
10. Chigal muammolar javobini qayerdan axtarasiz?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jurnalistika asoslari va uning talqinini tushuntirib bering.
2. Jurnalistikaning demokratlashuv jarayonini qanday tushunasiz?
3. Ommaviy axborot vositalari – to'rtinchi hokimiyat darajasiga chiqayotganini izohlang.
4. Jurnalist kadrlar tayyorlash borasida hukumat faoliyatini so'zlab bering.
5. O'zbekiston Konstitutsiyasining 67-moddasida matbuot haqida nimalar yozilgan?
6. Mustaqillik davrida jurnalistikaga oid qanday qonunlar qabul qilindi?
7. Jurnalistikada qadriyatlar o'rni va ahamiyatini bilasizmi?
8. Kursning o'rganadigan ob'yekti va vazifalarini aytib bering.
9. Jurnalistika bilan OAV o'rtasida qanday bog'liqlik va o'xshashliklar borligini aniqlang.
10. Jurnalistikaning eng asosiy janri va uning ko'rinishlarini bilasizmi?

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Islom Karimov*. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.
2. Prezidentning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. «O‘zbekiston matbuoti» jurnali, 2001, 4-son.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2002.
4. To‘rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. T., 2003.
5. Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni. T., 1997.
6. «O‘zbekiston matbuoti» jurnali, 1999.
7. *I Sulaymonov*. Men – jurnalistman. T., 2001.

«Jurnalistika asoslari» kursining ba'zi nazariy savollariga javob berishdan oldin, jurnalistikaning ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot majmuini aks ettirishini inobatga olib, jurnalistik ma'lumot tarixiga nazar tashlash o'rinli bo'ladi. Chunki bu sohaga qiziqqan, shu sohada o'qiyotganlar uchun bu muhimdir. O'zbekistonda jurnalist kadrlar tayyorlash zarurati bormi? Axir, bugungi kunda ham, o'tgan vaqtlarda ham tahiriyatlarda maxsus jurnalist ma'lumotiga ega bo'lmagan qanchadan-qancha xodimlar ishlagan edi, hozir ham ishlaydi.

Shunday bo'lsa, maxsus ma'lumot berishning zarurati yo'q-ku, degan fikr va bu fikrga qarshilar ham hayotda mavjud. Jurnalist kadrlar tayyorlash kimningdir istak-xohishi bilan emas, balki hayot taqozosi bilan paydo bo'ldi. Buni e'tirof etish kerak.

Ommaviy axborot vositalari paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida tahiriyatlarga umumiy saviyasi va kasbiy mahorati yuksak jurnalist kadrlar kerakligini hayot ko'rsatib qo'ydi. Ana shu ehtiyoj taqozosi turli mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham maxsus jurnalistika ta'limini yuzaga keltirdi. Aniqroq qilib aytsak, jurnalistika tizimining shakllanish jarayoni O'zbekistonda birinchi bosma nashr bo'lgan va 1870-yilda o'lkadagi mustamlakachi hukmronlar tashkil etgan «Туркестанские ведомости» va «Туркистон viloyatining gazetisi» nashr qilina boshlagan davrdan boshlangan bo'lsa-da, jadidchilik harakati davomida u shakllandi va ancha rivojlandi. Ammo, maxsus jurnalist kadrlar tayyorlash 1949-yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti)ning filologiya fakulteti qoshida oliy ma'lumotli jurnalistlar tayyorlaydigan maxsus bo'lim tashkil etilgani bilan boshlandi. Bu bo'lim 1967-yilda mustaqil fakultetga aylantirildi. Jurnalistlarni Nukus Davlat universiteti, O'zbekiston Jahon tillari universiteti, 1993-yildan boshlab Toshkent Davlat san'at instituti, 1997-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ham tayyorlay boshladi. Jadidlar (arabchada «Yangi» degan ma'noni anglatadi) matbuotida o'sha davrning erkin ruhdagi ziyolilari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Ismoil Gaspirinskiy, Ismoil Obidov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, H.H.Niyoziy, Cho'lpon, Fitrat, Ubaydulla Xo'jayev, Obidjon Mahmudov va boshqalar bor

edi. Lekin bunday kadrlar o'ta kam, talab esa katta edi. 1905-1906-yillardan boshlab jadidlarning Toshkentda «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Sadoi Turkiston», «Kengash», «Turon», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Turk so'zi», «Turk eli», Samarqandda «Hurriyat», «Samarqand», Qo'qonda «Tirik so'z», «El bayroi», «Sadoi Farg'ona», Buxoroda «Buxoroi sharif», «Turon» gazetolari bilan bir qatorda Samarqandda «Oyina», Toshkentda «Al-isloh», Qo'qonda «Kengash», «Yurt» jurnallari chop etilgan. Bu gazeta va jurnallarda faoliyat ko'rsatadigan jurnalist kadrlar zarurligi o'z-o'zidan ko'rinib turardi.

Jurnalist kadrlarni tayyorlashga 1918-yilda tashkil etilgan «O'zbekiston matbuoti» jurnali ham o'z munosib hissasini qo'shdi va qo'shib kelmoqda. 1999-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori jurnalistikaning rivojlanishiga chinakam turtki bo'ldi. Bundan tashqari, jurnalist kadrlar tayyorlashda tahririyatlardagi shtatsiz muxbirlar faoliyati ham diqqatga sazovor. Bo'lajak jurnalist kurslari, maktablari, to'garaklarining ishlarini sanab o'tsa arziydi.

Uzoq yillardan beri «Toshkent oqshomi» – «Вечерный Ташкент» gazetasi qoshida jamoatchi tahririyat ish olib borayotgani e'tiborga molikdir. Bunday ishlar boshqa tahririyatlarda ham olib boriladi. Jurnalist bo'lmoqchi bo'lgan har bir talabani bugungi kunda jurnalistikaning ilmiy-nazariy, amaliy va texnik asosi qiziqtirishi tabiiy, chunki o'qitish uslubiyoti, darsliklar mavjudligi, oliy o'quv yurtlarining jurnalist mutaxassislarni tayyorlashdagi zarur texnika vositalariga egaligi muhim rol o'ynaydi.

Ammo jurnalistika ta'limida bugungi kunda hal etilmagan va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar yetarlicha. Haligacha jurnalistikaga oid adabiyotlardan (ular juda kam) jurnalistika ta'limi tushunchasining tahlilini topa olmaymiz.

Jurnalist, ayniqsa, san'atshunos jurnalistlar tayyorlayotgan oliy o'quv yurtida ham yaxlit tartibga tushirilgan o'qitish uslubi (metodikasi) to'la ishlanmagan. Qaysi qoidalar asosida o'qitilishi kerak, talabalarining o'zlashtirishini qaysi yo'sinda tekshirib ko'rish mumkin, talabalar qaysi mavzularni qabul qilishini o'rganish, uni tahlil qilish kabi ko'rsatkichlarni aniqlash tartiblari ilmiy asosda hali to'la shakllangani yo'q. Institut talabalari uchun o'zbek tilida o'quv adabiyoti deyarli yo'q. To'g'ri, bilimlarini tekshirish mexanizmi sifatida

test savollari ishlab chiqilgan. Hozir ommaviy axborot vositalarini, yanada kengroq aytsek, umuman, jurnalistikani demokratlashtirish jarayoni davom etmoqda. Bu jarayon nimalarda o'z aksini topgan: birinchidan, jurnalistik faoliyatga oid qabul qilingan huquqiy asoslar mavjud bo'lib, bu O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlarida o'z ifodasini topgan; ikkinchidan, jurnalistika ijtimoiy fikrni shakllantirish, shaxs huquqlari va erkinliklarini to'la amalga oshirishga ta'sir ko'rsatayotganini e'tirof etish zarur; uchinchidan, kadrlar yetishtirishga ta'sir o'tkazayotganini aytib o'tish joiz. Shu andozalar asosida qaralsa, jurnalistikani demokratlashtirish jarayonida talaygina dolzarb muammolar mavjud ekanligi ma'lum bo'ladi, – deb yozadi taniqli jurnalist Sa'dulla Hakimov. Muallif jurnalistlar «Hayot qozonida qaynashlari» zarurligini va hali ham voqealarga munosabatda biryozlamalik, bir xillik borligini e'tirof etadi.

Jurnalist kadrlar tayyorlash, ya'ni jurnalistik ta'lim bobida jurnalistlarning ixtisoslashuvi katta ahamiyat kasb etmoqda. Lekin o'zbek tilida tahliliy yaxlit namunaviy dastur, afsuski, hali yo'q. Jurnalistika ta'limiga oid rus tilida hamda o'zbek tilida chop etilgan ba'zi quyidagi adabiyotlar mavjudligini aytib o'tish o'rinli bo'lsa kerak: Ворошилов В.В. Журналистика. СПб, 2001, Корконосенко С.Г. Основы теории журналистики СПб, 1995, Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М., 2001, Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики М., 2000, Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T., «Universitet», 1998, Xudoyqulov M. Matbuot va jamiyat. T., «O'zbekiston», 1976, Pidayev T. Matbuot – millat chirog'i. T., 1999, Sulaymonov I. Men – jurnalistman. T., 2001, Matbuot fidoyilari (3-jildli; tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z. Yesenboev) 1-2-jildlar. T., 1991, 1993, Нестеренко Ф.П., Миралимов Ш.А. Журналистика профессия ответственная T., 2003, Nesterenko F.P., Miralimov Sh.A. Ijtimoiy – iqtisodiy muammolar va matbuot. T., 1990, Lug'at. Ma'lumotnoma. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. 1700 ta atama (Mualliflar hayoti:) T., 2003. Bundan tashqari taniqli olimlarimiz T.Ernazarov, Y.M.Mamatova, S.Suyarov, B.A.Do'stqorayev, S.U.Umirov va boshqalarning kitoblari, maqolalari ham borligini unutmasligimiz kerak. Bundan tashqari «O'zbekiston matbuoti» jurnalida ham jurnalistika nazariyasiga doir maqolalar chop etiladi. Lekin bugungacha kasbiy jurnalistikaga doir o'quv darsligi chop etilmaganini yuqorida

aytdik. Lekin bu yetishmovchilik bobida ish olib borilmoqda. Qo'lingizdagi o'quv qo'llanmasi yutuq va kamchiliklari bilan o'zbek tilida ilk marta yaratilgan qo'llanma deb qabul qilinadi va kelajakda mukammalashishi uchun har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini bildiradi, deb umid qilamiz. Talabada sinchkovlik, fikrlash qobiliyatini shakllantirgandan so'ng matn tuzishga o'rgatish kerakligiga faoliyatimiz davrida ishonch hosil qildik. Shu o'rinda yana bir muammo, u ham bo'lsa, jurnalistika ta'limida jurnalistika faoliyatini tahliliy tanqid qilaoladigan kadrlar yetishmasligi bo'lib, ularni tayyorlash ham juda muhim. Yana jurnalistika sohasini o'rganuvchi mutaxassislar tayyorlash bugungi kun talabiga aylanib qoldi. Bu masalalarni talabalar o'rtasida dars vaqtida hamda mustaqil muhokama qilish yuqorida aytilgan muammolarning tezroq hal etilishiga zamin tayyorlaydi, deb hisoblaymiz.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Jurnalist kadrlar tayyorlash zaruratining paydo bo'lishiga sabab nimada?
2. Jadidchilik davri jurnalistikasiga tavsif bering.
3. Jadidchilik namoyandalari va ular matbuotining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorini sharhlab bering.
5. Jurnalistika ta'limida hal etilmagan, ammo hal etilishi kerak bo'lgan muammolarni ayting.
6. Jurnalistikaga oid qanday adabiyotlarni bilasiz?
7. Jurnalistikani demokratlashtirish jarayoni nimalarda o'z aksini topgan?
8. Jurnalistik ma'lumot va ta'lim bo'yicha shaxsiy fikringiz.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda jurnalist kadrlar tayyorlash zaruratini qanday izohlaysiz?
2. Jurnalistika ta'limi nima va u sizga nima beradi?
3. O'zbekistonda qaysi oliy o'quv yurtlari qaysi sohalar bo'yicha jurnalist kadrlar tayyorlamoqda?

4. Jadid matbuotining bugungi o'zbek jurnalistikasiga ta'sirini ayting.
5. OAV tahririyatlarining jurnalist kadrlar tayyorlashdagi faoliyatiga misollar keltiring.
6. «Matbuot erkinligi» atamasiga izoh bering.
7. Matbuot erkinligiga oid huquqiy asoslar O'zbekistonda bormi, bor bo'lsa, ularni sharhlang.
8. Sizning fikringizcha, O'zbekiston hukumati nima sababdan «Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qilgan?
9. Jadidlar matbuoti bilan bugungi o'zbek matbuoti orasida qanday o'xshashliklar, farqlar bor?
10. Qaysi manbalar o'zbek jurnalistikasida demokratlashtirish jarayoni borayotganini bildiradi?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Islom Karimov*. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., 1999-y.
2. Islom Karimovning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1997, 5-son.
3. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. (O'zbekiston Prezidentining «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblari) «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1998, 5-son.
4. Matbuotimiz fidoyilari (3-jildli; tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi *Z. Yesenboyev*.) 1–2-jildlar. T., 1991, 1993.
5. *Nesterenko F.P., Miralimov Sh.A.* Журналистика профессия ответственная. T., 2003.
6. Lug'at. Ma'lumotnoma. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. 1700 ta atama (Mualliflar hay'ati) T., 2003.
7. Ruscha – o'zbekcha lug'at. Русско-узбекский словарь. T., 1983, 1984.

II. JURNALISTIKANING YARATILISHI, MOHIYATI VA MODELLARI

JURNALISTIKANING YARATILISHI

Jurnalistika bugungi mavqega ega bo'lguncha og'ir tarixiy sinovlardan o'tdi. Yaratilgan davridan to bugungi kungacha hukmron tuzum ta'sirida unga xizmat qilib keldi. Shu bois jurnalistikaning yaratilishi sabablarini o'rganish, uning yaratilishi va rivojlanishini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan, jurnalistika tarixini o'rganish jurnalistika nazariyasining eng muhim masalasi hisoblangani sababli ham zarur.

Jurnalistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishida mavjud jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy rolini aniq mushohada qilibgina unga to'g'ri baho berish mumkin bo'ladi. Axir, matbuot inson taraqqiyotining «ko'zgusi» deb bejiz aytilmaganini yodda saqlash kerak. Matbuotning tug'ilishi va rivojlanishi insoniyatning yangilikka, ya'ni informatsiyaga bo'lgan ehtiyojining paydo bo'lishida juda muhim rol o'ynagan. Lekin bundan jurnalistika axborot tarqatish uchungina paydo bo'lgan, degan fikr kelmasligi kerak. Bu jurnalistika tabiatiga to'g'ri kelmasligini olimlar ta'kidlashgan.

Jurnalistika rivojida matbuotdek aholining ongiga kuchli ta'sir etuvchi boshqa vosita yo'qligi uchun ham u tez rivojlana boshladi, degan fikr to'g'ri.

Turkistonda birinchi bosma gazeta yuqorida aytganimizdek, 1870-yildan Toshkentda chop etila boshlagan «Туркестанские ведомости» va uning o'zbek tilidagi ilovasi - «Turkiston viloyati gazetasi»dir. Bu gazetalar Turkistonni chor Rossiyaga tobe qilib saqlashda mafkura quroli bo'lib, milliy zamindan uzilgan nashrlar ekanini e'tirof etish kerak.

Demak, 1870-yildan to oktabr to'ntarishigacha o'tgan davr ichida Turkistonda bu ikki gazetadan tashqari, turli vaqtlarda o'zbekcha va ruscha (ba'zan qirg'iz va tojik tillarida) gazetalar chop etilgan. Ular, asosan, savdo-sanoat markazlarida nashr etilgan bo'lib, vazifasi, davriyligi, adadi, andozasi bilan bir-biridan farq qilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Qrim, Volga bo'yi va Markaziy Osiyo musulmonlari orasida jadidlik harakati boshlanadi. Bu harakat o'z maqsadlarini amalga oshirish maqsadida gazetalar tashkil qiladi.

Jadidlar ilk gazetasini 1873-yilda tashkil etdi va «Tarjumon» deb nomladi. Bu gazeta yangi usuldagi maktab tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqdi. «Tarjumonni ta'sis etganimdan so'ng uning har bir sonida yangi usuldagi maktablar, madaniyat va ma'rifat haqida yozishga majbur bo'ldim», deb yozgan edi Ismoil Gaspirinskiy.

Jadidlar o'z g'oya va qarashlarini keng xalq ommasiga targ'ib etish uchun XX asr boshida yangi-yangi nashrlar tashkil qila boshladilar. 1906-yil 27-iyunda (hozir shu sana o'zbek jurnalistikasining kasb bayrami) Qashqardagi Rossiya elchixonasi xodimi oilasida dunyoga kelgan qozonli tatar millatiga mansub bo'lgan Ismoil Obidiy muassisligi va muharrirligida «Taraqqiy» gazetasining birinchi soni chop etildi va bu bilan jadidlar birinchi o'zbek milliy gazetasiga asos soldilar.

Gazetaning ilk sonidayoq «Gazetamizning nomi asta-sekin uning mazmuniga munosib bo'ladi. Biz millatimiz qoloq bo'lishi, jaholatda qolishi, o'z rivojida boshqa millatlardan ortda qolishiga hech yo'l qo'ya olmaymiz.... bu borada gazetamizning eng birinchi vazifasi ilm-fan yetakchisi bo'lmoq va bu orqali millatni jaholatdan chiqishiga va dunyoda baxtli bo'lishiga yordam berish», deb yozilgan edi.

Gazetaning shu sonida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonov «Bizning jaholat jahli murakkab» sarlavhali maqolasini chop ettirdi. Gazetaning 20 soni chiqdi, xolos.

1906-yilning sentabrida jadidlarning ikkinchi nashri «Xurshid» gazetasi tashkil etildi (muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov edi). 1907 – 1908-yillarda «Shuhrat» (muharriri – Abdulla Avloniy) «Osioy» (muharriri – Ahmadjon Bektemirov), «Tujjor» (muharriri – Saidkarimboy Saidazimboy og'li), Buxoroda 1912-yilda «Buxoroi Sharif» (muharriri – Mirzojalol Yusufzoda), «Turon» (muharriri – G'iyos Maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda «Samarqand» (muharriri – Mahmudxo'ja Behbudiy), Toshkentda «Sadoi Turkiston» (muharriri – Ubaydulla Xo'jayev), Qo'qonda «Sadoi Farg'ona» (muharriri – Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913–1915-yillarda «Oyina» (muharriri – Mahmudxo'ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yilda «Al-isloh» (muharriri Abdurahmon Sodiq O'g'li) jurnallari nashr qilindi.

Shuningdek, 1917–1918-yillarda Toshkentda «Najot», «Kengash», «Turon», «Ulug' Turkiston», «Sho'roi Islom», «Turk so'zi», «Turk

eli», Samarqandda «Hurriyat», Qo'qonda «Tirik so'z», «El bayrog'i» gazetaları va «Kengash», «Yurt» jurnallari chop etildi.

Bu milliy gazetalarda milliy taraqqiyot muammolari o'z ifodasini topgan. Xulosa qilib aytganda, jadid matbuoti Turkistonda taraqqiyparvar g'oyalar shakllanishi va rivoj topishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Jahon matbuotshunoslari bu davr matbuotini erkin matbuot, deb nomlashlari muhim asosga ega edi. Chunki mazkur matbuot o'zidan oldingi avtoritar matbuotga nisbatan «Yirik shaxslar matbuoti» bo'ldi, deyish adolatdan bo'ladi. O'zbekistonda sho'ro tuzumi davrida o'zbek va boshqa mahalliy tillarda, shuningdek, rus tilida yangi yo'nalishdagi gazetalar tizimi tarkib topdi.

Mintaqada nashr etilayotgan «Sovet O'zbekistoni», «Pravda Vostoka», «Haqiqati O'zbekiston», «Qishloq haqiqati», «O'qituvchilar gazetasi» va boshqa nashrlar kommunistik mafkura nazorati ostida bo'lib, ular totalitar tuzum maqsad va vazifalarini targ'ib qilishga xizmat qilishgan. Yakka hokimlik siyosatining barcha ko'rinishlari bu gazetalar faoliyatida o'z aksini topgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach (1991) gazetalariga va umuman, ommaviy axborot vositalariga nisbatan qo'llanilgan mafkuraviy yakka hokimlik tugatildi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbuskori bo'lgan O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan iqtisodiy islohotlarning yangi modeli, ya'ni iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, qonun ustunligi, o'tish davrida davlatning bosh islohotchilik roli, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoyadan iborat besh tamoyilni o'z ichiga olgan va dunyoda «O'zbek modeli» deb e'tirof etilgan taraqqiyot yo'li tufayli matbuot erkin rivojlanish yo'liga o'ta boshladi.

Xususiy gazeta yoki jurnal ta'sis etish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu huquq «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun (1997)da o'z ifodasini topdi. Natijada, O'zbekistonda tur va xil jihatdan farqlanuvchi keng tarmoqli matbuot tizimi vujudga keldi.

XXI asr boshlangan kezlarda respublikada 507 nomda (shundan 77 tasi respublika, 162 tasi viloyat, 176 tasi tuman, 45 tasi ko'p nusxali) gazetalar nashr etilgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ular 597 nomda nashr etila boshlandi. Demak, o'tgan to'rt yilda 90 taga ko'paydi.

1896-yilda Toshkentda «Sredneaziatskiy vestnik» («O'rta Osiyo

darakchisi») jurnalining birinchi soni bosmadan chiqdi. Keyinchalik «Туркестанский скорпион» («Turkiston chayoni», 1907), «Средняя Азия» («O'rta Osiyo» 1912), «Степний мираж» («Sahrodagi sarob» 1914) jurnallari nashr qilinadi. Turkistonda milliy jurnallarga atoqli ma'rifatparvar adib va publitsist Mahmudxo'ja Behbudiy asos solgan. Uning muharririligida 1913–1915-yillarda Samarqandda «Oyina» jurnali nashr qilingan bo'lsa, 1918-yilda o'zbek tilida Abdurahmon Sodiq o'g'li muharririligida Toshkentda ikkinchi jurnal «Al-isloh» nashr etildi. Keyinchalik Qo'qonda Hamza Hakimzoda Niyoziy muharririligida «Kengash» (keyinchalik «Hurriyat» nomi bilan chop etilgan), «Yurt», «Chayon», «Ishchilar dunyosi», 1918–1919-yillar orasida «O'zgarishchi yoshlar», «Inqilob», «Mushtum», «Yer yuzi», (hozirgi «Guliston»), «Yangi yo'l» (hozirgi «Saodat») «Alanga» va boshqa jami 134 nomda jurnal chop qilingan.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, jurnallar faoliyati qayta tashkil qilindi. «Sharq yulduzi», «Zvezda Vostoka», «Guliston», «Saodat», «Fan va turmush», «Yoshlik» jurnallari qatoriga «Tafakkur», «Sog'lom avlod uchun», «Jahon adabiyoti» va boshqa ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va adabiy-badiiy jurnallar qo'shildi.

Bulardan tashqari, yangi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni aks ettiruvchi maxsus jurnallar, jumladan, «Bozor, pul, kredit», «Menedjer», «Optovik», «Jamiyat va boshqaruv», «Buxgalter kutubxonasi», «Tijorat», «Экономические обозрение», (rus va ingliz tillarida), «Avtoolam», «Avto Press TIJ» va boshqalar chop etilmoqda. Yana ko'plab, jumladan, «Darakchi», «Tasvir», «EKO», «Sado», «7X7», «Zakovat», «Qizilqum» kabi reklama-tijorat hamda xususiy gazetalar faoliyat ko'rsatmoqda. Jurnallar soni 2005-yil boshiga kelib 145 taga etdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda gazeta va jurnallar o'zbek, rus, qozoq, tojik, qoraqalpoq, koreys, ingliz va boshqa tillarda chop etilmoqda. Jurnalistikaning rivojlanishi, uning g'oyaviy, axloqiy munosabatlarini bilish, tushunish borasida turli bahslar paydo bo'ldi. Bu bahslarda turli kasb olimlari ishtirok etishdi. Shu boisdan matbuotga, uning faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan nazariy qarash va yo'nalishlarga qisman to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy-demokratik yo'nalish jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga xos bo'ladi. Masalan, sobiq sho'rolar tuzumida ijtimoiy

mulkning roli haddan tashqari kuchaytirilib, xususiy mulk taqiqqa uchradi. Bu holat jamiyatning iqtisodiy asosi yemirilib borishiga yo‘l ochdi. Bunga o‘sha davr matbuoti yordam berdi. Oxir-oqibatda mazkur totalitar tuzum yemirildi.

1991-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritgan O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik ijtimoiy tuzum qaror topa boshladi. Har bir millatning o‘ziga xos qadriyatlari, mentaliteti, an‘analari mavjud. Demak, ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga ta’sir etmay qolmaydi. Demokratik davlatda inson manfaati har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat ommaviy axborot vositalarining erkin bo‘lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, demokratiya qonunga asoslangan erkinlikdir. Demak, ommaviy axborot vositalari erkin bo‘lishi uchun kurashgan hurfikr insonlar jamiyatda ijtimoiy-demokratik yo‘nalish bo‘lishini xohlashgan. O‘zbek jurnalistikasi g‘oyaviy-nazariy konsepsiyasining yaratilishida xuddi shunday erkinlikni jadidchilik harakati va uning matbuoti istagan va shu yo‘lda kurashgan edi.

Jadidlar millat istiqboliga erishish uchun chorizmga qarshi kurashda xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otishga bel bog‘lashdi. Ular keyingi maqsad – yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fido-yilarcha kurashdilar.

Bular – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Mu‘navvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Isxoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniy-oz Hoji Yusupov, Boboqun Salimov (Xorazm) va boshqalar edi.

Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Shu davrda ularning o‘z matbuoti shakllandi. Biz u haqda yuqorida aytdik. Jadidlar o‘z nashrlarida xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekanlar ularni uyushishga chaqirdilar. O‘lkaning moddiy va ma‘naviy boyliklari talanayotganini oshkor qilishdi.

Jadidchilik harakatining siyosiy ma‘rifatparvarlikdan jadid taraqq

qiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarilishida o'sha davr matbuotining xizmatlari beqiyosligini e'tirof etmoq kerak.

Sho'ro tuzumi davri matbuoti kishilararo ommaviy muloqotni bilish va g'oyalar tarqatishning asosiy vositasi rolini amalga oshirdi. Ammo matbuotning shakllanishi va rivojlanishi esa 1917-yildan so'ng to 1991-yilgacha umum demokratik qoidalarga zid ravishda, yakka partiyaviylik, yakka hokimlik sharoitida o'tdi.

Istiqlol tufayli O'zbekiston matbuotida yangi davr boshlandi.

Tashkilotlar, partiyalar, uyushmalar, hattoki fuqarolar o'z nashrlarini ta'sis etish huquqiga ega bo'ldilar.

Matbuotga oid qabul qilingan qonunlar ommaviy axborot vositalarini erkin qilish, «To'rtinchi hokimiyat» maqomiga erishtirish borasidagi katta qadamlar edi. Boshqacha qilib aytganda, matbuot erkinligi – matbuotning mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi o'rmini belgilaydi va unga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi.

Matbuot erkinligi masalasi matbuot paydo bo'lgandan buyon mavjud. Xuddi shuni biz jadidlar faoliyatida ham ko'rdik. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar chorizm general-gubernatorligining matbuot erkinligidan mahrum qiluvchi siyosatiga qarshi keskin qarshilik ko'rsatgan va shu asnoda kurash olib borgan edilar.

Lekin shuni ham e'tirof etmoq kerakki, matbuotning keyinchalik sarmoyaga qaramligi oshib, matbuot erkinligi undan foydalanish erkinligiga, boylik orttirish manbaiga aylana bordi. Matbuot shov-shuvli, oldi-qochdi materiallar bilan birga reklamaga keng o'rin bera boshladi.

O'z milliy mustaqilligiga erishgan O'zbekistonda matbuot erkinligi huquqiy poydevorga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, yuqorida aytganimizdek, 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», deb yozilgani fikrimizning isbotidir. Jurnalistikaning g'oyaviy-nazariy konsepsiyalari haqida to'xtalish, bu umuman jurnalistikaning barcha konsepsiyalari haqida to'xtalish deb tushunmaslik kerak.

Qo'llanmaning asosiy maqsadi jurnalistikaning imkoniyatlari va shakllarining nazariy xilma-xilligini anglash, bundan tashqari, jurnalistikaning boshlang'ich ba'zi qoidalari borasida fikr yuritishdan iboratdir.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Jurnalistika nazariyasining eng muhim masalasini ayting.
2. Matbuotga nisbatan aytilgan «Inson taraqqiyotining ko'zgusi», degan iborani sharhlab bering.
3. Matbuot tug'ilishiga qanday sharoitlar zarur?
4. Matbuotning ilk kurtaklari haqida so'zlab bering.
5. Jurnalistikaning rivojlanishiga nima turtki bo'lgan?
6. Turkistonda birinchi bosma gazeta qachon va qanday nomlarda chop etilgan?
7. Jadid matbuoti haqida nimalarni bilasiz?
8. «Qizil imperiya» davri va mustaqillik davri matbuotining o'xshashliklari va farqini qanday izohlaysiz.
9. «O'zbek modeli» deb nom olgan tamoyillarning matbuotga ta'sirini ayting.
10. Bugun O'zbekistonda qanday gazeta va jurnallar chop etilmoqda?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Matbuotga qanday buyuk maqom berilgan?
2. Matbuotning paydo bo'lishi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Ro'yxatga olingan birinchi jurnalning nomini va qayerda chop etilganini bilasizmi?
4. Turkistonda dastlabki gazeta va jurnal qachon, kim tomonidan chop ettirilgan?
5. Jadidlar matbuotining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
6. Sho'ro tuzumi davri matbuotining qaysi siyosiy-g'oyaviy konsepsiya-sidan voz kechildi?
7. «O'zbek modeli» deb e'tirof etilgan rivojlanish yo'li matbuot, to'g'rirog'i, jurnalistika rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
8. O'zbekistonda chop etilayotgan reklama-tijorat hamda xususiy gazeta-larni sanang va ularning faoliyati haqidagi fikringizni ayting.
9. O'zbekistonda chop etilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni aks ettiruvchi nashrlarni sanang.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin.

(I.Karimovning O‘zbekiston teleradiokompaniyasi raisi savollariga javoblari). «O‘zbekiston matbuoti» jurnali, 1999, 1-son.

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2002–2004, 3-7-jild.

3. «Teatr» jurnali. 2003, 6-son.

4. *С.Г.Корконосенко*. Основы журналистики. М., 2001.

5. Lug‘at. Ma‘lumotnoma. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. 1700 ta atama (mualliflar hay‘ati). T.,2003.

6. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. T., 2001.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TASNIFI VA TARKIBI

Ijtimoiy amaliyot bilan jurnalistikaning o‘zaro aloqasi natijasida axborot vositalarining tasnifi paydo bo‘ladi. Jurnalistikani o‘rganish davomida ommaviy axborot vositalari tarkibiga va ularning rivojlanish yo‘nalishiga kasbiy nuqtayi nazardan qarash vazifasi qo‘yiladi va har bir muayyan olingan nashr yoki eshittirish dasturi tasnif qilinadi.

Birinchidan, tasnif alomatlari shunchalar muhimki, ulardan, hatto, biron bir alomatni ham o‘zgartirish mumkin emas. Agar shunday qilingan taqdirda butun boshli nashrning ham mazmuni, ham shakli o‘zgarib ketadi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari tasnifi haqida gap ketganda ikki, to‘rt sahifali gazetalar o‘rnida 8, 16, hatto, 32 sahifali gazetalar chiqa boshlaganini aytib o‘tish o‘rinli. («Soliq va bojxona xabarnomasi» va b.).

Uchinchidan, matbuot tasnifi o‘zgarib, boyib boraveradi. Agar matbuotga o‘tgan asrning 90-yillarigacha bo‘lgan tasnifda qarasak matbuot sinfiy-g‘oyaviy nuqtayi nazardan o‘rganilgan, O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgach esa matbuot yangicha, umuminsoniy qarashlar asosida o‘rganilmoqda. Shu uch qoida asosida jurnalistikaning tasnifi va uning tarkibiga e‘tiborni qaratamiz.

Matbuotni tarqatish hududlari. Matbuotni tarqatish tasnifi qaysi hududda chop etilishiga qarab emas, balki qaysi hududlarga tarqatilishiga qarab belgilanadi.

Demak, matbuot hududiy yo‘nalishiga qarab – markaziy (mamlakat miqyosida), viloyat, shahar, tuman, quyi matbuot organlari (ko‘p tirajli gazeta) bo‘ladi. Lekin ba‘zi gazetalar, jumladan, «Toshkent oqshomi» – «Вечерный Ташкент» shahar gazetasi bo‘lsa-da u butun mamlakat bo‘ylab tarqaladi.

Agar u chet mamlakatlarga ham tarqaladigan bo‘lsa, unda u transmilliy maqomini oladi. Endi mamlakat miqyosidagi, to‘g‘rirog‘i, markaziy, viloyat, shahar, tuman, ko‘p tirajli hamda devoriy gazetalar haqida to‘xtalsak. «Xalq so‘zi», «Правда Востока», «O‘zbekiston ovozi», «Turkiston», «Nuroniy» va h.k. gazetalar butun mamlakat bo‘ylab tarqatiladi.

Masalan, viloyat gazetolari - «Qashqadaryo», «Toshkent haqiqati»- «Ташкентская правда»; «Andijonнома», shahar gazetolari - «Toshkent oqshomi» – «Вечерный Ташкент», tuman gazetolari -

«Davr ovozi» (Qibray tumani), ko'p tirajli gazetalar - «To'qimachilar ovozi» (To'qimachilik kombinati), «Qaldirg'och» (M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti) chop etiladi. Bundan tashqari devoriy gazetalar (tashkilot yoki maktablarda) chiqariladi.

Yuq'orida biz hukumat va hukumatga qarashli bo'lmagan nashrlarga to'xtaldik. Vaholanki, respublikaga tarqaladigan xalq harakatining («Birlik»-«Единство»), partiyalarning («O'zbekiston ovozi», «XXI asr», «Adolat»), jamg'armalarning («Nuroni», «O'zbekiston matbuoti»), tijoratchilarning («7X7», «Darakchi») diniy tashkilotning («Islom nuri») gazetolari ham mavjud. Gazeta va jurnallar mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy, ilmiy bo'lishi, yo'nalishiga qarab bolalar, («Tong yulduzi», «Klass»), yoshlar («Turkiston», «Молодежь Узбекистана»), xotin-qizlar («Saodat»), muassisligiga ko'ra hukumat idoralarining, nodavlat tashkilotlarining nashrlari hamda xususiy bo'lishi mumkin.

Nashrning davriyligi, bichimi, hajmini ham bilish juda zarur. Masalan, davriylik axborotning tezkorligini ta'minlaydi.

Jumladan, kundalik (bunga haftasiga 4-5 va undan ortiq marta chiqadigan gazetalar), haftasiga bir, har o'n kun, oyida bir, chorakda bir marta chop etiladigan nashrlar ham bor.

Matbuotda, asosan, A-2 bichim («Xalq so'zi», «Правда Востока»), A-3 bichim («Nuroni», «Ishonch») hamda A-4 («7X7») kabi bichimli nashrlar mavjud. Xalq orasida gazetalarni 2 sahifali, 4 sahifali va hokazo deb yuritish odati bor. A-2 bichimda chop etiladigan «O'zbekiston ovozi»ni 4 sahifali, A-3 bichimda chop etilganda 8 sahifali deb yuritsak to'g'ri bo'ladi. Bu gazeta A-2 da 4, A-3 da 8, A-4 da 16 sahifali bo'lganiga qaramay mutaxassislar uni 2 bosma taboqda chiqishini bilishadi. Bir bosma taboq 40 ming belgidan iborat bo'ladi.

Demak, «O'zbekiston ovozi» gazetasi qaysi bichimda chiqmasin, asosan, 80 ming belgidan yoki 2 bosma taboqda chop etilar ekan. Ba'zi sonlari boshqa davriy matbuotga o'xshab uch, to'rt va undan ortiq bosma taboq hajmida ham chop etilishi mumkin.

OAV tasnifi har xil bo'lgan axborot vositalarining barchasi qo'shilib jurnalistikaning bir butun tarkibini tashkil qiladi.

Tuzilishi bo'yicha uni axborot vositalarining uch guruhi ifoda etadi. Birinchisi, bosma matbuot – gazetalar, jurnallar, haftanomalar (gazeta va jurnal tipidagi), vaqti-vaqti bilan nashr etib

turiladigan axborotlar majmui, jurnal, davriy kalendarlar; ikkinchisi, audiovizual ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye (efirli va kabelli), hujjatli kino, videoko'rsatuv; uchinchisi, axborot xizmatlari, telegraf agentligi, reklama byurosi, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqa qiluvchi agentlik, jurnalistlarning kasbiy klublari va uyushmalari.

Tuzilishi bo'yicha tavsif berilayotganda, internetni qaysi guruhga qo'shish kerakligi haqida savol paydo bo'ladi. Bu masalaga qarashlar har xil. Internet (lotincha so'z bo'lib, *inter* – aro va *net* – tarmoq degan ma'nolarni bildiradi) – katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimidir. Bu yangi tarmoq iste'molchilarga informatsiyani saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida) va boshqa ko'rinishlarda informatsiya almashinishga imkon yaratadi.

Internet faqat matnni emas, balki tasvirni, suratlarni, rasmlarni, tovush va videotasvirlarni uzatibgina qolmay, voqea yuz berayotgan joydan to'g'ridan-to'g'ri xabar berishga ham qodir.

O'zbekistonda internet faoliyati 1997-yilda boshlandi. Dastlab Naytov, Uznet yoki Istlink kabi provayd-kompaniyalar faoliyat boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Internet»ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (2001) O'zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o'z mavqeiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ma'lumotlarni uzatish milliy tarmog'i O'zPAK Davlat kompaniyasi va O'zNET tarmog'idan iborat.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, u xalqaro telefon tarmog'iga o'xshash hech kimga tobe emas va uni hech kim to'laligicha boshqarmaydi.

Internet tarmog'idan barcha kompyuterlarning yagona umumiy tili – TSRG'IP tili deb nomlanadi va kompyuterdan foydalanuvchilar bu til orqali o'zaro muloqotda bo'ladilar.

Internet tarmog'ida elektron pochta (E-mayl) ham bor. Internetga ulanishning ikki yo'li bor: doimiy aloqa kanali va telefon bo'yicha. Birinchi yo'l qimmat, ammo aloqasi sifatli, ikkinchi yo'l arzon,

ammo sifati uncha yuqori emas. Aloqa kanallari orqali internetga ulanishni ta'minlovchi tashkilot provayder deb ataladi. Internetni hozircha ommaviy axborot vositalari tarkibiga kiritmagan yoki ommaviy axborot vositalari maqomi berilmagani holida kommunikatsion texnologiya deb yuritish maqsadga muvofiq.

«O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» nomidagi veb-sayt ochilgan. O'zbekiston ommaviy axborot vositalaridan «Pravda Vostoka», «BBB», «Davr», «Axborot» teledasturlari va hokazolar o'z veb-saytlariga ega.

Ommaviy axborot vositalari tarkibidagi birinchi guruhga bosma matbuot deyildi. Uning o'ziga xosligi nimalardan iborat?

Matbuotning o'ziga xos xususiyati uning o'z mazmunini yozma so'z orqali ifoda etishi hamda matn tahlilida radio va televideniye ga nisbatan tasviriy vosita ancha kamroq bo'lgani bilan ajralib turadi. O'qish jarayonining o'zi (shifrlangan shartli bosma harflarni o'qish) yuqori darajadagi abstrakt tafakkurga, tasavvur etishda faol bo'lishga, aqliy g'ayratga intilish demakdir. Natijada, muallif va o'quvchining o'zaro aloqasi yanada mustahkamlanadi. Yana shuni ham aytish kerakki, matbuotning obro'e'tiborini ommaviy aloqa genotipida mavjud ko'p asrlik yozma nutq madaniyati asoslab turadi. Nihoyat, gazeta hamda jurnallar matni axborotlar xazinasi rolini o'ynashda juda qulay, ularni xohlagan paytda to'la o'rganish imkoniyati bor, ular bir yerda yig'ilgan bo'ladi, ulardan nusxalar ko'chirish oson kechadi va h.k. Dunyo miqyosida televideniye hamda kompyuter aloqasining keng yoyilishi natijasida insoniyatning madaniy hayotiga aloqador yozma jurnalistikani saqlash borgan sari muammoga aylanib bormoqda. Zamonaviy radioning afzalliklari uning nafaqat g'oyatda tezkor aloqa vositalaridan biri ekani, nafaqat radioelektronika, radiofizikadek eng zamonaviy fanlarning asosi bo'lgani bilangina emas, balki uning ommaviy axborot vositasi, siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy vosita ekani bilan belgilanadi. Uning afzalliklaridan yana biri hammabopligi, hozirjavobligi, tezkorligi, chegara bilmasligi hamda texnik jihatdan oddiyliги, ishlab chiqarish jarayonining arzonligidir.

Qaysi shaklda namoyon bo'lmasin, «jonli» efir – jurnalist bilan tinglovchi o'rtasidagi o'ziga xos muloqat bo'lib, u sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning «jonli» aksi, vaziyatning tub mohiyatini akustik shaklda yetkazib berish usulidir.

Radio ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, real hayotga yaqinlashib, uning mazmuni va muhitini to‘laqonli aks ettiruvchi, jurnalistikaning mafkuraviy xususiyatini ifodalovchi vositadir. Bu barcha fazilatlar radioeshittirish mahsulotlariga katta talab qo‘yadi.

Shu borada O‘zbekiston radiosining «Mash’al» kanali borasida biroz to‘xtalsak. Bu davlat radiosi. Uning soat 9.00 dan 18.00 ga qadar olib borayotgan jonli muloqot dasturi o‘zining jozibasi bilan ta’sirchan. Uning jonli muloqotda radio xazinasidagi mumtoz va zamonaviy kuylar, jumladan, «Cho‘li iroq», «Munojot», «Chaman yalla», «Yetti go‘zal», «Qalb sadosi» singari ohanglar bilan tinglovchilarning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutayotgani, ular didini, sezgilarini, ko‘nglini go‘zallik va nafosat tuyg‘ulari bilan tarbiyalayotganini e’tirof etish kerak.

Shu o‘rinda soat 6.00 dan boshlab, ikki soat davom etadigan «Erta-labki panorama» axborot blokining axborotga boyligi va uning tezkorligi ham tinglovchilarga manzur bo‘layotganini e’tirof etish kerak.

Endi xususiy radiolar faoliyati haqida to‘xtalsak. Mustaqilik sharo-fati bilan davlat tasarrufida bo‘lmagan radiostansiyalar - «Grand», «Sezam», «O‘zbekim taronasi», «Hamroh», «Oriyat» (Toshkentda), «Vodiy sadosi» (Andijonda), «Ey-El-Si» (Urganchda), Navoiy kon-metallurgiya kombinati radiostantsiyasi (Navoiyda) faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular ichida jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi hamda «Edelveys Ali» xususiy firmasining «Grand» radiostantsiyasi o‘z faoliyati bilan ajralib turadi. Eshittirishlarni tayyorlashda «Grand» xodimlari ting-lovchilarning yoshi, kasbi, qiziqishlari, milliy mentaliteti va boshqa xu-susiyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritishadi.

Eshittirishlar reytingini hisobga olish, kamchiliklarni tahlil qiish, yangi mavzular topish kabi izlanishlar tufayli «Grand» tinglovchilar mehrini qozonmoqda. Afsuslanib, boshqa FM radiostansiyalar mundariyasi, asosan, musiqaviy – ko‘ngilochar yo‘nalishdan nariga o‘tmayotganini ham e’tirof etish kerak.

Televideniye, radio kino, fotografiya, rassomlik san’ati, teatr va boshqa aloqa hamda ijodiy faoliyat vositalari imkoniyatiga ega bo‘lgan axborot tizimi, to‘g‘rirog‘i, texnik san’at turlaridir. Uning imkoniyat-laridan to‘la va unumli foydalanish vaqti keldi.

Agar Davlat teleradiokompaniyasiga qarashli kanallar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning saviyasi nisbatan qoniqarsiz ahvolda.

Chunonchi, Rossiya teleko'rsatuv va radio eshittirishlaridan farqli o'laroq, bizda jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro mavzularga bag'ishlangan tahliliy ko'rsatuvlar, bahs-munozaralar anchagina oz, borlari ham, eng avvalo, ta'sirchanlik borasida anchagina zaif.

Ammo O'zbekiston televideniyesining «Mehr ko'zda» ko'rsatuvi, «Yoshlar» telekanalining «Davr» axborot dasturi, «Interfutbol», «Ring qirollari» kabi ko'rsatuvlari tomoshabinlarga ma'qul bo'layotganini e'tirof etish kerak. Ammo respublika televideniyesi orqali namoyish etilayotgan ayrim audio-video mahsulotlar, reklamalar xalqimiz madaniyati va an'analariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ajnabiy badiiy filmlarda ozmuncha zo'ravonlik, qotillik ko'z-ko'z qilinyaptimi?! Ularni «mijja qoqmay» tomosha qilayotgan yoshlarimiz ongida qanday jarayonlar kechayotganini kim tahlil qiladi-yu, undan kim to'g'ri xulosa yasab, to'g'ri chora topadi?!»

Buning uchun malakali fikrlay oladigan, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lgan professional kadrlar kerak. Afsuski, bunday jurnalist kadrlarimiz juda oz. H.H.Niyoziy nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi Ilmira Rahmatullayevaning «Mamlakat hayotidagi har qanday munozarali masalalar aynan televideniye orqali (interaktiv televideniye) xalqning istak-irodasi bilan hal etilishi mumkinligi qo'shni mamlakatlar televideniylari uchun odatiy holga aylanayotganini ko'rib turibmiz. Bu masala o'ylashga arzugulik, mamlakat siyosatshunoslari, olimlari, jamiyatshunoslari, san'atshunoslari tomonidan ishlab chiqilishi zarur bo'lgan masalalardan biridir. Yangi asrda televideniye o'z zimmasiga yangi vazifalarni olmog'i lozim»¹, degan fikriga qo'shilamiz. Lekin buning uchun Oliy Majlisning qonunchilik palatasi tezlik bilan davr axborot sohasida yangi yagona davlat siyosatini ishlab chiqishi, axborot tarqatish imkoniyatlarini kengaytirishi kerak. O'zbekiston axborot agentliklari ham mafkuraviy jarayonlarda ishtirok etadi. Ular boshqa ommaviy axborot vositalariga xizmat qiladi, to'g'rirog'i, ularga tayyor va «xom» materiallar yetkazib beradi.

O'zlari, odatda, gazeta-jurnallari yoki teleradiokanallari bo'lmasa aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishmaydi. Axborot agentliklarining tuzilgani ommaviy axborot vositalari ishini ancha yengillashtirdi. Hududlarda turli voqealar haqida xabarlar tezkorlik bilan ommaviy axborot vositalariga beriladi.

¹ «O'zbekiston matbuoti», 2003, 2-son, 4-5-be'tlar.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tasarrufidagi «Jahon» axborot agentligi, nodavlat axborot agentligi bo'lmish «Turkiston press» ommaviy axborot vositalarining boshqa turlariga axborot yetkazish bilan shug'ullanadi.

1996-yildan e'tiboran yirik kompyuter tizimi, ya'ni keng ko'lamli jahon axborot tizimi bo'lmish «Internet»ga ulangan respublika ommaviy axborot vositalari undan eng so'nggi yangiliklarni qabul qilib olishi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi O'zbekiston Prezidentining 1992-yil 5-fevraldagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Shu yillar orasida u tubdan o'zgardi. Eng muhim o'zgarish O'zA materiallarining mazmun-mohiyatidagi o'zgarish bo'lib, ular ona tilimizda tayyorlanayotganidir.

Agentlik bir kecha-kunduzda turli kanallar orqali o'rtacha mingdan ortiq xabar oladi va ular qayta ishlanib, saralanib iste'molchilarga o'zbek, ingliz va rus tillarida yetkaziladi.

«Jahon» axborot agentligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 8-noyabrdagi qarori bilan Tashqi ishlar vazirligi huzurida tashkil etildi. Qarorda agentlik zimmasiga xorijda keng hamkorlikka chorlovchi, respublikaning salohiyatini ochib beruvchi axborot byulletenlari, ma'lumotnomalarini tarqatish va boshqa ko'plab vazifalar yuklandi.

«Jahon» axborot agentligi tarqatayotgan kundalik axborotlar Vatan bilan xorijni bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tamoqda.

1996-yilda o'zbek jurnalistikasi tarixida olamshumul voqea sodir bo'ldi – xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning o'z muxbirlari faoliyat ko'rsata boshladi. Bunday sharaflil va, ayni paytda, juda mas'uliyatli bo'lgan vazifa «Jahon» axborot agentligi jurnalistlari zimmasiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 19-martdagi Farmonida O'zbekistonning hukumatga qarashli bo'lmagan ommaviy axborot vositalari, davlat va davlat tasarrufida bo'lmagan tashkilotlardan iborat tashabbus guruhining «Turkiston press» davlat tasarrufida bo'lmagan axborot agentligini tashkil etganliklari ma'qullandi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarini kengaytirish va erkinligini ta'minlash, ularni bozor iqtisodiyoti hamda demokratik tamoyillar asosida isloh etishni kuchaytirish, shuningdek,

O'zbekistonning jahon axborot bozoridan o'ziga mos o'rinni egallashiga erishish, respublika hayoti haqida xolis axborotni dunyoga tezkor tarqatish tizimini yaratish, aholining jahon miqyosidagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. OAVga tasnif berishda qanday metodologik qoidalar bor?
2. Tasnif xususiyatlarini ayting.
3. Qanday matbuot transmilliy maqomga ega bo'ladi?
4. Markaziy gazetalarni sanang va nega markaziy gazeta deyilishini ham sharhlang.
5. Mamlakat miqyosida chop etilayotgan gazetalarni tasnif qiling.
6. O'zbekistonda qanday yo'nalishda gazetalar, jurnallar chop etiladi?
7. Respublika gazetalari muassislari haqida nima deya olasiz?
8. Nashr tavsifini tushuntirib bering.
9. Respublika miqyosida qanday bichimli gazetalar mavjud va ularga misollar keltiring.
10. OAV tarkibi deganda nimani tushunasiz?
11. Tuzilishi bo'yicha OAV tarkibini axborot vositalarining uch guruhi ifoda etadi. Shu uch guruhni sharhlab bering.
12. Internetni OAV tarkibiga qo'shgan ma'qulmi yoki kommunikatsion texnologiya deb yuritish maqsadga muvofiqmi va nega?
13. O'zlarining veb-saytlariga ega bo'lgan O'zbekistondagi qaysi nashrlarni bilasiz?
14. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan axborot agentliklari va ularning bir-biridan farqini ayting.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sobiq sho'ro va mustaqillik davri matbuotiga tavsif bering.
2. Matbuotning hududiy yo'nalishiga qarab qanday matbuot organlarini bilasiz?
3. Xalq harakati, partiyalar, jamg'armalar, tashkilotlar gazetalarini aytib bering.
4. Bolalar uchun, ayollar uchun, yoshlar uchun chop etilayotgan respublika miqyosidagi gazetalarni sanang.

5. Davriylik, bosma taboq, bichim, sahifa kabi jurnalistikaga oid atamalarni izohlab bering.

6. Internetga tuzilishi bo'yicha tavsif berayotganda uni qaysi guruhga qo'shgan ma'qul?

7. Internet qaysi ko'rinishlarda informatsiya almashinishga imkon yaratadi?

8. Bosma matbuotning o'ziga xosligi nimalardan iborat?

9. Zamonaviy radioning afzalliklarini sharhlab bering.

10. Davlat tasarrufida bo'lmagan radiostansiyalar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

11. Davlat teleradiokompaniyasiga qarashli kanallar ko'rsatuvlariga munosabatingiz?

12. O'zbekiston milliy axborot agentligining «Jahon» axborot agentligidan va bularning «Turkiston press» axborot agentligidan farqini ayting.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2003, 5-jild.

2. Lug'at. Ma'lumotnoma. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. 1700 ta atama (mualliflar hay'ati) T.,2003.

3. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 2003, 2-son.

4. С.Г. Корконосенко. Основы журналистики. М., 2001.

5. Н.Богданов, Б.Вяземский. Справочник журналиста. Л., 1965.

III. JURNALIST HUQUQI, UNING IJODIY UYUSHMASI HAMDA IJTIMOIIY-LAVOZIMIY MAQOMI

Jurnalist kim? Bu dunyo miqyosida jurnalistika haqida gap ketganda ko'tariladigan masala, chunki jurnalistda stress holatining paydo bo'lishi shaxtyor bilan politsiyachidan keyin, ammo taksi haydovchisi, yong'in o'chiruvchi, harbiy xizmatchi kabi kasb egalaridan va boshqalardan yuqorida turarkan. Ayniqsa, o'ta yuqori va hayotiga to'g'ridan-to'g'ri xavf soladigan «olovli nuqta»da bo'lish ommaviy axborot vositalari xodimlarining hayotini tahlikaga soladi.

Buni aniqlaydigan va e'lon qiladigan «Reportyorlar chegara bilmas» xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, har yili yuzdan ortiq jurnalist o'ldirililar va noma'lum yo'qolar ekan. Bu raqamga kaltaklangan, sog'lig'iga putur yetganlar, terror va tazyiq qilinganlarni ham qo'shish adolatdan bo'ladi.

Shuni e'tirof etish kerakki, ba'zi mamlakatlarda jurnalistlarning normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish yo'lida tashkiliy ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, Turkiyada reportyorlarga nisbatan zo'rlik ishlatish sodir bo'layotgani uchun ommaviy tadbirlar vaqtida ommaviy axborot vositalari xodimlarini himoya qilish bo'linmasi tuzildi.

Jurnalist kasbining o'ziga xosligini e'tiborga olib, uning ijtimoiy-kasbiy maqomini aniq belgilashga zarurat paydo bo'ldi.

Buni nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro munosabatlarda ham ishlab chiqish kerak. Biz mavjud bo'lgan ko'plab ta'rifdan ikkitasiga to'xtalamiz. O'zbekiston Respublikasining «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi qonunida «Jurnalist O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnoma asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni to'plash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir», deb yozilgan.

Demak, bu maqom talablariga turli xil axborot xizmati xodimlari (vazirliklar qoshida tuzilgan matbuot markazi xodimlari, reklama agentlari, «Tasviriy oyina» xodimlari, matbuot markazlari, kitob nashriyotlari va matbuot tarqatuvchi va boshqa jamiyatlar, jamg'armalar xodimlari) javob bermaydi, ular jurnalist maqomiga ega bo'la olmaydilar. Shu o'rinda aytish o'rinliki, ba'zi mamlakatlarda jurnalistning

reklama-tijorat ishlari bilan shug'ullanmasligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bizda bunday cheklash yo'q.

Jurnalistikamizning yanada rivojlanishi uchun, eng avvalo, jurnalistikaga oid qonunlarni yana bir marta chuqur o'rganib chiqish va unga ba'zi to'ldirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, albatta, qonun ijrosini amalga oshiruvchi va uni nazorat qiluvchi hujjat qabul qilinishi lozim.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari xodimlari O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasining hujjatisiz, ya'ni O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasining a'zosi, degan guvohnomasiz jurnalist maqomi huquqlaridan foydalana olmasligi kerak.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining maqomi haqida mustaqil qonun ishlab chiqish vaqti keldi. Qonunda ommaviy axborot vositalariga kiritilgan sohalar soni mingga etdi. Kiritilmagan, ammo jurnalistikaga aloqador sohalar ham ancha. Ularda ishlovchilar soni ham ko'p. Shu masalalar O'zbekiston qonunchiligida o'z ifodasini topishi kerak.

Ommaviy axborot vositalarida ishlashga qanday jurnalistlar jalb etilishi lozim?

Birinchidan, mustahkam g'oyaga, yuksak axloqqa ega bo'lgan jurnalistlar. Bu degani o'z manfaatini jamoat manfaatidan keyinga qo'yish, jamiyat va xalq oldidagi mas'uliyatini to'la anglash, xatti-harakatida qat'iy turish, vijdonli bo'lish, demakdir. Ikkinchidan, ishchanlik qobiliyati borlar. Bunga aql-zakovaqli hamda qobiliyatli bo'lish kiradi.

Uchinchidan, nutq madaniyatini egallagan bo'lishi, adabiy tilni chuqur o'zlashtirgan, to'g'rirog'i, adabiy tilda yozish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

To'rtinchidan, jurnalist uchun jismoniy, ruhiy sog'lom va bardoshi bo'lish juda zarur.

Bundan tashqari, bosh muharrir qaysi jurnalistga qanday topshiriq berishni bilishi, bunda adashmasligi kerak. Ruhiyati dilgir, ya'ni g'amgin jurnalistga qanday topshiriq berish, irodali, ammo tabiati og'ir jurnalistga qanday topshiriq berish kerakligini bilish ham juda muhim.

Jurnalistning muvaffaqiyatida ko'pchilik oldida uni maqtash va rag'batlantirishga e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda

jurnalistlarning mehnatiga qarab haq to'lashda ham adolat me'yorini buzilmasligi lozim.

O'ZBEKISTON JURNALISTLARI UYUSHMASI

Davriy matbuotning rahbarlari bir vaqtning o'zida ham yozadigan jurnalist, ham tahririyatga pul topadigan tadbirkor bo'lishlari kerak. Bu bugunning talabiga aylandi.

O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi – gazeta, jurnal, televideniye, radioeshittirish, axborot agentliklari va nashriyotlarda ishlovchi professional jurnalistlarning ko'ngilli ijodiy jamoat tashkiloti. Uyushma 1959-yilda tuzilgan. Birinchi ta'sis qurultoyi 1959-yilning 20-22-aprelida Toshkentda o'tkazilgan.

Keyin jurnalistlar uyushmasi tarqatilib, 1996-yil 30-avgustda O'zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil etildi.

2004-yilning 26-martida jurnalistlarning ta'sis konferensiyasi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi tashkil topdi. Jamg'arma o'z faoliyatini tugatdi. Uning barcha mol-mulki uyushma tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining asosiy vazifasi «Jurnalistlarning jamiyatda tutgan o'rnini va mavqeni ko'tarish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli gazeta-jurnallar, tele va radio kanallarida, nashriyotlar va axborot agentliklarida ishlayotgan, shuningdek, erkin ijodkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ijodiy hamda ma'naviy huquqlarini, sharafiga va qadr-qimmatini, davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining muassislari va nashrlari oldida huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishdan iborat», deb belgilangan.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining, shu jumladan, jurnalistlar ijodiy uyushmasining a'zolarini birlashtirgan jamoat tashkiloti – ommaviy axborot vositalari xodimlari kasaba uyushmasi tuzish maqsadiga muvofiq ish bo'lardi.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi xalqaro jurnalistlar uyushmasi (XJU) bilan aloqani rivojlantirishi zarur.

Markazi Pragada joylashgan bu tashkilot 1946-yilda tashkil topgan bo'lib, u bugungi kunda demokratiya, tinchlik va ijtimoiy rivojlanish bayrog'i ostiga yuzdan ortiq mamlakatning yuz minglab professional jurnalistlarini birlashtirgan uyushmadir.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi davriy matbuot, jumladan, gazetasiga, hamda televideniye va radioda o'z kanaliga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bu jurnalist kadrlarni tayyorlash borasida katta ahamiyat kasb etadi.

JURNALIST AQLIY MEHNAT KISHISI

Ommaviy axborot vositalaridagi ish aqliy mehnat sohasiga kiradi. Bu yerda ishlovchidan har kuni yozish, unga tayyor bo'lish talab qilinaadi. Bugina emas, u tezkor, ham serunum ishlashga majbur. Chunki tahririyat ishi ijtimoiy-ishlab chiqarish xarakteriga ega. Ishlab chiqarish uzluksiz ishlaydi. Demak, jurnalist ham uzluksiz faoliyat ko'rsatishga majbur.

Bozor iqtisodiyoti jurnalistlar mehnatini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Kompyuter tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi jurnalist faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jurnalist nafaqat yozish, balki o'z matnini terish, tuzatish kabi ishlar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lmoqda. Yana chet mualliflarning maqolalarini tahrir qilish va chop etishga tayyorlashdan qutilgan emas.

Jurnalistlar mehnati jamoat ishlab chiqqan mahsulot bilan belgilanadi va baholanadi. Jurnalist yozgan maqola bir necha qo'ldan o'tadi. Uni tahrir qilishadi, raqamlar tekshiriladi, musahhah o'qiydi, rassom- dizayner yoki mas'ul kotib uni sahifada joylashtiradi va h.k.. Demak, eng avvalo, tahririyatda har bir ishni oqilona taqsimlash kerak.

Ommaviy axborot vositalari tahririyatlarida ikki asosiy guruh faoliyat ko'rsatadi. Birinchisi, jurnalistlar, bular, asosan, axborot mahsuloti beruvchilar, ikkinchi guruh shu mahsulotni iste'molchilar uchun tayyor holga keltiruvchilar. Bunga texnika, moliya ishlari bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqarishni tashkil qiluvchilar, musahhahlar va boshqalar kiradi.

Tahririyatlar boshqaruvchilar va bajaruvchilar guruhiga bo'linadi.

Boshqaruvchilar guruhiga, asosan, bo'lim mudirlari yoki bo'lim muharrirlari, bosh muharrir o'rinbosari, mas'ul kotib kiradi.

Bajaruvchi guruhga esa muxbirlar, katta muxbirlar, sharhlovchilar va boshqalar kiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda jurnalistlar ichida soha bo'yicha ixtisoslashish amalga oshirilmoqda. Birovlari siyosat bilan, ikkinchilari iqtisod, uchinchilari sport, to'rtinchilari san'at sohalari bilan shug'ullanishga ixtisoslashmoqda.

Tahririyatlarda yana bosh muharrir, teleradioda rais, nashriyotlarda bosh direktor kabi yuqori lavozimlar bor. Ular oxirgi so'zni aytuvchi, jamoa faoliyatini yurgizuvchilardir. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining qandayligi ko'pincha shu yuqori lavozimni egallagan boshliqlarga bog'liq bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga qarab, gazeta va jurnallarda maxsus muxbir, o'z muxbiri, reklama menedjeri, teleradioda rejissyor, ovoz operatori, musiqa muharriri va boshqa lavozimlar bo'lishi ham mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining barcha turlarida tahririyatlar bo'lib, ular tasdiqlangan hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatishadi. Ular har xil, lekin markaziy o'rinda ommaviy axborot vositalarining ustavi turadi. Davriy matbuot tahririyatlarida yana muassis bilan tahririyat o'rtasida tuzilgan ta'sis shartnomasi mavjud. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risida»gi qarorida aks ettirilgan. Tahririyatlar faoliyati ularning ichki hujjatlari, xodimlar bilan tuzadigan mehnat shartnomalari, lavozim qo'llanmalari, bosh muharrir buyruqlari orqali boshqariladi.

Barcha tahririyatlar reja tuzadi va shu turli rejalar asosida ish olib boradi.

AXBOROT ALMASHINUVI

Axborot almashinuvida ikki tomon ishtirok qilishi hammaga ma'lum. Bir tomoni axborot manbai bo'lsa, ikkinchi tomonida axborot oluvchi turadi. Jurnalistikada shu ikkinchi tomon auditoriya, deb nomlanadi. Bu so'zning asl ma'nosi bugun tinglovchi, tomoshabin, o'quvchi guruhi yoki omma deganidir. Bu guruh yoki omma ikki toifaga bo'linadi. Birinchisi, faollar (unga to'g'ridan-to'g'ri tahririyatlarga xat bilan murojaat qiluvchi yoki teleradio dasturlari

haqida o'z fikrlarini bildiruvchilar), ikkinchisi, faol bo'lmagan, sust toifadagilar (tahririyatlar mahsulotini qabul qiluvchilar)dir. Auditoriya – ommaviy ongni odatiy yetkazuvchisi, degan fikrga kelish mumkin. U aniq bir tartibga, o'zining ravshan belgilariga, u tashkil etgan qismlar orasida biron bir «to'siqqa» ega emas. Xuddi shu xususiyatlari bilan u guruhliy ongdan keskin farqlanadi.

Auditoriya qaysi axborotni qabul qilishi masalasi chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammo. Chunki nashr yoki eshittirishni ishga tushirishdan oldin, u kimga qaratilgani, uni qanday qabul qilishlari, u qanday ta'sir etishi mumkinligi kabi savollarga aniq javob topish lozim bo'ladi. Bularni tahririyatlarning biznes rejasiga kiritish kerak.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, tahririyatlarning eng asosiy muammosi o'quvchilar yoki tomoshabinlar bilan o'zaro aloqaga erishishdan iborat.

Jurnalistika uchun auditoriya bilan jonli aloqa juda ham muhim. Har bir televideniye va radio, gazeta, jurnal va nashriyotlar faoliyatiga auditoriya bilan o'rnatilgan aloqaga qarab baho berish o'rinli bo'ladi.

Eshittirish-u ko'rsatuv, kitobmi yoki gazeta-jurnal xalq hayoti, uning muammolari, orzu-istagi, dardini yoritmagina uni omma xalqchil ommaviy axborot vositasi deb ataydi va uni qo'llab-quvvatlaydi. Ommaviy axborot vositalarining xalq bilan bog'lanishiga erishish yo'li ko'p. Tajriba asosida quyidagi shakllarga to'xtalamiz:

- epistolyar, ya'ni tahririyatlarga keladigan xatlar, telefon orqali murojaatlar;

- tezkor, ya'ni telefon orqali tele yoki radio orqali berilayotgan ko'rsatuv yoki eshittirishga o'z munosabatini bildirish, auditoriyadan to'g'ridan-to'g'ri eshittirish qilib, xalq fikrini bilishga harakat qilish, hatto gazetachilik tajribasida bo'lgan «qaynoq telefon» orqali suhbatlar uyushtirish;

- hammuassislarni nashrning navbatdagi sonini yoki teleradio dasturini tayyorlashga jalb qilish;

- test, ya'ni tahririyat ishini, yoki ommaviy axborot vositalari ko'targan biron bir mavzu bo'yicha auditoriya qarashlarini varaqa, shaxsiy muloqot, telefon orqali aniqlash;

- konsultativ, ya'ni tahririyat faoliyati haqida o'quvchi va tomoshabinlardan anjumanlar, ochiq xat kunlari va boshqalar orqali maslahat olish;

– ekspertiza qilish, ya'ni ommaviy axborot vositalari ishi, jurnalistika tajribasi haqida tadqiqot va ilmiy-tanqidiy materiallarni, mutaxassis ekspertlar fikrini o'rganish;

– tadqiqot o'tkazish, ya'ni nashr yoki dastur bo'yicha real auditoriya reytingi o'sishini hisoblab chiqish hamda auditoriyani chuqur o'rganish.

Bu shakllarning birontasi ham bir-birining o'rnini bosa olmaydi. Ulardan unumli foydalangan nashrlar ham, teleradio ham muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Jurnalist kim va unga davlat xizmatidagi xodimlarnikiga o'xshash qanday imtiyozlar berilgan?

2. Jurnalistning ijtimoiy-kasbiy maqomini aniqlang.

3. «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida jurnalistga qanday ta'rif berilgan?

4. Jurnalistikamiz rivojiga oid yangi qonunlar kerakmi?

5. Qanday jurnalistlar OAV tahririyatlarida ishlashga jalb qilinishi kerak?

6. Jurnalistlarni rag'batlantirish borasida qanday ishlar o'tkazilayapti?

7. Jurnalistlarning ko'ngilli ijodiy jamoat tashkiloti haqida nimalarni bilasiz?

8. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining asosiy vazifalarini sharhlang.

9. Jurnalistga nega aqliy mehnat kishisi maqomi berilgan?

10. OAV tahririyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan ikki guruhni sanang.

11. Jurnalistlarni sohalar bo'yicha tayyorlash kerakmi?

12. Tahririyatlarda mavjud bo'lgan huquqiy hujjatlarni izohlang.

13. Auditoriyaga tavsif bering.

14. Jurnalistikada jonli aloqa nega kerak?

15. OAVning xalq bilan qayta bog'lanishi shakllarini sanang.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jurnalist qanday kasb egasi?

2. Jurnalist kasbining o'ziga xosligi nimada?

3. Turli axborot xizmati xodimlari ham jurnalist degan maqomga egami?

4. Jurnalist maqomi haqida qaysi qonunda qanday yozilgan?

5. Jurnalistga qanday talablar qo'yiladi?

6. O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi nega zarur bo'lib qoldi?

7. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasiga qo'yilgan asosiy talablar.

8. Jurnalist nega aqliy mehnat kishisi ro'yxatiga kiritilgan?

9. Axborot mahsuloti beruvchilar tahririyatning birinchi guruhiga kirsam, ikkinchi guruhiga kimlar kiradi?

10. OAV tahririyatlaridagi rahbarlar qanday nomlanadi?

11. OAVda mehnat qiluvchilar qanday nomlar bilan ataladi?

12. Gazeta va jurnallarimiz faoliyatini ta'minlovchi eng zarur huquqiy hujjatlarni ayting.

13. Axborot almashinuvida auditoriyaning tutgan o'rni.

14. Qaysi matbuotni xalqchil deb ataymiz va u qanday shakllarga ega bo'lishi kerak?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *I.A.Karimov*. Yo'limiz – mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li. T., 1994.

2. Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama. T., 2003.

3. *Ворошилов В.В.* Журналистика. СПб., 2001.

4. *Авратов D.S.* Профессиональная этика журналиста. М., 1999.

5. *С.Г. Корконосенко*. Основы журналистики. М., 2001.

6. «O'zbekiston matbuoti» jurnali. 1999, 4-son, 1997, 2-son, 1999, 1-son, 2001, 2-son.

7. Газетный мир (библиотека журналиста). М., 1971.

IV. JURNALISTIKA AMALIYOTINI BOSHQARISH

MATBUOT ERKINLIGI MASALASI

Jurnalistika amaliyotini boshqarish ommaviy axborot vositalari tizimida ham ichki, ham tashqi tomondan amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari nimani va qanday yoritishi mumkin yoki mumkin emas, degan savolning javobi matbuot erkinligi bilan belgilanadi.

Bu masala necha asrlar o'tibdi, kun tartibidan tushmay keladi. Matbuot erkinligi iborasi taraqqiyotning buyuk qadriyatlari bo'lgan fikr, vijdon, ong erkinligi bilan bir qatorda turadi.

Insoniyatning madaniy rivojlanishda erishgan ko'p yutuqlari axborot vositalari ishtirokida amalga oshirilgan. Bu o'zaro aloqa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan bu Deklaratsiyada «insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi» ekanligi e'lon etilgan. Deklaratsiyada insonning fikrlash, vijdon, din erkinligi, e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash va boshqa huquqlar ifodalangan.

Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari», deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la mos keladi. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunining 2, 3, 4-moddalarida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, har kimning ommaviy axborot vositalarida chiqishi, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqi borligi, O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmasligi yozib qo'yilgan.

Matbuot erkinligi so'z, shaxs, vijdon erkinligi singari siyosiy huquqlardan biri bo'lib, matbuotning erkin faoliyat ko'rsatishini,

kishilarning matbuotda o'z fikr va tuyg'ularini to'siqlarsiz ifoda eta olishini ifodalaydi. Aslida erkinlik anglangan zarurat ekanligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Shu o'rinda taniqli olim Muxtor Xudoyqulovning matbuot erkinligi maqolasiga to'xtalamiz. Unda muallif matbuot erkinligining 3 asosi mavjudli to'g'risida fikr yuritadi.

Birinchisi, matbuot erkinligining ijtimoiy-siyosiy asosi. Bu bosh asos matbuotning qaysi ijtimoiy borliqda, qanday tuzumda faoliyat ko'rsatishi, qaysi ijtimoiy ongning ko'rinishi ekanligi, qaysi mafkura va g'oyalarga xizmat qilishidan kelib chiqadi.

Ikkinchisi, matbuot erkinligining iqtisodiy asosi. Bu asos matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalarining kim tomonidan, qaysi mablag'lar evaziga chiqarilishi bilan bog'liq, ya'ni matbuot kimning mablag'i evaziga, iqtisodiy qo'llashi natijasida chiqsa o'sha uchun erkin bo'ladi.

Uchinchisi, matbuot erkinligining ma'naviy asosi, bu asos uni chiqarayotgan shaxs, guruh, unda ishlovchi jurnalistlarning ichki dunyosi, dunyoqarashi, e'tiqodi bilan bog'liq.

Matbuot erkinligi masalasida bir qancha qarashlar mavjud. Shulardan ba'zilarini qarab chiqaylik.

O'zbek jurnalistikasida matbuot erkinligi haqida tarixiy shior XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan jadid matbuotida ko'tarilgan edi. Bu matbuot 1906-yildan to 1916-yilgacha bo'lgan davrda xalqni o'zligini anglashga, uyushishga chaqirdi. O'lkaning moddiy va ma'naviy boylıkları talon-taroj qilinayotganligini oshkor qildi.

Sirojiddin Ahmedov hamda Qahramon Rajabovlarning jadidchilikka oid maqolalarida jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni «Har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi», «Milliy ongining ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozir'ay oldi, degan fikrni aytishadi.

Jadid matbuoti namoyandalari mustamlakachi chor hukumatining matbuot erkinligi borasidagi qattiq zulmiga qarshi chiqqan edilar.

Bunday jurnalist publitsistlar safida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar bor edi. Keyinchalik matbuot erkinligi masalasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Burjua matbuoti erkin matbuot deb nom oldi. Ma'lum darajada bu gapda haqiqat bor edi. Shu bilan birga matbuotning sarmoyaga qaramligi ham oshdi.

Matbuot erkinligi, Muxtor Xudoyqulov ta'biricha, undan xohlagancha foydalanish erkinligiga, boylık orttirish erkinligiga aylana bordi.

Matbuotga shov-shuvli, oldi-qochdi materiallarga, reklamalarga had-dan tashqari keng o'rin berila boshlandi.

Ammo sobiq sho'ro tuzumi davrida O'zbekistonda ham matbuot erkinligi «ta'min etilgan» bo'lsa-da, amalda ommaviy axborot vositalari faoliyati partiyaviy nazorat ostida bo'lib, kommunistik partiya mafkurasiga xizmat qildirildi.

Mustaqil O'zbekistonda matbuot erkinligi masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek, yuksak marralarga erishish uchun keyingi yillarda mamlakatimizda qonunchilik sohasida va amaliy hayotimizda, ommaviy axborot vositalari va matbaachilikning erkin faoliyati uchun zarur kafolat va sharoit barpo etish, jurnalist kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ko'p ishlar qilindi va qilinmoqda.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. BMTning inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasida jurnalistik faoliyatga oid qanday fikrlar aytilgan?

2. Matbuot erkinligi to'g'risida O'zbekistonda qanday huquqiy hujjatlar bor?

3. Matbuot erkinligining uch asosini sharhlab bering.

4. Jadid matbuotida matbuot erkinligi masalasi qanday bo'lgan?

5. Sobiq sho'ro tuzumi davrida va hozirda matbuot erkinligi masalasini ta'riflab bering.

6. Matbuot to'g'risidagi O'zbekiston qonunlarini sanang.

7. Muallif huquqi haqida qonunda nimalar deyilgan?

NAZORAT SAVOLLARI

1. OAV nimani va qanday yoritishi mumkin yoki mumkin emas, degan savolning javobi nima bilan belgilanadi?

2. Axborot vositalari ishtirokida amalga oshirilgan yutuqlar ta'sirini ayting.

3. Qaysi va qachon qabul qilingan hujjatda «Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi» ekanligi e'lon qilingan?

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalgan 2-bo'limini sharhlab bering.

5. OAVning erkinligi O'zbekistonning qaysi hujjatlarida o'z ifodasini topgan?

6. Matbuot erkinligining uch asosi bor. Shularni izohlab bering.

7. Matbuot erkinligi masalasida qanday qarashlar mavjud?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Islom Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.

2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2001, 2-jild, 2003, 5-jild.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992.

4. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. T., 2003.

AXBOROT TIZIMI HUQUQLARI MAZMUNI

Bu haqda gap ketganda, eng avvalo, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunga murojaat qilamiz.

Qonun ommaviy axborot vositalarini erkin bo'lib faoliyat yuritishlarini, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanishlarini kafolatlaydi. Muassis senzurani amalga oshirishi, maqolalarni retsenziyadan o'tkazishi yoki tahririyatning ijodiy faoliyatiga aralashishi mumkin emas. Bu huquq qonunda o'z ifodasini topgan. Qonunda tahririyatga kelgan xatlarni e'lon qilishga tayyorlash chog'ida muallif maqolasi mazmunini buzmaslik ham ko'rsatib o'tiladi.

Bu qonundan kelib chiqqan holda uni rivojlantirgan yana bir nechta qonunlar qabul qilindi: «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida», «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida», «Noshirlik faoliyati to'g'risida», «Reklama to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunlar. Shulardan biri – «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunni qisqacha sharhlab o'tsak.

Qonun 1996-yil 30-avgustda kuchga kirgan. Unda «Umumiy qoidalar» bo'limida 3 ta modda, «Mualliflik huquqi» bo'limida 44 ta modda, «Turdosh huquqlar» bo'limida 15 ta modda, jami 61 ta modda bor.

Mualliflik huquqi mavzusining umumiy rejasida adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar) bor. Bundagi «adabiy asarlar» degan iborani tahlil etib ko'rsak. Mualliflik huquqi mavzusida sanalgan asarlar ro'yxatida «jurnalistik asarlar» degan ibora ishlatilmagan. Vaholanki, unda dramatik va ssenariy, matnli va matnsiz musiqa, musiqali-dramatik, xoreografiya, audiovizual, tasviriy san'at, sahna bezagi, arxitektura, shaharsozlik va bog'–park barpo etish san'ati, fotografiya va h.k. asarlar sanalgan bo'lsa-da, huquqshunos olimlar fikricha, «adabiy asarlar» iborasi keng ma'noda qo'llanilgan va bunga ilmiy, o'quv publitsistik va boshqa ishlarni ham qo'shish mumkin.

O'z huquqini himoya qilmoqchi bo'lgan muallif asarning har bir nusxasida aylana ichiga olingan lotincha «C» harfi bilan o'z nomi (ism sharifi)ni va asar birinchi marta e'lon qilingan yilni yozib qo'yishi lozim. «C», ya'ni kopirayt belgisi deyarli hamma jurnallardagi maqolalar, telefilmlar va eshittirishlarda qo'yiladi. Gazeta materiallarida, radio to'lqinlari orqali berilgan eshittirishlarda negadir kopirayt qo'yilmaydi.

Jurnalistika faoliyatida biron-bir muallifning e'lon qilingan yoki e'lon qilinmagan asaridan foydalanilgan vaqtda agar uning roziligini olish shart bo'lmagan bo'lsa-da, baribir muallifning nomini ko'rsatish shart. Buni talaba chuqur bilishi, hatto, nazorat ishimi, kurs ishimi, diplom ishimi yozayotganda boshqa mualliflarning maqolalaridan foydalanganda, albatta, unga havola qilishi, ya'ni izohini sahifa ostiga yozib qo'yishi lozim. Aks holda bu holatga plagiat, ya'ni adabiy o'g'rilik, ko'chirmachilik, deb qaraladi.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Axborot tizimi huquqlari qaysi hujjatda ifoda etilgan?
2. OAV tahririyatlari va ularning muassislari o'rtasidagi munosabatni sharhlang.
3. Jamiyat va davlatning OAVga munosabati qaysi qonunda ifoda etilgan?
4. OAV tahririyatlari va mualliflar huquqlari.
5. Axborot tizimi huquqlarini belgilovchi yana qanday hujjatlar qabul qilingan?
6. «Plagiat», ya'ni «adabiy o'g'rilik» degan atamani sharhlab bering.

NAZORAT SAVOLLARI

1. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunda axborot tizimi huquqlari qanday ta'riflangan?
2. OAV muassislari uchun nimalar ta'qiqlangan?
3. Davlat OAV xodimlarining qaysi huquqlarini kafolatlaydi?
4. Tahririyat kelgan xatlardan qanday foydalanadi?
5. «OAV to'g'risida»gi qonunning mazmunini keng ochib bergan va uni rivojlantirgan qonunlarni sanang.
6. Qonundagi «adabiy asarlar» iborasini sharhlang.
7. Koperayt degani nima va u qaysi asarlarga qo'yiladi?
8. Kimlarni «plagiat», ya'ni «adabiy o'g'ri» deymiz?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. Т., 2003.
2. С.Г. Корконосенко. Основы журналистики. М., 2001.
3. Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Fablik Rileyshnz. Ma'lumotnoma, 1700 ta atama. Т., 2003.

OSHKORALIK VA UNING QO'LLANILISHI

Oshkoralik mavzusi matbuot erkinligi haqidagi masala bilan uzviy bog'liq. Oshkoralik – demokratiyaning zarur bo'lgan shartlaridan biri. Demokratiya deb, fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzumga aytilishi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ta'kidlangan. Demokratik davlat o'z-o'zini boshqarish, ko'p partiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi.

Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, senzura yo'l qo'ymaslik bilan oshkoralikni ta'minlash mumkin.

«Buxoro axbori» gazetasiga muharrirlik qilgan Cho'lpon «Matbuot kuchli bir davlatdir» deb nomlangan dasturiy maqolasida (maqola tahririyat nomidan berilgan) gazetaning asosiy vazifasini quyidagicha belgilaydi:

– gazeta xalq tushunishi qiyin bo'lgan uzun-uzun materiallar o'rniga ko'proq xabarlarini yoritadi, sodir bo'lgan voqealar to'g'risida ma'lumot beradi, ya'ni yangiliklarni berib boradi;

– gazeta muhim voqealarning mohiyatini anglatish uchun sharq xususiyatidagi maqolalar chop etib boradi;

– matbuot xalqning tili, so'zi sifatida ish ko'radi. Shu sababli, hatto, yosh jumhuriyatning xato va kamchiliklarini ko'rsatib, bu bilan ularni tuzatishga yordam beradi;

– gazeta hukumatning ham tilidir. Shuning uchun hukumat muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida xalqqa ma'lumot berib boradi.

Xuddi shu so'nggi jumalarga e'tibor qarating. Cho'lpon xuddi shu yerda gazetaning oshkoralik tamoyillariga amal qilishni ham alohida ta'kidlagan edi.

Oshkoralik sharoitida axborot faoliyatining foydali ijtimoiy ta'siri birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Unga, birinchi navbatda, yashayotgan jamiyatimizni chuqur bilish kiradi. Ikkinchidan, ijtimoiy harakat ta'sirini ham alohida ko'rsatish muhim.

Oshkoralik samarasiga boshqarish organlarining oddiy fuqarolar bilan aloqasini mustahkamlash ham ta'sir qiladi. Xuddi shunda boshqaruv tizimini jamoatchilik nazoratida ushlab turish imkoniyati tug'iladi. Yana shu bilan bir qatorda axborotning «pastdan» doimiy oqib kelishi ta'minlanadi.

Oshkoralikni faqat aytish, yozish imkoniyati deb o'ylamaslik, balki uni «yuqori» eshitishi va xulosalar chiqarishiga erishish harakati deb ham tushunmog'i lozim. Oshkoralik har xil qarashlar, fikrlar mavjudligidir. Oshkoralik yashashi uchun tabiiyki, unga kafolat kerak. Yana axborot tizimida qonunchilik bazasi rivojlangan bo'lishi ham zarur.

Oshkoralikning amalga oshishi uchun demokratik yo'nalishda axborot almashinuvida ishtirok etayotgan odamlarning siyosiy, axloqiy hamda kasbiy madaniyati yuqori bo'lishi ham talab qilinadi.

Prezidentimizning «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalarida ijodiy jamoasiga yuborgan tabrigida (2001-yil) «... biz demokratik davlat, ozod va tom ma'noda erkin hayot qurmoqchi ekanmiz, bu o'zgarishlarni avvalambor matbuotdan boshlashimiz darkor», – degan so'zlarini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti dekani, tarix fanlari doktori Qudrat Ernazarov «Nozik tushunchalarga nozik munosabat» maqolasida bunday voqeani yozadi. Vatanimiz fuqoroligi haqidagi qonun yuzasidan muhokamalar davom etayotgan edi. «Литературная газета» muxbiri A. Krujilin qonun loyihasidagi «Ushbu mamlakatda yashovchi har bir fuqaro o'zbek xalqining urf-odatlari va an'analarini hurmatlashi kerak», degan mazmundagi jumlagi «yopishib» oladi, uni o'zicha talqin etadi. Talqin shu darajaga yetadiki, yo'q yerdan ikki e'tiqod, ikki an'ana, ikki qadriyat asosida yashovchi ikki xalq orasiga sovuqchilik tushirishgacha boradi. Muxbirning yozishicha, kishilar qonunni hurmatlasa kifoya, ular mahalliy xalq urf-odatini hurmatlashga majbur emas. Misol tariqasida u o'g'il bolaning qo'lini halolash, qurbonlik qilish, qalin singari odatlarni sanab o'tadi va nasroniylar bunday odatlarga rioya qila olmasliklarini aytadi... Bu o'rinda biz uchun muhimi – jurnalistning nuqtayi nazari va xolisligi! Gap e'tiqod va tushunchalarga daxldor o'ta nozik masalalar xususida so'z yuritganda yuksak professional mahorat bilan, shaxsiy zaifliklari xusumatlarni chetga surib qo'ygan holda yozish haqida bormoqda!

1906-yilning 14-(27) iyunidan chiqa boshlagan «Taraqqiy» gazetasining birinchi sonida e'lon qilingan bosh maqolada Turkiston xalqlarining o'z milliy mustaqilligi uchun, so'z, matbuot erkinligi va boshqa siyosiy huquqlarga erishish uchun kurash olib borishi lozimligi ta'kidlangan edi.

Hur fikrli nashrlarning birinchisi bo'lgan «Taraqqiy» gazetasi

o'zbek milliy jurnalistikasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi. U tug'ilgan kun o'zbek milliy matbuoti tug'ilgan kun sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu haqda yuqorida aytgan edik.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oshkoralik o'ta murakkab va ko'p jihatli hodisa bo'lib, unga erishish zarur va bizda bunga hamma sharoitlar yaratilgan.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Oshkoralikni nima uchun demokratiyaning zarur shartlaridan biri deymiz?
2. Demokratiya nima va u nimaga sharoit yaratadi?
3. Qachon oshkoralikni ta'minlash mumkin?
4. Cho'lpon gazetaning asosiy vazifasini belgilab, unda oshkoralik tamoyillariga amal qilish to'g'risida qaysi mashhur maqolasida yozgan?
5. Oshkoralikka ta'sir qiladigan kuchlarni ayting.
6. Oshkoralik amalga oshishi uchun qanday sharoit bo'lishi kerak?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Oshkoralikka aytish, yozish imkoniyatigina deb qaralsa bo'ladimi?
2. Demokratiyasiz ham oshkoralik bo'lishi mumkinmi?
3. Oshkoralik bo'lishi uchun qanday sharoit yaratilishi kerak?
4. Oshkoralikni ta'minlash mumkinmi?
5. Cho'lponning «Buxoro axbori» gazetasiga muharrirlik qilgan paytida yozgan «Matbuot kuchli bir davlatdir» deb nomlangan maqolasida oshkoralik haqida qanday fikr aytilgan?
6. Oshkoralikka ta'sir etuvchi kuchlarni bilasizmi?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Islom Karimov*. Matbuot va OAV xodimlariga tabrik. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 2002, 4-son.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2002, 3-jild.
3. Maqsadimiz demokratik jamiyat qurish. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1997, 2-son.
4. Faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlari. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1999, 4-son.

JURNALIST ODOBI VA AXLOQI

Axloq-odoblar majmui. Har bir xalqning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari bor. O'zbekistonda sho'rolar istibdodi davrida axloqqa bir tomonlama, ya'ni sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan yondoshildi.

Odobli, axloqli har bir jurnalist xalqning urf-odati, marosimlariga hurmat bilan qaraydi.

Taniqli yozuvchi, jurnalist Erkin A'zam Asqad Muxtor haqidagi xotirasida shunday deydi:

«Guliston» jurnalida adabiyot bo'limida ishlardim. Bosh muharririmiz Asqad aka bir kuni xonamga kirib, qo'limga bir dasta she'r tutqazdi: «Shuni bir ko'rib bering»(boshqa rahbarlarga o'xshab u kishi xodimlarni huzuriga chaqirib o'tirmas, gapi bo'lsa, mana shunday o'zi kirib kelaverardi). Qarasam o'zlarining she'rlari. Hayron bo'ldim: buni nega menga berdilar? Bularni «bir ko'rib berish»ga mening haddim sig'armidi – shoir bo'lmasam, qolaversa, she'rlar kimsan Asqad Muxtorniki?! Xo'p ko'rdim, o'qib chiqdim ham deylik, keyin nima?... Gap shundaki, o'sha kezlar o'zingiz bosh bo'lgan nashrda asaringizni bostirish odobdan sanalmas edi.

Otaxon jurnalist Ziyod aka Yesenboyevning mas'uliyat va burch bo-rasidagi suhbatlari esimizda. Ular ommaviy axborot tahririyatlarini muqaddas dargoh, deb hisoblaydilar. Aholi bu joyni haqiqat va adolat ramzi deb tushunadi. Shunday ekan, hozirgi davrda har bir jurnalist adibimiz Asqad Muxtor singari axloq-odob, pok ma'naviy qiyofaga va, albatta, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lishi kerak, degan fikrni aytadilar.

Xuddi shunday talab Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan edi. «Biz jurnalistlar ahli siyosiy yetuk, mas'uliyatli, halol va vijdonli, o'z ishini yaxshi biladigan, mamlakatimizning vatanparvar kishilaridan iborat bo'lishiga erishmog'imiz darkor», degan edi Islom Karimov.

Demak, har bir jurnalist, avvalo, odeb-axloqli bo'lishi kerak. U o'z ishining murakkabligini va mas'uliyatini anglagan holda kasb mahoratini oshirib borishi va jurnalist degan nomning salmog'ini yanada ko'tarishi lozim.

Kasbiy burch deganda jurnalistning, avvalo, qalam tebratib, el-yurti yangiliklardan xabardor etishi, xalqimiz ko'nglidagi o'y-

maqsadlarni, rejalarni yanada teranroq anglab, ifoda qilish baxti nasib etganligidan faxrlanishi, bu yuksak ishonchni oqlashi, qalamini yanada charxlashi tushuniladi.

Respublikaga taniqli jurnalistlardan biri, rahmatli Ismoil Sulaymonov «O‘zbekiston matbuoti» jurnalining 1999-yil 1-sonidagi «Hayotda tengi yo‘q baxt» maqolasida shunday degan edilar: «Xalq jurnalistlarga ishonadi. Bu esa ayni paytda zimmamizga katta mas‘uliyat yuklaydi. Unutma, deymiz doimo bir-birimizga, jurnalistning qadam olishi, o‘zini tutishi, so‘z bilan ish birligi necha o‘n minglab kishilar nigohida. Bu katta baxt, lekin uning shunga yarasha talabi ham bor. Navoiy bobomiz so‘zi bilan aytganda: «Oson emas bu maydon ichra turmoq». Tahririyatga kelgan bir shikoyatning izidan borish, odamlar bilan uchrashish, eshitganlarini iymon va diyonatning xolis tarozisiga solish, oqning oq, qoraning qora ekanligini aniqlab olish, to‘g‘ri to‘xtamga kelish va nihoyat butun mas‘uliyatni zimmaga olib, matbuotda chiqish qilish, so‘ng uning natijasi uchun kurashmoq – bularning bari aytishgagina oson»¹. Har bir jurnalist o‘z kasbiga burchli qolish istagi, matbuotning bosh tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatishi lozim.

Shuni ta’kidlash joizki, 70 yil yakka g‘oya hokimligini joriy etgan partiyaning asosiy quroliga aylanib, jamiyat hayotini sinf-y-partiyaviy nuqtayi nazardan yoritib kelgani uchun uning matbuoti inqirozga yuz tutdi.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Axloq me‘yorlari haqida nima bilasiz?
2. Axloq me‘yorlariga qanday qarashlar mavjud?
3. Nega tahririyatni «muqaddas dargoh» deyishadi?
4. Kasbiy burch deganda nimani tushunasiz?
5. Odobli va axloqli jurnalist matbuotning qaysi bosh prinsiplariga rioya qilishi kerak?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Axloqli bo‘lish jurnalistga nega kerak?

¹ «O‘zbekiston matbuoti» jurnali, 1999, 1-son, 28-bet.

2. O'tmishda qanday axloqiy tamoyillar bo'lgan?
3. Jurnalist burchli bo'lishi uchun nimalarga rioya qilishi kerak?
4. Umuminsoniylik, xalqchilik, haqqoniylik, ommaviylik prinsiplarini izohlab bering.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2000, 1-jild.
2. *I.Sulaymonov*. Men jurnalistman. T., 2001.
3. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1999, 3-son, 2003, 6-son.
4. *J. Abdullaxonov*. Hayot obod vasl ayyomidir. T., 2004.
5. *Islom Shog'ulomov*. Buni umr derlar O'T., 1998.
6. *Ziyod Yesenboyev*. Umr daftari. T., 2004.
7. *Ф.П.Нестеренко. Ш.А.Миралимов*. Журналистика: координаты профессии. T., 2001.

PUBLITSISTIKA VA UNING KO'RINISHLARI

Eng avvalo, «publitsistika» degan soʻzning asl maʼnosi nimaligini bilib olaylik. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida publitsistika (lot. publicus – ijtimoiy) davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bagʻishlangan adabiy ijod turi deb taʼriflangan.

Publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uygʻotish va uni shakllantirish, maʼlum maqsadga yoʻnaltirish, hujjatli fakt-maʼlumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat.

Publitsistikaning predmeti – hozirgi zamon ijtimoiy hayoti, unga aloqador oʻtmish va kelajak faktlaridir.

Matbuot janrlarining hammasi publitsistikaga kirishini eʼtirof etish kerak.

Publitsistika soʻz sanʼati, obrazli tasavvurlarga tayanib ijtimoiy fikrga taʼsir etuvchi ijod turi deyish bilan birga publitsistikaning oshkoralik bilan ham chambarchas bogʻliqligini aytib oʻtish kerak. Demak, publitsistika faqat axborot emas, balki muammolar tahlili, hayotiy faktlarni oʻrganish xususiyatlariga ega boʻlgan ijod turi.

Publitsistik matnlarni janriy tasniflash, yaʼni materiallarni janrga koʻra farqlash masalasida lugʻatga murojaat qilamiz. Uzoq vaqtgacha har bir janr oʻz xususiyati va sifatiga egaligi eʼtirof qilib kelingan. Janrlar obʼyektiga koʻra tasniflangan. Aksariyat hollarda publitsistika obʼyekt sifatida real voqelikning fakt va hodisalari xizmat qilgan. Masalan, xabarda fakt-tafsilotlar yoritiladi.

Korrespondensiya, ocherk, reportaj, hisobotda ham hayot voqealari xususida fikr yuritiladi. Boshqa holatlarda muallif aks ettiriladigan voqelik ustida ishlaydi. Bu adabiy, teatr, kino taqrizi, maʼlum maʼnoda, sharhga ham tegishli.

Lugʻat mualliflari janrlar oʻz maqsadi, unda hal qilinadigan ijodiy vazifaning oʻziga xosligiga koʻra tasniflanishini ham koʻrsatishgan.

Ularning yozishicha, publitsistik matnni tasniflash oʻz ichiga uch asosiy unsumni oladi:

birinchisi, yangilik yoki yuzaga kelgan muammo haqidagi xabar;
ikkinchisi, vaziyatni ayrim-ayrim yoki toʻlaqonli ravishda anglash;
uchinchisi, auditoriyaga emotsional taʼsir oʻtkazish usullari.

Hayotda ijtimoiy faoliyat rivojlangani sari ijodkorning voqelikka faol aralashuvi, oʻz fikrini dangal ifodalash tamoyili ham rivojlanishi sir emas. Publitsistikaning fan, sanʼat, adabiyot asarlari tarkibiga tobora koʻproq kirib borayotganligini eʼtirof etish kerak.

Publitsistikaning bu fazilatlarini uzoq tarixiy jarayonda shakllandi, rivoj topdi. Chunki publitsistika xalqimiz tarixida ancha qadimdan ma'lum.

Publitsistika xususiyatlarini Norali Ochilov yozganidek, «Qobusnoma»da, Alisher Navoiy ijodida uchramiz. Masalan, Navoiyning «Majolis un nafois», «Munshaot» asarlarida ko'ramiz. A.Navoiyning o'zbek badiiy publitsistikasining asoschisi deb atashimiz adolatdan bo'ladi.

XXI asrning ikkinchi yarmida «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida, keyinchalik jadidlar matbuotida publitsistik maqolalarni ko'plab uchramiz. Ularning ijodkorlari I. Obidov, M. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, U. Xo'jayev, A. Avloniy, H. Muin, M. Abdurashidxonov, S. Ajziy va boshqa hur fikr jadidlarni bugun katta faxr va hurmat bilan eslaymiz.

Taraqqiyparvar jadid matbuotining ko'zga ko'ringan publitsisti Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolalari o'zining badiiy barkamolligi hamda tasvir vositalarining serjiloligi bilan milliy matbuotimiz sahifalarini chinakamiga boyitgan edi.

Olim Normurod Avazovning yozishicha, Behbudiy publitsistikasida ishtirak san'ati kuchli bo'lgan. Qalamkashning dunyoqarashi va maqsadlarida izchillik, ustivorlik, sobitlik ruhi ham kuchli bo'lgan.

Jumladan, «Bizni kemiruvchi odatlar» («Oina», 1915-yil), maqolasida muallif «to'y va ta'ziyaga sarf qilinadigan aqchalarimizni biz turkistonliklar ilm va din yo'liga sarf etsak, qariyb ovrupoliklardek taraqqiy etamiz va o'zimizda, dinimizda obro'y va rivoj topar», deb yozadi. U bu fikrni ikki yil avval «Omilimiz yoinki murodimiz» («Oina», 1913-yil) deb nomlangan maqolasida ilgari surgan edi. Unda «ma'lumimizdirki, to'y va ma'rakalarga sarf qilinadigan aqcha ila Kavkaz, Qrim, Orenburg va Qozonga usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur», deb yozgan edi.

Olim o'zining bu «Moziy – istiqbol torozusi» maqolasida Behbudiy maqolalarining kuchi ularning ixchamligida, fikrining siyiq va aniq, lo'ndaligida, deb juda to'g'ri aytadi. Chunki, uning deyarli barcha publitsistik maqolalari hajmi bugungi o'lchamda 4–5 qog'ozdan oshmaganligi bilan ajralib turardi.

Hajviy publitsistikaning eng rivojlangan keng qamrovli janri felyeton bo'lib, u haqda kitobning jurnalistika janrlari bo'limida batafsil to'xtaymiz.

Mustaqillikka erishgan O'zbekistonda milliy jurnalistikada katta

o'zgarishlar sodir bo'ldi. An'anaviy sharhlash jurnalistikasi o'rniga yangiliklar jurnalistikasi paydo bo'ldi. Natijada, publitsistik janrlar informatsiya, ya'ni axborot janrlariga ko'proq o'rin bera boshladi.

Bugungi kunda Naim Karimov, Ibrohim G'ofurov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Abduqahhor Ibrohimov, Sultonmurod Olim, Ahmadjon Meliboyev, Nazrulla Jo'rayev va boshqalar o'zlarining dolzarb publitsistik maqolalari bilan o'zbek publitsistikasiga munosib qissa qo'shib kelmoqdalar.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. «Publitsistika» so'zini sharhlab bering.
2. Publitsistikaning vazifasi nimalardan iborat?
3. Publitsistikaning predmeti haqida nima deya olasiz?
4. A. Navoiyni o'zbek badiiy publitsistikasining asoschisi deb atash adolatdanmi?
5. Bugun O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan publitsistlardan kimlarni bilasiz?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turini va uning vazifasini ayting.
2. Publitsistikaning xususiyatlarini qaysi tarixiy asarlarda ko'ramiz?
3. Publitsistik maqolalari bilan tanilgan qaysi yozuvchi, jurnalist, olimlarni bilasiz?

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2004, 7-jild.
2. «Jadid matbuotida hajviy publitsistika», «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1997, 4-son.
3. «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1998, 5-son.

JURNALISTIKA JANRLARI

Jurnalistikada «janr» degan tushuncha bor. Janr deganda ommaviy axborot vositalari matnlarining umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan, voqelikni aks ettirishning badiiy va publitsistik shaklini tushunamiz. Bu tushuncha voqelikni bilish usullari, uning aks etishi va ijtimoiy amaliyotga ta'sir o'tkazishiga ko'ra farqlanuvchi asarlarning mazmun va shaklining umumiy xususiyatlari yig'indisini anglatadi. Janrlar haqida gapirishdan oldin ularni qanday farqlash kerakligini bilib olishimiz lozim. Jurnalistikaning har bir janri o'zining aniq vazifasi, ko'rinishi va yozilish uslubiga ega desak xato bo'lmaydi. Lekin ba'zi janrlar bir-biriga shunchalar yaqinki, ularni bir-biridan ajratib olish qiyin bo'ladi.

Demak, ularni farqlashdan avval guruhlashtirib olgan ma'qul. Hozirgacha publitsistik janrlarni guruhlashtirishda turli yondashuvlar mavjud. Bu holat jurnalistikada mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlovchi yangi janrlarning paydo bo'lishi, eskilarining amaliyotdan mantiqiy ravishda chiqib ketishini taqazo etadi. MDH jurnalistikasida publitsistik janrlar uchta asosiy guruhga – axborot, tahliliy va badiiy publitsistik guruhlarga ajratiladi. G'arb jurnalistikasida esa, asosan, materiallar yangilik va ocherk tarzida uzatiladi. Jurnalistika janrlariga qisman to'xtalamiz.

Maqola – jurnalistikaning publitsistik janri bo'lib, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinadi. Maqola gazeta va jurnallarning eng keng tarqalgan asosiy janri bo'lib, u hayotimizning dolzarb bir masalasiga bag'ishlangan publitsistikadir, deyishimiz mumkin.

Maqola uchun siyosiy umumlashma va xulosani ustalik bilan adabiy tarzda ifodalash juda muhim. Boshqacha qilib aytganda, maqola katta, qamrovi keng tadqiqoti, korrespondensiya janri unga nisbatan qamrovi kichikroqdir. Ammo ularning ikkalasi ham ko'pgina bir xillikka va sifatga ega.

Maqola – voqeligimizdagi muhim bir masalaga bag'ishlangan tadqiqot bo'lgani, ijtimoiy hayot faktlarini umumlashtirib hamda ilmiy, chuqur tahlil qilib yoritishi bilan boshqa publitsistik janrlardan farq qiladi.

Maqolada ham publitsistik janrlarning boshqa xillariga qo'yilgan talablar qo'yiladi. Jumladan, oddiy xalq tushunadigan adabiy tilda, ravon yozilishi kerak. Agar sayoz, zerikarli yozilsa, unda shevaga katta e'tibor berilsa, ko'tarilgan mavzu ijtimoiy ahamiyat kasb etmasa

maqolaning ahamiyati ham kam bo'ladi. Bunday maqola o'sha matbuot obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqolada, eng avvalo, umumiy g'oya ifoda etiladi, keyin uning ayrim qoidalari nazariy asoslanadi. Imkoniyat darajasida ular hayotiy faktlar va misollar bilan to'ldirilishi lozim. Fakt va misollar ishonarli, ahamiyatli va tekshirilgan bo'lishi talab qilinadi.

Maqolaning yozilish uslubi cheklanmagan – u ocherk uslubidami, suhbat uslubidami yoki lavha uslubidami bari bir u o'qishli, ko'pchilikka ma'qul bo'lishi kerak.

Maqolaning ahamiyati – bu gazeta bo'ladimi yoki jurnal – juda katta.

Maqolaning turlari ham bir nechta. Jumladan, bosh maqola, nazariy maqola, targ'ibot maqola, muammoli maqola, tajribani umumlashtiradigan maqola, tanqidiy maqola va boshqalar.

Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola)da ko'pincha davlat va hukumat hujjatlari, qarorlariga sharhlar hamda davrning dolzarb masalalari yoritiladi.

Bunday maqolalarda aniq manzil, kimlarga murojaat qilinayotgani, bajarilishi kerak bo'lgan aniq rejalar va ularning mas'ullari ko'rsatilishi lozim. Bosh maqolalarning uch xili bor. Umum siyosiy, targ'ibot va tezkor maqolalar. Umum siyosiy maqolalar aksariyat holda birinchi sahifada beriladi. Boshqa sahifada berilgan taqdirda ham u o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki bunday maqola tahririyat nomidan beriladi, Nazariy va targ'ibot maqolalaridan yuqori g'oyaviylik, ilmiy tahlil, ijodiy yondoshuv talab qilinadi. Bunday maqolaning kuchi ishontirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Muallif Nazira Abduazizova O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi maqolasida yozishicha, muammoli maqolalar ko'p hollarda manzara va bahslashuv xarakteriga ega bo'ladi. Unda bir necha xil fikr o'rtaga tashlanadi. Va muhokamalardan so'ng tahririyatning yakuniy xulosasi bildiriladi.

Nazariy va targ'ibot maqolalarining asosiy vazifasi mustaqillikni, milliy g'oya, istiqloq mafkurasining asoslari va prinsiplarini, ilmiy maqolaning vazifasi esa fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalash-tirishdan iborat.

Maqolaning turidan qat'iy nazar u oddiy tilda, keng ommaga tushunarli qilib yozilishi va dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lishi ham juda muhim. O'zbekistonda maqola janri tarixini Furqat, Ibrat, Hakimxon kabi jurnalistlarning «Turkiston vohoyatining gazetida

bosilgan maqolalari bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Keyinchalik jadid matbuotida faol qatnashgan Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy va boshqa jurnalistlar o'z maqolalari bilan bu janrning rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Maqola yozishdan oldin reja tuzib olish maqsadga muvofiq. Rejada maqsad va uning asosiy g'oyasini aniqlab olish kerak.

Korrespondensiya – (Lotincha so'z bo'lib, «javob beraman, bildiraman» degan ma'nolarni anglatadi) gazeta publitsistikasining asosiy va qadimgi tezkor janrlaridan biri. Jurnalist olimlarning ifodalashicha, uning vazifasi «chimdini hayotni» ko'rsatish, maqsadi esa bo'lgan voqeani yoki voqealarni tayhlil qilishdan iborat.

Korrespondensiya publitsistika janrlari orasida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Unda aniq ijtimoiy jarayon ifodalanadi. Axboriy maqoladan farqli o'laroq, u tahlil qilish xususiyatiga ham ega.

Muallif korrespondensiyada faktlarni shundaygina sanab o'tmasdan, voqea yoki hodisani to'la ifodalaydi, baholaydi, izohlaydi.

Agar maqola tadqiqot yakunini ifoda etsa, korrespondensiya tadqiqot jarayonini ko'rsatadi, tadqiqot uslubini ochib beradi.

Korrespondensiyada fakt markaziy o'rinni egallaydi, mazmunining asosini tashkil qiladi.

Korrespondensiya gazetxonlarda fikr uyg'otishga, hayotning mavjud muammolarini his qilishlari-yu anglashlariga yordam beradi. Korrespondensiyaning janr xususiyatlari ana shunday.

Bu janrda ijod qilayotgan muallif uchun ko'pgina imkoniyatlar mavjud. Jumladan, u korrespondensiyada jonli suhbatdan, adabiy usuldan, taqqoslash, kinoyadan foydalanishi, uni maqol, matal va ibratlar bilan boyitishi mumkin.

Maqola bilan korrespondensiya o'rtasida eng muhim farqni qisqagina tushuntiradigan bo'lsak, unda shunday deyish mumkin: muallif maqolada umumiydan xususiya, korrespondensiyada esa xususiya umumiyga qarab ketadi. Korrespondensiyani muallif voqea sodir bo'lgan joyda bormay, mavzuga oid masalalarni chuqur o'rganmay turib yozishi mumkin emas. Demak, korrespondensiya tezkorlikni, aniq mavzu va aniq manzil bo'lishini taqozo etadi.

Korrespondensiyada ko'p hollarda faqatgina voqea tasvirlanmay, balki uning mohiyati ham ochib beriladi. Shunday qilingandagina u o'z vazifasini o'tagan bo'ladi.

Talab doirasidagi korrespondensiya yozish uchun voqeaning o'zini bilish yetarli emas. Uni turlicha ta'riflash mumkin. Shu bois voqea chuqur tahlil etilib, muallif o'z xulosasining to'g'riligiga amin

bo'lgach, uni matbuotga berishi kerak. Har bir korrespondensiyada bitta eng muhim masala ko'rsatilishi lozim.

Har bir korrespondensiyaga ijtimoiy-siyosiy chiqish deb qaralishi kerak. Korrespondensiyaning adabiy shakli har xil bo'ladi. Ko'pincha yozilish jihatidan u ocherkka, hatto, satira elementlari bo'lgan jiddiy tusdagi izchil lavhaga o'xshab ketadi.

Korrespondensiyani ijodiy yoki tanqidiy tezkor deb bo'lishga hojat yo'q. Chunki tezkorlik hech qanday mustasnosiz har bir korrespondensiya uchun majburiy talab.

Korrespondensiyada ma'lum davr va o'rindagi aniq ijtimoiy jarayon qamrab olinishini inobatga olib, uni axborot hamda tahliliy korrespondensiyalarga bo'lish mumkin.

«Axborot korrespondensiyada, odatda, muallif shaxsan o'zi ko'rgan voqealarni yoritadi, xabarlarini dalillar asosida tahlil etadi, umumlash-tiradi, xulosalar chiqaradi. Tahliliy korrespondensiyada ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan dalillar demokratik nuqtayi nazardan tahlil etilib, amaliy xulosalar chiqariladi». Korrespondensiyani yozishdan oldin, albatta, reja tuzib olgan ma'qul. Uning tiliga e'tibor qaratish juda muhim. Unda maqol, matallardan foydalanish, lirik chekinishlar qilish, chiroyli yakun topish korrespondensiyani boyitadi va bu korrespondensiya o'quvchi yodida uzoq saqlanadi.

Hech qachon tanqidiy korrespondensiyada shaxs yoki jamoatga haqorat so'zlari ishlatish mumkin emas. Aksincha, mavjud xatolarni tez tuzatish, kamchiliklarni yo'qotish uchun nimalar qilish zarurligiga e'tiborni qaratish muhim. Korrespondensiyaning muvaffaqiyati uning ishonarli tarzda yozilishiga bog'liq bo'ladi.

Ochiq xat. O'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan publitsistik janrlardan yana biri ochiq xat bo'lib, keyingi paytlarda u oz bo'lsa-da, gazeta va jurnal sahifalarida ko'rina boshladi.

Publitsistikaning bu janrida gap birinchi shaxs nomidan olib boriladi va javob kutiladigan yakka shaxsга yoki bir guruh odamlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinadi. Bu janrning vazifasi ijtimoiy ahamiyatga molik mavjud kamchilik yoki xato bo'yicha keng o'quvchilar e'tiborini shu muammoga qaratish va uni tezlik bilan tuzatish bo'yicha tadbirlar belgilanishini ko'rsatishdan iborat.

Ochiq xat muallifi ko'tarilayotgan masalani yoritishda badiiy usuldan foydalanishi, hikoyasini jo'shqinlik bilan ifodalashi, o'z dunyoqarashini bildirishi mumkin. Ochiq xatda his-hayajon

samimiylilik bilan ifoda etiladi. Bu janrning tili esa ta'sirli, ehtirosli, namunali, munozarali bo'ladi.

Shu o'rinda «O'zbekiston matbuoti» jurnalida «Kasbimiz odobi» rukni ostida 2003-yil 1 va 2-sonida chop etilgan ochiq xatni ajoyib misol sifatida to'laligicha beramiz.

JURNALISTNING SHA'NI TA'MADAN USTUN

hamkasbimiz jurnalist Tojiddin Razzoqqa

ochiq xat

– Jurnalist ta'magirlikda ayblansa kim gunohkor?

– Tuhmatga uchrasa-chi?

– Hibsqa olinsa-chi?

Nima uchun bunday og'ir savollar tug'ilmoqda?

Tashvishlarimiz o'rinlimi?...

Og'ir va achchiq savollar jurnalist hamkasblarimizni mulohazaga, fikr almashinuviga undamoqda.

Tojiddin aka! 2002-yilning 23-oktabr kuni «Hurriyat» gazetasida bosilgan «Izlagan...» nomli maqolangizni o'qiganimdan buyon Sizni tashvishlantirgan o'sha mavzu haqida qayta-qayta o'ylayman. Hatto, ko'ngildan kechgan mulohazalarni qog'ozga tushirdim ham, lekin yana istihola, andishaga bordim. «Ke, qo'y, dunyoda shuncha muammo-yu masala talashib votgan bir paytda o'z hamkasblarimizning sha'niga og'ir botadigan, «uy»dagi gapni ko'chaga olib chiqish zarilmi?» degan o'yga bordim. Axir, ta'may-u nafs komiga «g'arq» bo'lib, emin-erkin yashashni kasb qilib olganlar ozmi?! Ularning hech biri boshqasini qulog'idan cho'zib, xalqning ko'z o'ngida sazoyi qilayotgan bo'lmasa! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi, degan gaplar bor...

Shunga o'xshash o'ylar bilan yozganimni javonga tashlab qo'ydim, illo maqolangizdagi quyidagi so'zlarni sira unutilmadim: «Zamonasozlik «to'rtinchi hokimiyat» namoyandalari faoliyatida ham kuzatilmogda – ba'zi uddaburon muxbirlar mas'ul insonlardan pora undirishga harakat qilmoqdalar va tuzoqqa tushmoqdalar».

Tojiddin aka! To'g'risi, tilingiz juda achchiq-da! Qadimda, hali Sizni tanimagan kezlirim o'larday qahri qattiq odam bo'lsa kerak deb o'ylardim. Keyin tanishdim-u, mutlaqo fikrimdan qaytdim, Surxondaryoning oftobida yetilgan qalampir sho'rvaga «uvitib» qo'ygan «shirindan-shakar luf»laringiz zamirida haqiqat, haq gap bo'lishini ko'rib, sirtimdagi noroziligimga botindagi rozilik qorishib ketadigan bo'ldi. Mazkur maqolangizda ham o'zingizga xos uslub saqlangan. (Uni sira unutilmaganimning boisi ham shundadir, hoynahoy?)

Xullas, maqolangizning boshlanishidayoq hamkasblarimizning sha'ni, izzat-obro'si, oriyati haqida qayg'urish, tashvishlanish borligi sezilib turibdi. Shunday ekan, hamon shu illat mavjud ekan, hatto u gazak ola boshlayotgan ekan, nima uchun kasalni ko'ra-bila turib damni ichimizga yutishimiz kerak?! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimasa... axir, biz qarg'a emasmiz-ku, Tojiddin aka! Kim va qaysi kasb egalari o'zlarini qarg'a o'rnida ko'rsalar o'zlariga havola, lekin biz – bu yorug' dunyoga ahli qalam bo'lib kelgan, ijod kishisi bo'lib tug'ilgan bandalar o'zimizni qarg'aga tenglashtirib o'tirmaylik. Boshqalarga sanchadigan tanqid tig'imizni o'zimizga ham suqib ko'raylik. Nima dedingiz, Tojiddin aka?!

«Hurriyat»da bosh muharrir edim. Xonamga bir onaxon kirib keldilar. Yoshlari oltmishdan oshgan, jikkakkina, engil-boshlar xiyla uringan. Qoramag'iz. Onaxonning kaftlariga, taram-taram yorilgan, og'ir mehnat asoratidan zarang tayoqchalarga o'xshab ketgan g'adir-budir barmoqlariga zimdan ko'z tashladim. Salomlashdik. Shikasta tovush. Bilinib turibdi – shikoyat ko'tarib kelgan.

– Qaerda ishlaysiz, ona? Kasbingiz?

– Dalachimiz, uka... Ketmonchiman ... Bormagan yerim qolmadi. Izlay-izlay topib keldim... Boshimga og'ir musibat tushdi, uka...

Xullas, onaxonning yolg'iz o'g'li ikkinchi guruh nogironi. Yog'-moy zavedida qorovul bo'lib ishlagan. Tunda, pichoq bilan qurollangan o'g'ri bilan olishib, o'zini himoya qilish chog'ida g'isht parchasi bilan urib, bexosdan o'g'rini o'ldirib qo'yan. Hodisa soqchilik postining o'zida yuz bergan. Sud o'g'ilni 14 yilga ozodlikdan mahrum etgan.

– Kelinim bir etak yosh bolasi bilan chirqirab qoldi, o'g'limning Avg'ondan nogiron bo'lib qaytganini ham inobatga olishmadi...

Bunday holatlarda ko'z oldingizda olam zimistonga aylanib ketadi, qani, epini topsangiz-u, hoziroq onaxonga, uni ko'zlari to'rt bo'lib umid bilan kutib o'tirgan to'rt nevarasi, kelini, 14 yil hisobidan kun va soat sanay boshlagan nogiron o'g'liga yordam qo'lini cho'zsangiz!

– Yig'lamang, onajon. Sabr qip turing. Arizangizni, sud hujjatlarini qoldiring. Biz yuristga topshiramiz, u hujjatlarni obdan o'rgansin, qonunga binoan qo'limizdan kelgan yordamni ayamaymiz.

Oraxon berayotgan va'damga ishonib-ishonqiramay, nigohlari goh charaqlab, goh nursizlanib qayta-qayta duo qildilar.

Xayrlashdik. Chekka viloyatdagi oddiydan-oddiy bir qishloq ayolining boshiga tushgan musibat yuki endi sizga ko'chadi, og'ir va iztirobli o'ylar iskanjasidan qutulolmay, qo'l ishga bormay o'tirasiz.

Voqeaning yanayam ayanchli davomi keyin yuz berdi. Onaxon xayr-lashib chiqib ketgach, biror soatlar o'tdimi-yo'qmi, xonadan chiqsam, onaxon yo'lakdagi kursida jovdirab o'tiribdilar.

- Ha, ona, yana kimni kutyapsiz? - so'radim hayron bo'lib, - bo-ravering, biz o'rganamiz, dedim-ku.

- Gazetti yuristi bilan yuzlashay degandim, uning ham yumushi boshidan oshib yotgan chiqar. So'ng... - Onaxon chaynaldilar. Tushunol-madim.

Shunda xodimlarimizdan biri jonimga ora kirdi.

- Onaxon redaksiya xodimlarini bir tushlik qildiray, rahbaringizga aytarga botinmayapman, - deb kutib o'tiribdilar...

Bu gapdan shikoyatni eshitgan chog'imdagi iztiroblar hólva bo'lib goldi, boshimdan bir chelak qaynoq suv ag'darilganday bo'ldi. Achchiq ustida onaxonga nordonroq gap ham aytib yubordim.

Tojiddin aka, bu qanaqasi axir?! Buni qanday tushunish kerak?!

Qanday talqin qilish mumkin?! Yoshi bir joyga borib qolgan ketmon-chi kampir to'rt yetimcha nevarasining rizqidan qirqib... GAZETA TAHRIRIYATIGA tahririyat a'zolarini tushlik qildirish niyatida bir hovuch pul ko'tarib kelibdi! Eng dahshatlisi, bunday tasavvur qaydan paydo bo'lgan kampirda?!

Savolning eng dahshatli joyi ham shunda, ya'ni oddiy kishilarda gazeta tahririyatini, jurnalistni manfaatdor qilish fikri qayerdan paydo bo'ldi?!

Inson fe'lidagi hech bir illat to'satdan yuz bermaydi. Bizni tashvish-lantirayotgan bu kasofat vujudga kelishi uchun, avvalo, muhit paydo bo'ladi, kurtak otadi, g'unchalaydi va qarabsizki, «manfaatparastlik» degan yozuv qanot qoqib boshingiz uzra emin-erkin uchib yurganini, u sizning aql-hushingizga changal solayotganini sezmay qolasiz. Unga uzil-kesil barham berish kerakligini, uning gazak olishiga yo'l qo'yish koni ofat ekanligini juda yaxshi tushunamiz-u, indamaymiz. Ko'rib - ko'rmaganlikka, bilib - bilmaganlikka olamiz. Oqibatda...

O'g'li o'lasi qilib kaltaklangan, besh operatsiyadan so'nggina joni omon qolgach, otasi - mo'ysafid odam jinoyatchilar astoydil qidirilmayotganidan arz qilib, bir tugun pul ko'tarib kelibdi. «Ha, bu nimaga?» deb so'rasangiz, «Ridaksiyani o'zi og'ir ahvolda, yordam bo'lar...» degan javobni eshitasiz...

Tajribali jurnalist tuhmatga uchrab, qamaldi. Amnistiya sharofati bilan muddatidan ancha ilgari ozodlikka chiqdi. Boshidan kechirgan alam-iztiroblarini qog'ozga tushirib, o'zi ishlagan gazetaga olib keldi.

Maqolani bosish uchun abgor bo'lgan sobiq hamkasbdan falon so'm so'rashibdi!..

Allaqaysi qishloqda ikki guruh o'rtasida nizo avjiga chiqadi. Har ikkala guruh elchilari ikki gazetga «desant» tashlaydi. Qarabsizki, bir gazetada u guruh, ikkinchi gazetada bu guruhning changi qoqiladi. Gazetxon qaysi maqolaga ishonishini bilmay garang. Qishloqda endi qirpichoq boshlanadi, jurnalist esa... yana desant kutadi...

Savol ustiga savol yog'iladi: bu balo qayerdan yopishibdi bizning sohaga? Matbuotchisi ta'ma ilinjida bironing qo'liga qarab qolgan om-maviy axborot vositasining ahvoli nima kechadi?!

Ko'ndalang qo'yilayotgan bu kabi savollar kimlargadir og'ir botishi muqarrar. Meni mubolag'aga zo'r berganlikda ayblab, butun o'zbek matbuoti yoki barcha jurnalist zoti shu ahvolga tushib qolmagandir, deb ta'na qilishlari ham mumkin. Men ayni shu ta'nani qabul qilaman, zero, bir qalamkash-matbuotchi sifatida ta'magirlik u qadar ildiz otib ketmaganiga, oramizda jurnalistikaning halol noniga qanoat qilib yurganlar ko'pchilikni tashkil etishiga shukrona keltiraman. Biroq yuqorida bayon etilgani kabi voqea-hodisalar dam u yerdan – dam bu yerdan quloqqa chalinaversa, ayrim hamkasblarimiz ta'magirliги uchun jazo muddatida «o'tirgan» bo'lsa, kim tashvishlanmog'i kerak? Kim bosh qotirmog'i darkor?!

Nufuzli xorijiy tashkilot vakillari Toshkentga kelib, OAVni demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga tashrif buyurishdi, ozodlikdan mahrum etilgan va jazo muddatini o'tayotgan jurnalistlar haq-huquqi hech qanday muhofaza ostiga olinmagan, ular haqlarida hech kim, hatto qayg'urmayapti ham, degan mazmunda o'z noroziliklarini izhor etishdi.

Biz jamg'arma bu borada jim o'tirmayotgani haqida so'zlab berdik, ularning ro'yxatidan «mukammalroq» ro'yxatimiz borligini aytdik.

Birinchi da'vo chippakka chiqqach, ular navbatdaxisiga o'tishdi. Ya'ni, ro'yxatdagi jurnalistlar izidan matbuotdagi tanqidiy chiqishlari uchun ta'qib uyushtirib, so'ng ular poraxo'rlikda ayblanib, qamalgan emish. Biz bu da'voni ham rad etdik, ya'ni jurnalistlarning ta'qib etilgani haqida bizda hech qanday hujjat yo'q, ammo-lekin ularning ta'magirlik, poraxo'rlik ustida qo'lga olingani rasmiylashtirilgan.

Bunday ma'lumotlarning hozirgina men keltirgan misollarga qanday daxli bor, dersiz? Nega daxli bo'lmas ekan?! Ularning ham, bularning ham zamirida bir narsa – «jurnalist poraxo'r», degan tavqi la'nat yotibdi-ku! Matbuot ahliga nisbatan xunuk munosabat shakllanyapti-ku!

Yana takrorlayman: bu mavzuda gap qo'zg'ash nihoyatda og'ir, hatto eng qaltis kasb egalari ham o'z kasbdoshlari ustidan zinhor bunday hukm chiqarmaydilar. Men ham hukm chiqarayotganim yo'q, balki jamiyatning eng jonkuyar, fidoyi kasb sohiblarining sha'niga gard, g'ubor qo'ndirmaslik istagi qo'lga qalam olishga undamoqda. Jurnalistning ta'masi ot bilan tuya bo'larmidi, deyishadi. Muxbirning manfaatdorligi pora hisoblanmaydi, deyishadi. Jurnalist mehnatining og'irligidan, uning moliyaviy nochorligigacha vaj qilib ko'rsatishadi. Haqiqatda, tahririyat xodimining «ko'nglini olish»ning ming bitta uslubi bor. Ba'zan shunday bo'ladiki, jurnalist u yoki bu «uslub»ning qurboniga aylanadi, oddiygina tushlik ko'rinishidagi manfaatdorlik geometrik o'lchamlari kattalashadi. Ixtiyorsiz manfaatdorlik ta'mali, tazyiq aralash poraxo'rlikka qadar ko'tariladi.

Buning eng og'ir oqibati – jurnalistlik kasbining, ommaviy axborot vositasining qadr-qimmatiga putur etadi!

Tojiddin aka! Sizga ho'-o', ikki oy burun bitib qo'ygan hasratlarimni qayta ko'zdan kechirib o'tirib, «Hurriyat»ning 1998-yil noyabr sonlaridan birida e'lon qilingan «Jurnalistga kim pora beradi va nima uchun?» sarlavhali maqolada (T.Akbarov va A.Yo'ldoshev hammualiflikda yozgan) ham porani tutqazish «san'ati» o'xshatib tasvirlanganligiga ko'zim tushdi. Ya'ni, «Sovg'a olishning esa ming yo'li bor. Bugun uyingizga bir qop kartoshka tashlab ketishadi, ertaga bir banka asal... Qarabsizki, taptayyor poraxorsiz-da. Vijdoningizni aldamoq uchunmi, maosh, qalam haqi kamligidan noliysiz, «ular olganlarining mingdan biri ham emas-ku, bu» deya qarab tasalli izlaysiz.»

Tasalli bera turib, o'zingizni o'zingiz aldayotganingizni ham unutmaysiz, unutilmaysiz. Chunki u yolg'on tasalli ekanligiga aqlingiz yetib turibdi-da!..

Maqola mualliflari «Jurnalistga kim pora beradi? Va nima uchun?» degan savolga ham javob izlashga urunishgan.

«Axir, porani kim ham berardi – aybi bor odamda! Maqsad – o'sha ayb matbuotda oshkor etilmasligi... o'z-o'zidan ayonki, jurnalist odamga hech qachon qo'l uchida arang kun ko'rayotgan kishi sovg'a-salom ko'tarib kelolmaydi. Va eng noinsof muxbir ham bunday kishilarga ta'ma bilan qarolmaydi. Demak, jurnalistning tomog'ini moylaydigan qatlam doirasi ancha-muncha torayib, unda amaldorlar va turli katta-kichik darajadagi rahbarlar qoladi, xolos.»

Qani, do'ppini olib qo'yib bosh qotiraylig-a. Shular to'g'rimi, to'g'ri bo'lsa, ahvol shunday davom etaveradimi? Dam u yerda, dam bu

yerda qalamkash hamkasbimiz tumshug'idan ilinib ketaverishini kuzatib o'tiraveramizmi? Muxbiri ta'maga qarab qolgan matbuot demokratiya qura oladimi?!

Vaj-korson deydigan bo'lsak, mashhur Makiavellining gapi yodga tushadi. U juda donolik bilan hukmronlarga xalqqa to'xtovsiz va'dalar beraveringlar, chunki har qanday nuqsan-u bitmagan ishning ming bitta bahonasi topilaveradi, xalq esa unga ishonib o'taveradi degan. Demak, chora topmoq kerak. Chorani esa chetdan kelib birov yaratib bermaydi, buning yo'llarini izlash Sizning, bizning, hamma hamkasblarimizning burchi, vazifasi. Mamlakatimizda sohamizning, sohamiz kishilarining nufuzini oshirish borasida juda ko'p ishlar qilinmoqda. Jurnalistlik kasbini muhofaza etishga qaratilgan qator-qator qonunlar qabul qilinmoqda. Bu gaplarni Sizga takrorlashning hojati yo'q, To'iiddin aka. Aslida, hamonki, sohamiz jamiyatning eng ko'zga ko'rinarli tarmoqlaridan biri ekan, uni boshqarishning, tartibga keltirishning, kam-ko'stlarini silliqlab turishning mexanizmi ham yaratilmog'i darkor. Dunyo tajribasida buni «O'z-o'zini tartibga keltirish», deb atashadi. Ya'ni, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari sohasidagi katta va qaynoq hayot muammolarini bartaraf etishning sinalgan chorasi – jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi markaz, kengash yoki shunga o'xshash biror uyushma tashkil etilmog'i samara beradi, deb o'ylayman. Mazkur tashkilot (hozircha shunday deb turaylik) sohamizda yuz beradigan huquqiy-axloqiy muammolar, nizolar, munozaralar yuzasidan adolafii va xolis xulosani jamoatchilikka yetkazib turadi. Turli holatlarda va vaziyatlarda yo'ldan adashgan hamkasblarimizning taqdirini biryozlik qilishni to'g'ridan-to'g'ri sudga yoki prokurorga topshirib yuboravermay... bunday noxushliklarning oldini olish bilan shug'ullanadi. Jurnalistni muhofaza qiladi.

Jurnalist o'zini o'zi muhofaza qilishi yo'llarini ko'rsatadi. Haqiqatda, maqolangizda yozganingizdek, «jurnalist degani qo'shma korxonada son-sanoqsiz ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan matoh emas». To'g'ri o'xshatgansiz, qayerga, qaysi tahririyatga bosh suqsangiz malakali jurnalist bormi, topiladimi deb so'rashadi. Malakali jurnalistning o'zi anqoning urug'i-yu, tinimsiz bolalayotgan gazeta-jurnallarga bosh muharrir qayerdan topilayotganiga aql bovar qilmaydi!

Bugungi kun kechagidan, bu yil o'tgan yildan keskin farqlanib bormoqda.

Hayot bir joyda to'xtab qolayotgani yo'q. Jamiyat erkinlashish yo'liga o'tganini aytmaysizmi?! Faqat jurnalistning «erkinlashish» deb atalmish qanotining ikkinchisi – «mas'uliyati» borligini ham unutishga hech kimning haqqi yo'q.

Tojiddin aka! Kimlardir tanobimizni tortib qo'yishini kutgandan ko'ra ahvolni u darajaga olib bormaslik haqida hamma-hammamiz o'ylashimiz, tashvishlanishimiz ming karra afzalroq, shunday emasmi?

«Jurnalistga kim pora beradi? Va nima uchun?» maqolasida shunday jumlar keladi: «Yaqinda pora tufayli qamalib ketgan bir tanishimizning umr yo'ldoshi og'ir uf tortarkan: «Ahangiz ne bo'lsa bo'ldi, endi sizlar ehtiyot bo'linglar», deb qoldi».

Qanchalar og'ir bu gapni eshitish, Tojiddin aka! Hech bir jurnalist, hech bir jurnalistning oilasida bunday afsus-nadomatlar tilga olinmasin, ilohim.

Sizga, siz orqali barcha jurnalxonlarga xat yo'llashdan ko'zlagan birdan-bir niyatim ham shu!

Salom bilan Xurshid Do'stmuhammad

Najot qal'asi – ko'krak qafasi. Jurnal bosh muharriri Xurshid Do'stmuhammadning ochiq xatiga javob

1. Xurshid aka, qachonlardir menga shunday ochiq xat yozishingizni bilar edim – samimiyatingiz uchun tashakkur. Jurnal qo'limga tekkanda kayfiyatim juda baland, chunki «Qishloq hayoti»da Matnazar akaning «Bo'ladigan el...»ini o'qigan edim, o'ziyam bunday maqolani ko'p kutdim-da! Matnazar aka shu birgina chiqishi bilan yozuvchiman, shoirman, jurnalistman degan katta lashkarning bo'ynidagi aybni yuvib yubordi – endi bu olomon bemalol biz ham to'g'ri gapni halollik bilan yoza olamiz deyishi... mumkin.

Shu munosabat bilan adabiyot tarixiga daxldor bir tafsilotni aytmoq lozim bo'ladi. Ernest Xeminguey «Chol va dengiz»ni bir haftada yozib, o'qish uchun xotini Meri Uelshga beradi. Merining yotog'ida o'sha kecha chiroq o'chmaydi. Bilasizmi, ertalab u eriga nima deydi? – «Boshimga solgan barcha ko'rguliklaringni shu asaring uchun kechirdim».

Keyingi yillarda televizor ko'rib, gazeta o'qib hamma narsadan-da, ko'nglim qolib ketgan, hatto odamlar buncha yolg'onni qayoqdan topar ekan-a, deb qayg'uga bota boshlagan edim.

Yo'q, Rauf akaning iboralari bilan aytganda, (aytmoqchi, sarlavha ham ustozning bisotidan o'marilgan o'lja) haqiqat bor ekan, huddi

Shoh Mashrabday jahon ayvonida «Men bor!» deb Matnazar aka «Bo'ladigan el...» bilan paydo bo'ladilar. Qarang, men ilgari faqat adabiyotni alohida shaxslar yaratadi va buning uchun birovdan ijozat so'rab o'tirmaydi, deb yurar edim. Demak, bu fikr jurnalistikaga ham daxldor ekan: Matnazar akaning shu maqolasini o'qib, O'ljas Sulaymonning tashbehi bilan aytganda o'zimning va nafaqat o'zimning o'lib yurgan... yilqi ekanligimni bildim – odamga, hatto, alam qilar ekan.

2. *Qalamkash do'stim! Kechirasiz-u, xonadonda sira it asraganmisizlar?.. Bizning Kolya degan itimiz bor, meni yaxshi ko'radi, hatto gapimga quloq soladi. Men ham uni yaxshi ko'raman. It odam kindigi joyidan olingan tuproqdan yaralgan ekan. Bilasizmi, it o'zining burgasini o'zi o'ldiradi. Bu judayam ibratli manzara. Agar bu ish uning qo'lidan kelmasa, burga «bolalab», itning qonini so'raverib, tinkasini quritadi. Buning otini yashash uchun kurash, deydilar – itga hech kim burga o'ldirish san'atini o'rgatmagan, hatto u qisqa muddatli kursda tahsil ham olmagan. Bizni burga bosib ketdi. Ochlikdan emas, burgalarning zo'ridan muxbirlarning tinkasi qurimoqda. Burga – zamon ofatlaridir. Aksariyat gazetalarimizning tussizligini muharrir va muxbirlarning hafsalasizligi bilan izohlamoq kerak. Bunday kayfiyat tobora ommalashib bormoqda. Hamma ertani, o'z ertasini o'ylaydi: muharrir saltanatda muqim bo'lmog'i uchun xato qilmasligi kerak. Buning uchun hech ish qilmaslik kerak, chunki cho'zilib yotgan odamni yiqitib bo'lmaydi. Vaholanki, har qanday gazetani yonboshlab yotgan holda boshqarish mumkin. «Katta karvon»ning bunday faoliyat tarzi yoshlarga ko'rgazmali mashg'ulot vazifasini o'tamoqda va ajoyib samaralar bermoqda. Bo'lmasa, ommaviy axborot vositalarining tirikchiligiga milliard so'mlab mablag' sarflanmoqda. Ammo matbuot zimmasidagi vazifani bajarmayapti, misol keltirishning hojati yo'q: buning uchun Prezidentimiz e'tirozlarini, talablarini eslashning o'zi kifoya.*

3. *Matbuotning vazifasi – jamoatchilikning fikrini shakllantirish ekanligini hammamiz bilamiz. Ammo ba'zan jamoatchilik matbuotning fikrini shakllantirmayaptimikan, deb o'ylayman. Muxbir, hatto muharrir janoblari ba'zi buyurtmalarning ijrochisiga aylanib qolayotganidan mamlakatimizning chekka joylarida ko'p yillardan beri xizmat qilayotgan muxbir sifatida boshqalarga qaraganda men yaxshi xabardorman. Agar shu yurt meniki bo'lsa... ba'zi burgalarning oromini buzish u yoqda tursin, ularni, hatto «siz»lash kerak: muxbir esa muharrirning otgan*

o'qi! Vaholanki, yetakka o'rgangan ot poygaga yaramasligini hammamiz bilamiz.

Hamma singari muxbirning ham madadkori – Allohdir! Ana sizga – mezon! Muxbir Allohni o'ziga do'st tutmas ekan, u hech narsadir! Xi-yonatning muqarrar jazolaridan esa qochib, hatto qabrga borolmaymiz – omonlik yo'q. Muxbir janoblari bu haqiqatni har nafas olganda qalbi bilan his qilib turmog'i kerak. Ana shunday maqomga erishilganda odam boshqacha yoza boshlaydi-da. «Hazrati Anas (r.a.) hazrati Rasululloh (s.a.v.)dan: – Rasululloh, men duolarim qabul bo'lishini istayman, buning chorasi nimada? – deb so'radi.

Hazrati Rasululloh (s.a.v.):

– Ey, Anas, halol luqma yegin, haromga aslo yaqinlashma. Chunki harom luqma qorindan qirq kun chiqmaydi, – deb buyurganlar.

Yana ikki olam Sarvari: «Yolg'on bilan iymon bir orada bo'lmaydi», deganlar.

Siz yozuvchisiz, bu gaplarni sharhlashga mening holim yetmaydi – hamma gapni o'zingiz ko'rib, bilib, hech bo'lmaganda eshitib yuribsiz. Qarang-a, harom luqma qirq kunda iste'molchining qornidan chiqmas ekan – yo, falak – odam bolasi o'zigayam shunchalar zulm qiladimi! (harom luqma deganimda, faqat it yoki to'ng'izning go'shtini nazarda tutmayotganimni bilishingizni judayam istar edim).

4. Bosh muharrir, ta'ma – bizning tamal toshimizga aylandi, desam meni noshukurlikda ayblamang. O'zingiz aytganday, buni matbuot olamidan ancha uzoqda bo'lgan kampirlar ham biladi. To'g'ri, bunday munosabatda tahqir bor, lekin hammaga emas. Ko'plarimiz uchun dasturxon «asosiy gap»ning debochasi hisoblanadi – bu gaplarni boshidan kechirgan odam sifatida aytayapman. Ayniqsa, keyingi yillarda «bir piyola choy» hisobga o'tmaydigan bo'lib qoldi. «Tojiddin aka bizni sakkiz six kabob bilan aldab ketadi», degan malomatni o'zim ham eshitganman – shundan beri ro'zg'orimdan orttirgan to'rt-besh so'mni asosan Rauf aka bilan, ba'zan Shukur Xolmirzayev bilan baham ko'raman.

5. Bilasizmi, qachonlardir va qayerdadir «Agar olim ta'magir bo'lsa, gapida fayz bo'lmaydi», degan iborani o'qigan edim – hech esimdan chiqmaydi. Bu ta'rifning to'g'riligini bilmoqchi bo'lsangiz, qo'lingizga tushgan gazetani olingda, ko'zingiz tushgan joyini o'qiy boshlang: qani, yuragingiz «jiz» etsin-chi! Yo, televizorga qarang: «Paxta ko'chati chinbarg chiqardi!» – mana Sizga «Axborot»ning axboroti!

6. *Xurshid aka, muxbirlarni, qolaversa bosh muharrirlarni halollikka chaqirish borib turgan nodonlik ekanligini bilmaydigan darajada «nodon» emasligimni yaxshi bilasiz. Shundoq ekan, o'zingiz aytganday bu illat qanday va qayoqdan paydo bo'ldi? Shu o'rinda Matnazar akaga bo'lgan ehtirom sifatida bir tafsilot aytgim keladi: Mashhur sayyoh Ibn Batuta Xorazmga kelganda qozilarning pora olmasligidan... hayratga tushadi! Shuning uchun ham mo'g'il bosqinidan ilgari Xorazm shaharlari odam hayron qolar darajada obod bo'lgan. Fuqaro qozini sotib olishning iloji yo'qligini bilgan – qonunlar ishlagan. Chunki aybdorning jazolanmasligi begunoh odamning ko'ksiga xanjar sanchish bilan barobar turadi – biz esa qozi bo'lish, xalqqa ta'sir qilish vakolatini qo'lga kiritish uchun... pora beramiz va maqsadga yetguncha tinchimaymiz. Bir qozi yigirma sahifalik hal qiluv qarorida to'rt yuzdan ziyod imlo xatolarini qilipti – uztozingga balli, deydigan odam yo'q!*

Shu haqda «Hurriyat»ga yigirma qatorli maqola yozdim – hech narsa bo'lmaganday; qozilarning faoliyatini nazorat qiladigan katta-kichik idoralarning hammasi... jim! Demak... demak, demak, demak va yana ming marta – demak!

7. *Ijodkor do'st, Siz xafa bo'lmang-u, muharrirning hammasi ham muxbirlarni anoyi o'ylaydi – bu unchalik ham to'g'ri emas. Hozir respublika gazetalarining viloyatlarda muxbirlari emas, lashkarlari paydo bo'ldi – shu munosabat bilan Surxondaryo viloyat hokimligining matbuot kotibi telejurnalist Ramazon Ashurov aytadi: yaqinda bir tashkilot rahbari ishdan olindi.*

– Endi nima ish qilasiz. – deb so'rashibdi hangomatalab birodarlari.

– Muxbirlik qilaman, – der emish haligi inson. Yozishni bilmaysizku, deyishipti tanishlar. Muxbirlik qilish uchun maqola yozishni bilishning mutlaqo hojati yo'q, gazetaga pul tushirib tursam bo'ldi-aa, der emish haligi odam.

Xurshid aka, hamma balo shundaki, o'sha odam to'g'ri aytayapti – og'aynimiz bundan ko'p yillar ilgari ikki yarim ming so'm pul bilan qamalib ketgan edi. Ozodlikka chiqqan kuni respublika gazetalaridan biriga muxbir bo'lib oldi – oyiga bir million so'm pul tushirar ekan: yigirma foiz tashkilotchilik uchun mukofot puli olsa, oyiga 200 – 300 ming so'm sof, ona sutidan halol daromad bor. Meni kechirasiz-u, Shukur Xolmirzayev besh yuz betli roman yozsa ham shuncha qalam haqi ololmaydi.

8. Men bir paytlar har qanday jinoyat ijtimoiy.. buyurtmaga ko'ra sodir etiladi, deganga o'xshash maqola yozgan, ammo uni «o'tkazolmagan» edim. – Hozir ham bu fikrimdan qaytganim yo'q – imkoniyat bo'lgani uchun muxbir ta'magirlik qilmoqda va ko'p hollarda murodiga yetmoqda.

«Oyog'i yengil» muxbirlarning qo'li qo'lga tegmasligidan ham xabaringiz bor. Ana shu moddiy manfaat bugun jurnalistikamizning ma'naviy-ma'rifiy darajasini tashvishli ahvolga solib qo'ydi.

9. Bilasiz, mamlakatimizda «Xizmat ko'rsatgan jurnalist»lar xizmat ko'rsatmaganlaridan ko'payib ketdi – orden medal olganlarining-ku, sanog'ini yo'qotdim. Ammo qani ular? Qozoqlarda «Haydaganing besh echki – ishkiringing toshni yoradi!» degan maqol bor ekan – sadag'asi ketsang arziydi.

10. Nafaqat muxbirlar, balki boshqalarning faoliyati ham nazoratda turmog'i kerak. Bu nazorat – jamoatchilikning fikri! Kelajagidan umidvor bo'lgan barcha mamlakatlarda tinimsiz so'rovlar o'tkaziladi va uning natijalari bilan hech kim bahslashmaydi. Bu jarayon itning burgadan o'zini tozalashiga o'xshaydi...

11. Xurshid aka, ko'z oldingizda va qo'l ostingizda ishlayotgan yigitlar «Neksiya» sotib olishga pulni qayoqdan topayaptilar? – meni kechirasiz-u, siz berayotgan maosh ularning sigaretasiga ham yetmaydi.

Jamoatchilik nazariidan hech narsani yashirib bo'lmaydi va uning munosabati daxlsizdir. Bir birodarimiz bor edi – qarqochilikni san'at darajasiga ko'tardi: ana-mana deguncha uchta mashina oldi. Hozir «o'tiripti», yosh esa oltmishning ostida, aytganingizday bolalar sarson. Ag'dr jamoatchilik muxbirlar faoliyatini o'z nazoratiga olmas ekan, ko'chada hech kim qolmaydi – ta'magirlik shu darajada ommaviylashdiki, istagan muxbirni istagan paytda qo'lga olish va «to'r»ga o'tkazib yuborish mumkin. Tag'in Siz, Tojiddin aka farishta ekan-da, deb o'ylamang – yurtga kelgan to'ydan biz ham benasib qolmaganmiz, qolaversa «yalang'ochlar shahrida kiyim kiyib yurish jinnilikdir», degan arab maqolini ko'p yillardan beri baholi qudrat hurmat qilaman.

12. Ahvolning qanchalar nochorligiga qaramasdan, ommaviy axborot vositalarini xalqning ichiga olib kirish... mumkin. Buning uchun gazetalarda chakana savdoda naqd pulga sotilishi, televizor esa pulli bo'lishi kerak – o'zini hurmat qiladigan mamlakatlarda yo'sin shunday: keyin ham u xalqqa qanot bo'lmay ko'rsinchi! Ana o'shanda «G'o'za chin barg chiqardi», deb odamlarning miyasida yong'oq chaqadigan «Axborot»ning ahvolini ko'rard edingiz!

13. *Ma'rifat, ma'naviyat... moddiylashmas ekan, u hech... dir!*

14. *Odamsot taskinga suyanib yashaydi. Masalan, men Navoiyga zamondosh bo'lgim kelaveradi – hech bo'lmasa ustozning qo'llariga suv quyay edim, deyman. Ammo Hirotda Xarobot degan mahalla bo'lgan va u yerda fohishalar, qo'shmachilar, haromilar, banqalar... istiqomat qilishgan – ana, Sizga Navoiyning... zamondoshlari! Yo Mashrab zamonida hamma taqvodor bo'lib ketganmidi – bo'lmasa nega shunday ulug' xilqatni dorga osishdi!*

15. *Bir haqiqat menga quvvat bo'ladi – ko'krak qafasidan najot topganlarga zavol yo'q – tiriklik esa ezgulikning bir sarmoyasidir.*

Zamon ofatlaridan omonlik tilayman.

Tojiddin Razzoq.

Ochiq xat hukumat tomonidan xalqqa yozilishi ham mumkin. Yoki biron bir boshliq nomiga guruh nomidan ko'pincha tanqidiy maqolalar ochiq xat uslubida yoziladi.

Tajribani ommalashtirishning eng yaxshi shaklidan biri ochiq xat janri ekanini e'tirof etish kerak.

Xabar yozish maqola, korrespondensiya, lavha yoki felyeton yozishdan ko'ra osonroq va nisbatan tez yoziladigan, matbuotimiz keng qo'llaydigan janrdir. Unga korrespondensiyaga o'xshab faktlarni taqqoslash, tahlil, o'zaro munosabatlarni aniqlash kabi vazifalar yuklatilmagan.

Xabar bir necha ko'rinishlarga ega. Ularning keng tarqalganlaridan biri: axboriy xabardir. U keng jamoatchilikni qiziqtiradigan, hali u bilmaydigan hodisa va voqealar haqidagi xabar.

Axboriy xabar aksar holda nima bo'ldi, qachon va qayerda degan savolga javob beradi. Matbuotimizda ko'p o'rinni xabar aks-sadosi egallaydi. Uning xususiyati nomlanishining o'zidan ham ko'rinib turibdi. Mamlakat miqyosidagi voqea yoki tadbirlarga o'z munosabatini bildirgan kishilarning tahririyatga yuborgan xatlari aks-sado sifatida chop etiladi.

Xabarning tanqidiy, satirik, bahsli ko'rinishlari bor. Ular qaysi ko'rinish yoki shaklda bo'lmasin uni yozish ham oson, ham qiyin. Yozish qiyin bo'lmasligi uchun xabar janrining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganib olish kerak.

Tasavvur qiling, gazeta sahifasida quyidagicha xabar berildi.

«Ahmadjon Komilov boshliq brigada a'zolari soya-salqin shiyponlarida o'tirib, ekin maydonining har gektaridan qanchadan qovun,

tarvuz yetishtirishlarini rejalashtira olmay, bahsga berilib, kun kech bo'lganini ham sezmay qolishdi. Bunday bahs brigadada tez-tez bo'lib turadi». Bu xabar sizga nima berdi yoki beradi? Hech nima. Demak, xabar hech kimni qiziqitirmaydi va unda hech bir yangilik yo'q. Bunday xabarlardan qochish kerak.

Tuman gazetalaridan birida yozilgan xabarda shunday deyiladi:

«Avtotransport bir manzildan ikkinchi manzilga borish va yuklarni tashishda eng yaxshi vositadir».

Haqiqatan ham ajoyib yangilik-a!? Bu bamisoli Toshkent shahri O'zbekiston poytaxti yoki odamlar, hayvonlar, hatto qushlar suvsiz yashay olmaydilar, degan xalq biladigan «yangilikning» o'zi.

Bunday xabar yozgan muallif bilan bahslashish qiyin. Chunki u bor haqiqatni yozyapti-da.

Agar gazetada «Alla Pugachyova erga tegibdi», degan sarlavhali xabarni ko'rib qolsangiz uni o'qiy boshlaysiz. U sizni qiziqtiradi, kimga turmushga chiqibdi, kuyov kim ekan kabi savollarga javob axtarasiz.

Xabardan sizni qiziqtirgan savollarga javob topsangiz, demak, xabar ahamiyatli.

Xabar ko'pincha o'quvchilar yuborgan xatlardan iborat bo'lib, «Bizga yozadilar» kabi rukn ostida beriladi. Mustaqil sarlavha ostida ham berilishi mumkin.

Gazeta va jurnallar savollar berilgan xabarlardan ham keng foydalanaadi. Iltimosnoma, murojaatnoma shaklidagi xabarlar ham ko'p qo'llaniladi.

Va nihoyat eng ko'p xabar kamchiliklar, xatolar bo'yicha tahririyatga yuborilgan shikoyat xabarlardan iborat bo'lishi mumkin.

Xabar bilan korrespondensiya bir-biriga o'xshash deb bo'lmaydi. Chunki xabar korrespondensiyadan hajm jihatidan kichik, u tor mavzuni ko'tarib chiqadi, unda bittagina fakt ustida fikr yuritiladi, yoki bitta voqea yoritiladi. Xabar oxirida, albatta, muallif imzosi, mutaxassisligi yoki ish joyi va lavozimi ko'rsatiladi.

Axborot – matbuotning keng va qadimdan ishlatib kelinayotgan janri. Uning maqsadi kimningdir faoliyati, qaysidir voqea-hodisa haqida tushuntirish, bayon qilish, tanishtirishdan iborat.

Axborot ikki – xalqaro axborot va mahalliy axborotga bo'linadi. Bu janrga publitsistikaning lavha, suhbat, hisobot, xronika kabi xillari kiradi.

Hozirgi zamon voqea va hodisalarga boy. Jurnalistning mahorati shundaki, u bularning siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan eng

qiziqarlilarini topib, matbuotda yoritishi, radio va televideniya bera olishi kerak.

Axborot so'zi aksari holda qulog'imizga yangilik deyilayotgandek eshitaladi. Shundayligi to'g'ri, chunki axborot chindan ham yangilikni yetkazadi. Uning ta'sirchanligini esa uning tezkorligini oshiradi. O'z vaqtida yetkazilgan axborotning ahamiyati juda katta, buni har birimiz yaxshi bilamiz. Axir, axborotning asosiy vazifasi – kundalik voqeani o'z vaqtida, rost qilib yozishdan iborat-ku. Hayot qanchalik sermazmun va rang-barang ekan axborot materiallari majmui ham shunchalik keng va rang-barang bo'lishi kerak. Axborot mazmuni, uning mavzusini hayotning o'zidan axtarish kerak.

Axborotga qanday mas'uliyat yuklangan? Eng avvalo, hozirjavoblik va tezkorlik. Hozirjavoblik deganda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan eng qiziqarli voqea va hodisalarni topish va ularni tezkorlik bilan yoritish tushuniladi. Unda «bugun» yoki «kecha» degan so'z berilsa axborotning qimmatini yanada ortadi. Demak, axborot yozuvchi jurnalistga bugun bo'lgan voqea va hodisani bugunoq bera olishdek katta mas'uliyat yuklanadi. Bunga «Toshkent oqshomi» – «Вечерный Ташкент» gazetalarini jurnalistlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ko'pincha bu gazetalarining birinchi sahifasida «Bugun» deb boshlanadigan axborotlarni uchratamiz.

Bu axborotda ham boshqa janrlardagidek tezkorlik va aniqlik kabi o'ta muhim talablar mavjud bo'lishi zarur.

Axborot bo'lgan voqea va hodisalarni xabar qilish bilan cheklanmasligi, balki uning mohiyatini ochib berishi ham kerak.

Axborot hammabop va tushunarli bo'lishi lozim. Ular mazmuniga qarab bir necha xilga bo'linadi. Ulardan keng tarqalganlari – xronika, qisqa va kengaytirilgan axborot, lavha, suhbat, hisobot, reportaj va boshqalardir.

Xronika – bir necha satrdan iborat axborot bo'lib, unda sarlavha ham bo'lmaydi. Sodir bo'lgan voqea yoki hodisa tafsilotsiz aytiladi.

Ko'p hollarda xronika xillari «Daladan daraklar» «Qisqa satrlarda» kabi maxsus ruknlarda beriladi. Qisqa axborotlar, bu ham axborot turi, 10–30 satrdan iborat bo'lib, gazetalarda ko'p ishlatiladi. U o'z sarlavhasiga ega bo'lib, bitta voqea ifoda etilgan ikki-uch faktdan iborat bo'ladi. Ba'zilarida xronikadan farqli o'laroq, voqea tafsiloti ham beriladi.

Kengaytirilgan axborot esa 40–100 satrdan iborat bo'ladi.

Axborot mavzusi va mazmuniga qarab suhbat shaklida berilishi

ham mumkin. Suhbat turida axborotning boshqa turlaridan farq qiluvchi narsa shundan iboratki, bunda voqea haqidagi hikoya intervyu berayotgan kishi nomidan beriladi. Jurnalist suhbat chog'ida yozib olgan javoblarni adabiy jihatdan ishlab nashrga tayyorlaydi. Suhbatga oldindan tayyorlanish va uning rejasini tuzib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Suhbatlar matbuotda turli maqsadlarni ko'zlagan holda yoritiladi.

Jumladan, ishlab chiqarish yoki boshqa masalaga oid navbatdagi vazifalarga olimlar, o'quvchilar, san'at xodimlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, sport ustalarining ijodiy muvaffaqiyatlari, kutilayotgan yoki bo'lib o'tgan yirik voqealar gazetxonga, tinglovchiga yoki tomoshabiniga ma'lum bo'lgan biron bir voqea borasida kengroq tushuntirish berish, qaysidir masalada davlat, jamoat rahbarlarining fikrini bilish haqida suhbatlar uyushtiriladi.

Suhbatlar, hatto, tahririyat savollariga javob tariqasida tayyorlanishi ham mumkin.

Axborotning keng tarqalgan shakli hisobotdir. Hisobotda ko'pincha ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik yirik tadbirlar (Oliy Majlis sessiyalari, jamoat tashkilotlarining qurultoy va konferensiyalari, miting, yirik qurilish inshootlari, sport anjumanlari, sud jarayonlari) haqida yoziladi.

Jurnalist tahririyat topshirig'ini bajararkan, hisobotda nimalarni ko'rgani va eshitgani haqida xabar beradi.

Hisobotlar hajmi yoritilayotgan mavzuga qarab har xil bo'ladi.

Hisobotlar turi ham har xil. Umumiy (to'g'ridan to'g'ri) hisobotlar, mavzuviy hisobotlar, «munosabat: bilan» kabi hisobotlar mavjud.

Umuniy hisobotda jurnalist u yoki bu voqea haqida yozilgan faktlarni ketma-ket tartibda ishlatadi. (Masalan, qaysidir anjumanda birinchi bo'lib kimdir ma'ruza bilan chiqdi, u bu haqda gapirdi, muhokamada ikkinchi bo'lib kimdir chiqdi, yakunlovchi so'zida ma'ruzachi unday dedi, bunday dedi va yig'ilish qaror qabul qildi va boshqa.)

Bunday hisobotda muallif hech nimani sharhlamaydi. Agar hisobot ko'rgazmadan yozilayotgan bo'lsa, unda muallif har bir ko'rgazmaga qo'yilgan eksponat yonida bo'lib, u haqda yozadi.

Sessiya, qurultoy, majlis haqida yozilayotgan hisobotda muzokaralarga chiqqanlar haqida to'xtamay, hamma holda ham «ma'ruzadan keyin qizg'in muhokama bo'ldi», deb yakunlash hamma vaqt ham o'zini oqlaydi, deb bo'lmaydi.

Mavzuviy hisobotlarda faqat bitta muhim masala yoritiladi. Masalan, sessiya haqida yozilayotgan mavzuviy hisobot turli gazetalarda turlicha yozilishi mumkin. Har bir nashr o'z o'quvchilarini ko'proq qiziqtiradigan masalani sharhlaydi. Umumiy hamda mavzuviy hisobotlarda muallif ko'p hollarda umumlashtirish va xulosalar chiqarishdan foydalanmaydi. Bu hol hisobotning «munosabati bilan» shaklida qo'llaniladi. Bunda muallif o'z fikrini bildiradi, xulosalar chiqaradi. Ba'zida tadbirdan oldin yoki keyin yig'gan dalil va raqamlarni o'z fikriga isbot tariqasida yozib keltirishi mumkin.

Gazeta va jurnal sahifalarida ko'p uchraydigan *lavhalar* ham axborot janrining bir turidir.

Lavhada jurnalist bitta tashkilot yoki bo'lim, jamoa xo'jaligi yoki o'quv yurti va h.k. haqida qisqa, ammo jonli va ta'sirli qilib, o'z taasurotlarini hikoya qiladi. U faktlarni umumlashtiribgina qolmay (faktlar lavha uchun asos rolini o'ynaydi), balki kuzatganlarini to'la ochib berish maqsadida vaziyatni yoritadi. Tabiiyki, lavha uchun ob'yekt oldindan aniqlanadi.

Lavha – axborotning qiziqarli janrlaridan biri hisoblanadi.

Lavha yoki boshqa janrda material yozilmasin, jurnalistning kuzatuvchilik qobiliyati sezilishi kerak.

Lavhani ham, ba'zi boshqa janrlar singari, qisqa va lo'nda yozish talab qilinadi. Material hajmi lavha janri uchun xarakterli xususiyatga ega emas. Lavha gazeta janri sifatida reportaj bilan ocherkka yaqin turadi. Lavhada ham, xuddi reportaj yoki ocherkdagidek, to'qima emas, balki haqiqiy voqelik, to'qima odamlar emas, balki aniq kishilar haqida gap boradi. Lavhaning reportaj yoki ocherk bilan yaqinligini shugina ifodalaydi. Lavha voqea-hodisalarni yoritish, rivojini ko'rsatish jihatidan reportajga o'xshasa, o'zining adabiy, badiiy ifoda etish uslubi bilan ocherkka yondoshdir.

Ocherkda bo'lganidek, lavhada ham hodisa, voqealar markazida odam turadi. U asosiy ijrochi shaxs. Afsuski, ba'zi lavha mualliflari bu talabdan chetga chiqadilar. Bunday mualliflar o'z materiallarini raqamlar, foizlar bilan to'ldirib, odamlarning harakatlarini jonli suratda ifodalash, intilishlari, qayg'urishlarini hikoya qilish o'rniga, ism-shariflarini sanab o'tish bilan kifoyalanishadi.

Lavhada mavzuni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Ammo buning o'zi yetarli emas. Mavzuni ochib berish va uning eng muhim tomonini aniqlab olish, adabiy tomondan tahrir qilish kerak. Ba'zi mualliflar ko'rgan, eshitgan narsalari haqida batafsil yozishadi.

Natijada, lavha keraksiz, mavzuga taaluqli bo'lmagan faktlar bilan to'lib toshadi.

Lavhaning yana bir muhim vazifasi hayotni borligicha ko'rsatishdan iborat. Chunki hayotda insonlar yaxshi va yomon xislatlarga ega bo'lishadi.

Muallif o'sha odamdagi mavjud yutuq va kamchiliklarni ham, albatta, ko'rsatishi kerak. Lavha ana shunda gazetaxonlarning sevib qolgan jangovar janriga aylanadi.

Bugungi kun matbuotida tez-tez uchrab turadigan yana bir axborot janri – *reportaj*. Reportaj nima? Bu ta'rifni ikki xil tushunish mumkin. Yaqin-yaqinlargacha axborot bo'limi xodimlari, ya'ni reportyorlar yozgan turli ichki materiallarga aytilgan bo'lsa, bugun reportaj axborot janriing maxsus turiga aylangan.

Reportaj janri haqida professor F.P.Nesterenkoning fikrlariga qo'shilamiz. U reportajning bir necha unsurlardan tashkil topganini ko'rsatadi:

- hodisalarni ma'lum ketma-ketlikda yoritish, ya'ni hodisa rivoji ma'lum vaqt va ma'lum makonda amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan tadrijiy bayon;

- sodir etilgan voqea, hodisa to'g'risida qism, tafsilot, qahramonlar gap-so'zi va harakatini bayon etish orqali obrazli tasavvur yaratish;

- imkon qadar hujjatlilik. Reportajda ocherk yoki felyetonda qo'llanadigan badiiy to'qima, konstruksiya va hakoza yo'l qo'yilmaydi;

- obrazli tahliliylik. Hodisa qanday sodir etilgani xususidagi savolga javob berayotib, publitsist tadqiqotchi sifatida ish ko'radi;

- bayon etishning emoʻsional uslub, bu matnga qo'shimcha ishonchlilik bag'ishlaydi;

- reportyorning shaxsiy faolligi, bu – auditoriyani guvoh sifatida hodisani ko'rishgagina emas, balki mustaqil ravishda tasavvurlar hosil qilishga ham undaydi.

Jurnalist o'zi ko'rib turgan voqeani o'z idroki bilan qabul qilib uni yozishi yoki so'zlashi reportaj janriing talabidir.

Reportaj voqelikning o'zidir.

Reportaj «reportaje» degan so'zdan olingan bo'lib, «yetkazmoq, ma'lumot bermoq», degan ma'noni bildiradi. Bu janr XIX asrning birinchi choragida paydo bo'lgan. Davr o'tishi bilan reportaj mukamallashdi va mustaqil janrga aylandi.

Reportaj turlari ko'p. Telereportaj, radioreportaj, gazeta reportaji. Bularda jonli muloqot bo'ladi. Ehtimol, shunday telereportaj haqida

gap ketsa uni tomoshabin bilan reallikni bog'ovchi vosita deb aytishadi. Reportyor haqida tadqiqotchi Erik Fixtelius o'zining «Jurnalistikaning 10 qoidasi» kitobida «Reportyorning qiziq voqeani topishi jurnalistikaning boshlanishidir. Yaxshi jurnalist o'z atrofida yuz berayotgan voqealarning barchasiga qiziqishi kerak. U topgan voqea muhim, qiziqarli, jamiyat uchun ibratli va foydali bo'lsin. Reportyor ko'pincha yuz berayotgan voqealarning shohidi, qatnashchisi bo'lgani holda yangiliklarni birinchi kashf etuvchi hamdir», deb yozadi.

Jahon OAV da axborot tarqatishning shu reportyorlik usuli yetakchi o'rinni egallaydi.

Inson hayotining jadallashuvi qabul qilinayotgan axborotning nafaqat qisqa, aniq bo'lishi, balki yana bevosita hayotdan olinishini talab qilmoqda.

Olima Feruza Muhammadjonovanning yozishicha, «Jonli teleefirning asosiy xususiyatlaridan biri badiha (improvizatsiya)dir...

Chunki televideniye o'zida improvizatsiya unsurlarini mujassam etishi lozim bo'lgan san'at hisoblanadi... Improvizatsiya kerak bo'lgan mahalda bevosita kamera oldida ovozda, harakatda va mimikalarda paydo bo'lgan ilhomdir. Reportyorning nutq tezligi standarti 1 daqiqada 110–120 so'zni tashkil etishi ma'qul».

Reportajda axborotning hamma turlari uyg'unlashadi. Jurnalist hodisa va voqealar haqida unga ma'qul kelgan barcha imkoniyatlarda, jumladan, axborotning hisobot, suhbat, lavha va boshqa xillaridan keng foydalanishi mumkin.

Reportajning xususiyati faktlarni sanashdan iborat bo'lmay, voqea-hodisa qanday sodir bo'lgan bo'lsa xuddi shu tartibda ko'rsatib berishdan iborat. Reportaj tahririyat xodimi ko'rgan va eshitgan narsalar hikoyasi emas, balki bu voqea-hodisalarni u qanday qabul qilgani va baholagani haqidagi jonli aniq materialdir.

Reportajda hikoya doim shu hodisani ko'rayotgan muallif tomonidan olib boriladi (ko'pincha muallif bo'layotgan voqeada o'zi ishtirok etadi).

Keyingi yillarda reportajni bir nechta xilga ajratishmoqda.

Bunga quyidagi ruknlar javob beradi: «Reportaj», «Lirik reportaj», «Tanqidiy reportaj».

Axborotning turlaridan yana biri – *ma'lumot* va *jadval*dir. Yana bibliografik axborotlar («Kitob javoningizga», «Yangi kitoblar» ruknlari ostida beriladi) ham tez-tez berib boriladi. Axborotga ob-havo ma'lumoti, teatr va kinolar, teleradio dasturlari haqidagi ma'lumotlar ham kiradi.

Matbuot sharhi (obzori) – maxsus janr bo‘lib, matbuotimizni tahlil qiladi. Uning vazifasi gazeta va jurnallarning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish, g‘oyaviy darajasini oshirish, kamchiliklarni tanqid qilishdan iborat.

Ko‘pincha markaziy gazetalar, viloyat yoki tuman matbuoti faoliyati matbuot sharhida yoritadi. Matbuot sharhi ahamiyati jihatidan bosh maqolaga teng. Matbuot sharhining badiiy shakli kuzatilgan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Mazmun jihatdan matbuot sharhining tematik (mavzuviy) sharhi, umumiy sharh, axborot sharhi kabi xillari mavjud.

Shu yerda olim Doniyor Obidovning «Sharhlovchilar haqmi?» sarlavhasi ostida «O‘zbekiston matbuoti» jurnalining 1996-yil 6-sonida chop etilgan maqolasini to‘laligicha keltirish foydadan xoli emas.

Sharhlovchilar haqmi?

1996-yil mart oyidan boshlab, O‘zbekiston televideniyesining kanali orqali respublika gazetalarining 10 daqiqi sharhi berila boshlandi.

Sharhlarning paydo bo‘lishi respublika hayotida juda muhim voqea, ayni muddao bo‘ldi. Chunki ilgari har bir oilada uch-to‘rtta gazeta o‘qilgan bo‘lsa, hozir bitta gazeta yo olinadi, yo olinmaydi. Qog‘oz narxining oshib ketishi gazetalarining adadi keskin qisqarishiga sabab bo‘ldi. Nima ham qilardik, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari shunday. Televideniye aholi uchun axborotning asosiy manbai bo‘lib qoldi. Ana shunday sharoitda respublika teleradiokompaniyasi tomonidan kundalik markaziy gazetalar sharhini berib borishdek ish boshlangani juda to‘g‘ri bo‘ldi. Sharhlar ertalab, odamlar gazetalar bilan tanishmay turib berilayotgani ham qulay. Sharhlar paydo bo‘lishi bilan gazetada bosilgan xabarlarini aholiga yetkazish muammosi qisman hal bo‘ldi.

Shu bilan birga sharhlarni muntazam kuzatuvchilar qisqa vaqt mobaynida ko‘rsatuvni olib borishda yuz bergan o‘zgarishga e‘tibor bergan bo‘lsalar ajab emas. Dastlabki sharhlar an‘anaviy tarzda, ya‘ni maqolalarga shaxsiy munosabat bildirish usulida berilardi.

Sharhlovchilar gazetalarining o‘sha kungi sonida o‘zlariga yoqqan mavzularni tilga olishardi. Boshqalariga nisbatan yaxshiroq chiqqan gazeta, dolzarb maqolalarni, ularning mualliflarini nomma-nom eslab, bu xususda o‘z mulohazalarini bildirar, bosilgan xabarlar yuzasidan shaxsiy fikrlari bilan o‘rtoqlashar edilar. Bu tinglovchilar uchun tabiiy hodisa bo‘lib, ular tomonidan respublika hayotining odatiy kundalik

kechishidek qabul qilinardi. Ammo to'satdan sharhlarning mazmuni o'zgara boshladi. Gazetalar, maqola va mualliflarga nisbatan baholovchi shaxsiy fikrlar keskin kamaydi. Sharhlar xabar tarzida berila boshlandi. Ya'ni bugun falon gazetada pismadon maqola, xabar e'lon qilingan, maqola shu-shu haqda, muallifi falonchi.

Bunday yangilik teletomoshabinlar ommasi uchun kutilmagan hol bo'ldi. Odamlar maqolalarning nomini emas, balki ular haqida sharhlovchi tomonidan aytiladigan tayyor bahoni qabul qilishga odatlangan bo'lib, undan shuni kutardilar. Ayrim teletomoshabinlar qo'llarini yuvib, qo'ltiqqa urdilar: «Shu ham sharh bo'ldimi?», «Bu oddiy xabar, xolos-ku!», «Sharh ham shunaqa bo'lar ekanmi?» kabi gaplar eshitila boshlandi.

Sharhlovchilar to'g'ri yo'ldan ketishyaptimi, yo'qmi? Bu savolga xalqaro jurnalistika sohasidagi mutaxassis, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Fotima Xonboboyeva javob beradi:

– Gazetalarning kundalik televizor sharhi mazmunida yuz bergan yangilanish juda to'g'ri va maqsadga muvofiqdir. Bunday jurnalistika axborot jurnalistikasi deb atalib, oxirgi o'ttiz yil davomida jahonning rivojlangan mamlakatlarida unga amal qilib kelinadi.

Sobiq sovet mafkurasi axborot jurnalistikasini tan olmay, jurnalistlarimizga xilma-xil voqea-hodisalarni, faktlarni, turli mamlakatlar, tashkilotlar va tabaqalar rahbarlarining xatti-harakatlarini tushuntiruvchi, tayyor baholovchi mulohazalarni «yuqoridan» tushirib, ularni ma'naviy tutqunlikda ushlab keldi. Nima haqda yozish va qanday yozish, nima yaxshi, nima yomon ekanligi oldindan belgilab berilardi. Bunday yondashuvda ijtimoiy ong rivojlanmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, baholovchi jurnalistika axborot jurnalistikasidan ustun qo'yilsa, tinglovchilar fikrlash, tahlil qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Ular xohishlaridan qat'iy nazar kimningdir mulohazalari, tayyor baholarini singdirishga xizmat qiladi. Oqibatda, ommaning tahlil qilish saviyasi pasayadi. Bu – baholovchi jurnalistikaning birinchi kamchiligi.

Ikkinchi kamchilik yana ham chuqurroq bo'lib, jiddiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bu voqea-hodisaga nisbatan jurnalistning noto'g'ri baholaridir. Tayyor baholarga o'rganib qolgan omma ularni tez o'zlashtiradi. Noto'g'ri baholar esa kishilarning kundalik aniq harakatlari, dunyoqarashlari, ishlari, munosabatlariga katta zarar etkazishi mumkin.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, rivojlangan mamlakatlarning jurnalistlari allaqachon jurnalistik faoliyatning reportyorlik, ya'ni axborot tarzidagi usuliga o'tishgan. Avvalambor ular diqqatni voqea-hodisa, fakt, intervyuning o'ziga jalb qiladilar.

Ammo bu sharhlarda shaxsiy baho umuman bo'lmaydi, degan gap emas. Sof axborot jurnalistikasining o'zi yo'q. Ko'pchilik xabarlar mazmunida u yoki bu tarzda shaxsiy baho yotadi. Lekin bugungi O'zbekiston jurnalistikasida keng yoyilgani kabi shaxsiy baho voqea-hodisani o'z soyasi ortida qoldirmasligi kerak.

Demokratiya va bozor munosabatlari yo'lida birinchi navbatda aniq, voqelikni bo'yamaydigan, haqiqatni to'liq ko'rsatadigan jurnalistika kerak. Teletomoshabinlarga jamiyatimiz hayotidagi axborot jurnalistikasidek yangilikni tushunib, unga o'rganishga to'g'ri keladi.

Xabarlarini to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish, tomoshabin ulardan shaxsiy xulosalar chiqarib olishiga yo'l ochish, yuz berayotgan jarayonlar xususida fikr bildirishga undash, faol fikrlash imkoniyatini yaratish axborot jurnalistikasi oldida turgan muhim vazifadir.

Matbuot sharhining tezkor shakli matbuotning «So'ngi pochtdan» rukni ostida beriladigan qisqacha sharhidir (ba'zida bu *luqma* rukni ostida beriladi). Matbuot sharhi ko'pgina talablarga javob berishi kerak. Eng avvalo, u sharhlanayotgan gazeta-jurnalni yoki televideniye ko'rsatuvi, radio eshittirishini chuqur o'rgangan holda tayyorlanishi lozim.

Shu o'rinda «O'zbekiston matbuoti» jurnalining 1998-yil 3-sonida «Matbuot sharhi» rukni ostida bosilgan maqola ibratga loyiq bo'lgani bois, uni to'laligicha yoritishni lozim topdik.

Matbuot sharhi. Millat va umuminsoniy ma'naviyat («Muloqot» va «Tafakkur» jurnallarini o'qib)

Mustaqil O'zbekiston xalqi o'zi tanlab olgan yo'l ochiq, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan, umumjahon sivilizatsiyasiga, milliy an'analarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida bosqichma-bosqich olg'a bormoqda. Zero mustaqillik tufayli mamlakatimiz hayotida, uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy jabhalarida chuqur o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Sarchashmalarni o'rganish, tadqiq etish va bu haqda matbuot sahifalari orqali ochiq-ravshan so'zlash imkoni yaratildi.

Shu o'rinda istiqlol tufayli chinakamiga dunyo yuzini ko'rgan ikki nashr – «Muloqot» va «Tafakkur» jurnallari sahifalarida ma'naviyatga doir chop etilgan materiallar haqida fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashmoqchimiz.

«Muloqot» – O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-badiiy va milliy jurnali bo'lib, u 1991-yil yanvar oyidan buyon nasr etib kelinmoqda.

1991–1995-yillar davomida chop etilgan «Muloqot» sahifalaridan o'rin olgan madaniy va tarixiy merosimizga, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizga, milliy istiqlol mafkurasining yaratilishiga, umumbashariy qadriyatlarga doir qator materiallar, xorijdagi yurtdoshlarimiz bilan suhbatlar, dolzarb iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan mutaxassislar mulohazalari va boshqa maqolalar keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgani esimizda.

Ma'lumki, 1993-yili tabarruk vatandoshlarimiz, musulmon Sharqidagi eng buyuk mutasavvuf donishmandlar – Xoja Ahmad Yassaviyning 900-yillik va Xoja Bahovuddin Naqshband hazratlarining 675 yillik mavludi shariflari nishonlandi. «Muloqot» jurnali tahririyati ijodkorlari mamlakatimiz ziyolilari bilan hamkorlikda nafaqat ul zotlarning hayoti va faoliyati haqida, shuningdek, boshqa fozil-u fuzalolar to'g'risida ko'plab maqolalarni chop etdi.

Mustaqil mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy istiqlol mafkurasini, uning barcha tomonlari, qirralari va jihatlari bilan uzviy bir tarzda shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Zero xalqimizning ma'naviyatini ko'taradigan, g'ayrat-shijoati, iste'dodi, iqtidori, salohiyati, sa'y-harakatini yuksak maqsadlar sari yo'naltiradigan chinakam milliy ruhdagi mafkura yaratish zaruriyatini davr ko'rsatmoqda.

«Muloqot» jurnali O'zbekiston xalqi mustaqillik ostonasida turgan paytdayoq milliy istiqlol mafkurasiga masalasiga keng o'rin bergan edi. O'shanda jurnal tahririyati milliy mafkura masalasi, uning paydo bo'lishi, shakllanish va taraqqiyot jarayonlari haqida keng miqyosli maqola yozib berishni taniqli olim, O'zbekiston Fanlari akademiyasi muxbir a'zosi Haydar Po'latovdan iltimos qilgan edi. Mazkur maqola jurnalning 1991-yil 6–7–sonlarida bosilib chiqdi. Shundan so'ng milliy mafkura, uning asoslari va istiqboli xususida tahririyatga turli mazmundagi maqola va takliflar kela boshladi. Jurnalning o'sha yilgi 12-sonida faylasuv olim Abduqodir Zohidovning «Milliy mafkura, dastlabki saboqlar», 1992-yilning 7–8–sonlarida Hasanoxun Musayevning «Mustaqillik inshosi» sarlavhali maqolalari bosildi.

Ularda milliy mafkurani yaratish asoslari ma'lum darajada aniqlab berildi. Jurnal'fan, madaniyat, siyosat va jamoat arboblariга murojaat etib, milliy istiqloq mafkurasini yaratish va shakllantirish masalasi xususida fikrlashib turdi. Ayni chog'da Orif Usmonning «Bahovuddin Naqshband» nomli maqolasi ham kishini befarq qoldirmadi. Maqolada keltirilishicha, bizning tabarruk yurtidoshimiz hazrati Bahovuddin Naqshband tomonidan asoslangan naqshbandiya ta'limoti O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida juda katta rol o'ynadi. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinox'rlikni, ijtimoiy zulm-istibdodni qat'iy qoralaydi. Bu ta'limot tarafdorlari asketizmga (tarkidunyochilikka), zulm va istibdodga qarshi bo'lib, faqat o'z qo'l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun o'tkazishga chaqirganlar, savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma'rifat, xattotlik, naqqoshlik, miniatyuranavislik, quruvchilik kabi barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug'ullanishga da'vat etganlar.

Shuning uchun ham o'z davrida ilm-ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyandalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli Firog'iy singari Sharq zaminida voyaga yetgan o'nlab mutafakkirlar naqshbandiya yo'lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, barakali ijod qilganlar. Shuningdek, maqolada naqshbandiya va yassaviya tariqatlarining o'zaro yaqin, keliб chiqishdagi ayrim umumiy jihatlari haqida ham so'z yuritilgan.

Botir Valixo'jayevning «Xoja Ahror: uydirma va haqiqat», Orif Usmonning «Shayx Yusuf Hamadoniy», «Hakim ota», «Zangi ota silsilasi», Mirahmad Mirxoldor o'g'lining «Ahmad Yassaviy: «Shajarai saodat», «Ulug' Yassaviy yo'llari», Omonbek Jalilovning «Ofoq xo'ja». Omonulla Bo'riyevning «Xoja Alouddin Attor», Toji Qoraev va Abul Bozorovlarning «Yassaviy izdoshlari» maqolalari ham o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, Mir Alisher Navoiy tug'ilgan kunning 550 yilligi munosabati bilan jurnal o'z sahifalarida taniqli olimlar, ayni chog'da ular qatori nomlari unutilayozgan yana qanchadan-qancha valiyisyrat ajdodlarimizning hurmatini joyiga qo'yishga muyassar bo'ldi. Darhaqiqat, «Muloqot» jurnali muborak siymolarimiz hayoti va faoliyatini yoritishda mamlakatimiz jurnallari orasida salmoqli o'rin tutib kelmoqda. Jurnalda «Buyuk mutasavvuflar» rukni ostida Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy,

Hakim ota (Sulaymon Boqirg'oniy), Zangi ota, Himmatiy, Xoja Ali Romitoni (Azizon), Xoja Boboi Samosiy, Sayid Amir Kulol, Xoja Bahovuddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Alovuddin Attor, Mavlono Ya'qub Charxiy, Xoja Ahror Vali, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Maxdumi A'zam kabi Turonzamindan chiqqan o'nlab valiy zotlar to'g'risida maqolalar chop etildi.

Shu jihatdan jurnalxonlar hukmiga havola qilingan taniqli sharqshunos olim Orif Usmonning «Vahdat sharobin ichdim (yassaviya tariqati)» maqolasi diqqatga sazovordir.

Muallif o'z fikrlarini bayon etishda Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns», Alisher Navoiyning «Nasoim ul-muhabbat», Voiz Koshifiyning «Rashahot ayn-ul hayot», Fuod Ko'pruluzodaning «Turk adabiyotinda ilk mutasavvuf», E.E.Bertelsning «Tasavvuf va tasavvufiy adabiyot», Nikelsonning «Islom va tasavvuf» kabi asarlariga asoslangan.

Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy turkiy – islom olamidagi to'qson to'qqiz ulug' mutasavvuf donishmandlar shayxi, jumlai Xuroson va Movarounnahrning valiyisidir. Binobarin, uning buyuk xayrli faoliyati kabi ijodi ham mana sakkiz asrdan buyon o'quvchilarni hayajonlantirib, ularni halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, shariatga sadoqat, inson va iymondorlik, xullas, barcha umuminsoniy oliy ma'naviyat ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Maqola Yassaviy she'riyatining ravonligi, xalqchilligi nimada, degan savoiqa ochiq-ravshan javob berib o'tilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Taniqli olimlar va jamoat arboblari Aziz Qayumov, Bektosh Rahimov, Komil Yusupov, Abdulhay Valiyev, Laziz Qayumov, Iso Jabborov va boshqalarning milliy istiqolol mafkurasi haqida fikr-mulohazalari e'lon qilindi.

Darhaqiqat, milliy istiqolol mafkurasi mohiyat e'tibori bilan ma'rifat chirog'i bilan yoritilmog'i, ilm, ziyo yog'dusi ila yo'g'rilmog'i kerak. Zotan, xalqning xalqligi uning ma'rifati va onglilik darajasi bilan belgilanadi. Ma'rifat – jasorat, kurash, ongli va aqlli munosabat, jur'at va qat'iyat asosi. Ma'rifatli xalq o'zligini anglaydi. O'zligini anglagan xalq istiqbolni ko'radi. ezgu maqsad, orzu havas, intilish bilan olg'a boraveradi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, eski, totalitar tuzumning falsafiy aqidalari og'ushidan qutulayotgan mamlakatimiz uchun yangi, milliy istiqololimizga xos falsafiy tafakkur, kishilarning hayotiy taqdiriga daxldor

amaliy muammolarni hal etishda falsafiy-nazariy uslubiyotning naqadar zarur, ustuvor darajada ahamiyatli ekanligi e'tirof etildi.

Prezidentimiz Islom Karimovning farmoniga muvofiq respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tashkil qilindi. Farmonda jamoatchilik markazining faoliyat doirasi, «Tafakkur» jurnalini chop etish zarurligi belgilab berildi.

Jurnalning tashkil etilishi yurtimiz oldida turgan barcha muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni aynan yuksak ma'naviyat, pok axloqiylik, ilg'or dunyoqarash, ilm-fan taraqqiyoti zaminidagina ado etish mumkinligiga mustaqillik sharoitida alohida e'tibor qaratilayotganligining yorqin dalilidir.

«Tafakkur» – ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli-bezakli jurnal bo'lib, uning nishona soni 1994-yili jonajon Vatanimiz mustaqilligining uch yilligiga bag'ishlab chop qilindi.

Agar jurnalning maqsadi va yo'nalishini ziyraklik bilan kuzatadigan bo'lsak, uning tadqiq qilish imkoniyati juda keng va cheksiz ekanligiga amin bo'lamiz. Zero, tafakkur tarixi umumbashariyat tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

«Tafakkur» jurnalining chop etilishi, eng avvalo, ma'naviyatimizda, adabiyotimizda mavjud bo'lgan biqlikni surib chiqarib, haqiqiy tafakkurning bepoyon manzillari sari, moziyga sergaklik bilan ilmiy nazar tashlashga undadi. Eng avvalo, Turonzamin falsafasi, uning ilmiy boyligini yoritishga e'tibor kuchaytirildi.

So'ngra jahon falsafasiga o'tildi. «Bashorat sadolari» rukni ostidi Fridrix Nitsshening «Zardusht tavallosi» (A'lo odam va oxirgi odam xususida) falsafiy qarashlarining e'lon qilinishi buning yorqin dalilidir.

Jurnal bashariyatni larzaga sola oladigan tafakkur qudrati ila mashhur sanalgan allomalar merosini targ'ib etar ekan, o'z o'quvchilarini bu bilan maftun eta oldi, desak mubolag'a bo'lmas. «Zardusht tavallosi»ning tarjimoni Ibrohim G'afurov muallif haqida shunday deb yozadi:

«Nitsshening hikmatlari inson va uning ertasi, olim va uning kelajagi haqidagi o'tli bashoratlar bilan limmo-lim. Chindan ham Nitsshe ijodi – boshdan-oxir bashoratdir...»

Tadqiqotchi olim Shuhrat Rizoning «Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikka» sarlavhali maqolasi dalillarga boy. Unda ma'rifatchilikning ilk davri to'g'risida batafsil so'z borgan. Maqolada bu yo'nalishning mazmuni davr namoyandalari faoliyati bilan uzviy holda o'rganiladi va shunday yakuniy xulosaga kelinadi: «Har qalay,

yangi ijtimoiy-tarixiy davrga endigina kirib borayotirmiz. Izlanish, tajriba, intilishlarimiz qay yo'sinda kechadi va qanday natijalarga olib keladi, buni kelgusi ko'rsatadi».

Jurnalning 1994–1995-yillardagi sonlarida umrboqiy ma'naviyat haqida muntazam so'z bordi hamda «Millat va ma'naviyat», «Huquqiy tafakkur», «Ulug'bek yili – ma'rifat yili», «Istiqlol dardi», «Ma'rifat bog'boni», «Boqiy sarchashmalar», «Ruhiyat saboqlari», «Moziyga qaytib», «So'zni suygan sultonlar», «Buyuklik timsollari» ruknlari yuzaga keldi. Yuqorida sanab o'tilgan ruknlar ostida o'quvchiga havola etilgan maqolalar, avvalo, kishini oliy ma'rifatga chorlagani, ikkinchidan, mustaqil O'zbekiston farzandlarini ma'naviy jihatdan tarbiyalab, tafakkurning yuksak maqomi zaminining qaror topishiga xizmat qilganini alohida ta'kidlamogchimiz.

Ma'naviy poklanish zamirida erkin tafakkurning qudrati ila qadam tashlash hayot haqiqati bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda jurnalda «Tirik so'z» rukni ostida Mahmudxo'ja Behbudiyning «Yoshlarga murojaat», «Ikki emas, to'rt til lozim» kabi maqolalari chop etildi.

Bu maqolalar «Oyna» jurnalining 1914-yil 21-son va 1913-yil 1-sonida e'lon qilingan. Ayni chog'da mumtoz adiblar Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda ijodidan namunalarning berilishi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

«Tafakkur» jurnali sahifalarida chinakamiga kashfiyot bo'lgan asarlar chop qilib kelinayotganini ta'kidlash o'rinni. Jumladan, unda «Ruhiyat saboqlari» rukni bilan adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning «Mardlik tariqati» sarlavhali maqolasi bosildi.

Muallifning ta'kidlashicha, umrini do'stlar xizmatiga bag'ishlab, mudom yaxshilik xayoli bilan yashovchi, tili va dili pok saxovatpesha, muruvvatpesha ajdodlarimiz qadimda javonmardlar deb atalgan. Bu sifatlar asl islomiy sifatlar bo'lib, Qur'oni karim va Hadisi sharifda ko'p bora maqtalgan. Javonmardlar axloqi bizning milliy axloqimizga aylanishi kerak. Chunki, futuvvatga xos ko'pdan-ko'p aqida, rasm-rusumlar to hanuz yashab kelmoqda. Kishilarimizning mehmondo'stligi, odamoxunligi, mardligi o'sha ajdodlar udumining mantiqiy davomidir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, atoqli hajjnavis Ne'mat Aminovning «Tafakkur» jurnali 1994-yil 1-sonida e'lon qilingan «Bir asr hikoyati» asari adabiyotimizda yangilik bo'ldi. U qadimiy «maqomat», «manaqiba»larni eslatadi. Darvoqe, bu janr inqilobdan keyin adabiyotimizda umuman unutilgan edi. «Maqomati Shohi Naqshband», «Manaqibi Sa'diya», «Maqomati Yusuf Hamadoniy», «Maqomati Shayx

Abdulqodir Jeloniy» va boshqa mumtoz asarlar ruhida bizning ota-bobolarimiz tarbiya topganini unutmasligimiz kerak. «Maqomat»larning G'arb adabiyotiga ham ulkan ta'siri bo'lgan.

Ma'lumki, sharq zaminida yaratilgan «Maqomat»larda tariqat pirlarining axloq-odobi, qarashlari, hikmatli so'zlari, tarjimai hollari, karomatlari, xalqqa qilgan xizmatlari qisqa-qisqa naqllarda, tarixiy shaxslar, shohid kishilar so'zidan bayon qilingan. Mazkur janrning qissa yo hikoyadan farqi shundaki, birinchidan, fikr g'oyat lo'nda, ixcham ifodalanib, qisqa naqllarda o'z aksini topgan.

Ikkinchidan, yasama, to'qima obrazlar, yasama voqealar ishlatilmaydi.

Uchinchidan, tasvir etilgan har bir voqea-hodisadan ibratli xulosalar chiqariladi.

To'rtinchidan, bosh qahramon garchi ideal inson sifatida tasvirlansada, lekin u o'zining xato-yu kamchiliklarini, bandalik bilan sodir etgan qusurlarini aslo yashirmaydi.

N.Aminovning bu asari maqomatnavislik an'anasida yozilgan ekan-da, degan fikrga kelmaslik kerak. Balki, muallif qadimiy adabiyotimizda bor bo'lgan janrni qayta jonlantirib, yangicha uslub, yangicha ohang, yangi tarovat, yangi fikr bilan boyitdi. «Bir asr hikoyati»dagi hikoyatlar ixcham, purma'no. Ular hikmatli so'z kabi bir o'qiganda xotirada muhr-lcnadi, ravon va ibratliligi bilan ajralib turaadi. Bosh qahramon Ota (Usta Amin Nurilloboy o'g'li) botinidagi halollik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, don-ishmandlik, soddadillik, mardlik qisqa naqllarda o'z tajassumini topgan.

Bir so'z bilan aytganda, «Muloqot» va «Tafakkur» jurnallari faoliya-tida istiqololga xos muhim ijodiy burilish ruhi yetakchilik qiladi, ya'ni ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarish tuyg'usi, umumbasha-riy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish negizida milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasini kuchaytirish ruhi ustuvordir.

Taqriz arabcha so'z bo'lib, ijobiy baho degan ma'noni anglatadi.

Adabiy tanqid janri bo'lgan taqrizda O'zbekiston milliy ensiklopedi-yasida yozilishicha «... asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmu-ni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi».

Publitsistik maqola taqrizi 20-asr boshlarida matbuot bilan teng rivojlana boshlagan.

Ozod Sharafiddinov O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi maqolasida: «Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G'afur G'ulom kabi yozuvchilar, O.Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo'shchonov, Ozod Sharafiddinov, U.Normatov, N.Xudoyberganov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o'zbek adabiyoti haqida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratdilar», – deb yozadi.

Taqriz. Bu jurnalistikaning mustaqil janri bo'lib, u ikkiga bo'linadi. Tanqidiy bibliografik maqola (adabiy taqriz) hamda san'at mavzusidagi maqola (teatr spektakliga, kinofilmga va boshqa san'at turlariga yozilgan taqriz). Taqriz o'ziga xos xususiyatga ega.

Unda ocherk, hisobot, kengaytirilgan axborot elementlari bo'ladi. Shu bois tajribali jurnalistlar taqrizni gazetaning umumlashtirilgan janri deb bejiz aytishmaydi.

Tanqidiy–bibliografik maqola (adabiy taqriz), asosan, kitoblar, risolalar, bir yoki bir necha maqolalarni tahlil qiladi. Taqrizchi muallif o'z asarida hayotning u yoki bu hodisalarini to'g'ri, qaysi g'oya nuqtayi nazaridan yoritgan, mavzu qanchalik ochib berilgan, voqelik aniq va to'g'ri ifoda etilganmi, asarning badiiy yoki publitsistik darajasi qanday kabi savollarga javob berishi lozim. Tanqidiy fikrlar muallifni xato va kamchiliklarni tuzatishiga ruhlantirishi kerak.

Xuddi shunday vazifa spektakllar, kinofilmlar, konsert tomoshalari va san'atga oid boshqa asarlarga yoziladigan taqrizga ham qo'yiladi. Bunda teatr jamoalari, bastakorlar, mo'yoqalam ustalari, haykal-taroshlar, aktyorlar, dramaturglar, tsenaristlar va boshqa san'at namzyandalari-ning ijodi tahlil etiladi.

Taqriz haqqoniy bo'lishi kerak. Uni qolipga solib bo'lmaydi.

Har qanday taqrizga qo'yiladigan talab bitta. U umumiy gaplar yig'indisiga aylanib qolmasligi kerak. Jumladan, qaysi bir spektaklga taqriz yozayotgan muallif pyesa mazmunini aytib berish, unda ishtirok etayotgan aktyorlar ismi-sharifi va qaysi rolni bajarayotganini sanash bilan cheklanmasligi, balki pyesa bugungi kun talabiga javob beradimi, dramaturgiyasi, rollarga aktyorlar to'g'ri topilganmi, teatr o'zining mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalanganmi, rejissyor xizmati va kamchiliklari qanday, badiiy bezagi pyesaning muvaffaqiyatida qanday rol o'ynadi va boshqa shu kabi savollarga javob berishi kerak.

Taqrizning eng chiroyli, ibratga loyiq bir namunasi sifatida O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim va adib Ozod Sharafiddinovning fantast yozuvchi Hojiakbar Shayxov ijodiga bag'ishlangan taqrizini to'laligicha ko'chiramiz.

Hojiakbarning sirli olami¹

Kitobxonlar ommasiga o'zining hikoyalari, qissalari, romanlari bilan ko'pdan beri tanilib qolgan Hojiakbar Shayxovni o'zbek ilmiy-fantastik adabiyotining qaldirg'ochlaridan biri deb atasa bo'ladi. Bu gapni o'qigan odam taajjub qilishi mumkin. Nahotki fantastika Hojiakbar Shayxovdan boshlansa? O'zbek adabiyotida undan avval fantastika bo'lmaganmi? Bunday taajjubga javoban aytishimiz mumkinki, albatta, fantastika Hojiakbar Shayxov dunyoga kelmasdan avval ham bor edi. «Fantastika»ni bir so'z bilan «xayolot» deb atash mumkin. «Xayolot» esa inson tafakkurining mangu hamrohi. Adabiyot, qolaversa, ijod fantastika bilan, xayolot bilan birga tug'iladi va u bilan qadam-baqadam, hamnafas taraqqiy etadi. Bundan necha o'n ming yillar avval yaratilgan, ibtidoiy ajdodlarimiz g'orlarning devorlariga qing'ir-qiyshiq qilib chizib ketgan rasmlarda ham fantastika bor. Xalq og'zaki ijodi-chi? O'ziuchar gilamlar, qanotli otlar, uch boshli ajdalar, bir ko'zli devlar va yana allanimalar... Bular ham fantastikaning ijod bilan uzviy birgalikda qadam tashlashini ko'rsatadi. Shunisi ham borki, bu hodisa faqat o'zbeklargagina xos emas.

Mashhur hind eposlari «Maxabxarata», «Ramayana», «Shukasaptati», «Kalila va Dimna», arab ertaklari «Ming bir kecha» asosan rivoyat va afsonalar hamda «xayolot» mevasi. Yozma adabiyotda ham shundoq – Firdavsiyning o'lmas «Shohnoma»sida fantastika qanchalik kuchli bo'lsa, Alisher Navoiy dostonlarida ham shunchalik keng o'rin egallaydi.

Ovrupo adabiyotidagi Gulliverlar, Myunxauzenlar, Faustlar va boshqa yana o'nlab-yuzlab obrazlar, buyuk Gogolning ijodi, rus folklori fantastikaning juda qadimiy va barqaror hodisa ekanini yaqqol isbot etib turibdi. Xullas, adabiyot fantastikasiz, xayolotsiz bir qadam ham olg'a siljiyolmaydi.

Xo'p, shundoq ekan, nega endi XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan bir yozuvchini o'zbek ilmiy fantastikasini boshlab bergan qaldirg'ochlardan biri deb atash kerak? Buning boisi shundaki, avvallari fantastika ijodning bir unsuri sifatida ko'ringan bo'lsa, endi u ijodning to'laqonli, mustaqil bir bo'lagi, o'z mavzu doirasiga, o'z tasvir vositalariga, o'z poetikasiga ega bo'lgan alohida janr sifatida shakllana boshladi. Bu jarayon, ayniqsa, XX asrda juda kuchayib ketdi.

¹ Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T., 2004, 566-572-betlar.

Negaki, bu asrga kelib, ilm-fanning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyos kengaydi. Fanning hamma sohalarida aql bovar qilmaydigan olamshumul kashfiyotlar yuzaga keldi. Ular jamiyat hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, odamlarning turmush tarzini o'zgartiribgina qolmay, tafakkurini ham yangi izga solib yubordi. Ilmiy kashfiyotlar mislsiz qulayliklar tug'dirishi bilan birga, tahlikali xavf-xatarlar ham olib keldi. Natijada, insoniyat yangi-yangi chigal muammolarga ro'para kelib, ularni hal qilolmay, boshi berk ko'chalarga kirib qola boshladi.

Bularning bari jamiyatda ilmga, uning kashfiyotlariga qiziqishni kuchaytirdi, odamlar faqat bugungi kunga emas, ertangi kunga ham, o'z taqdirilariga ham tez-tez nazar tashlay boshladilar. Bularning bari butun jahon miqyosida ilmiy fantastikaga mislsiz qiziqishni vujudga keltirdi. Shu tariqa, XX asr o'rtalariga kelganda, dunyoda fantastik adabiyot gurillab avj ola boshladi.

Shunisi kishini mamnun qiladiki, o'zbek adabiyoti ham bu jarayondan chetga qolgani yo'q. Biroz kechikib bo'lsa-da, ya'ni 60-yillarning oxiri va 70-yillardan boshlab, ilmiy fantastika janri o'zbek adabiyotida ham o'z qonuniyatlariga, o'z xususiyatlariga ega bo'lgan mustaqil janr sifatida shakllana boshladi. Boshqacha aytganda, xuddi shu kezlarda o'zbek adabiyotida ilmiy fantastika janrining bahori boshlangan edi. Shu bahorni yetaklab kelgan qaldirg'ochlardan biri Hojiakbar Shayxov bo'ldi. 1972-yilda «Yosh gvardiya» nashriyatida yosh yozuvchining «7-SER» degan kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobning nomi nechukdir badiiy asar nomiga o'xshamas, ko'proq mexanika yoxud fizikaga mansub kitobning nomiga o'xshab ketardi. Biroq uning o'ta «ilmiy» nomidan cho'chimay, qo'lga olib varaqlaganlar kitobdan hikoyalar o'rin olganini ko'rib hayron bo'lishdi. Uni o'qiganlar esa, bu o'zbek adabiyotida butunlay yangi hodisa ekaniga, ilm muammolari haqida badiiy shaklda mulohaza yurituvchi, ularni badiiy vositalar orqali gavalantirishga urinuvchi asarlar ekaniga ishonch hosil qilishdi.

Oradan ko'p o'tmay, muallifning «Ajib yulduzlar» degan yangi kitobi chop etildi. Bu kitob ham fantastik hikoyalar va ilmiy-badiiy ocherklardan tarkib topgan bo'lib, yosh adibning ilmiy fantastikaga qiziqishi o'tkinchi havas emas, balki butun umrga ketadigan astoydil mayl ekanidan guvohlik berardi. Qolaversa, kitobga kirgan asarlar Hojiakbar Shayxovning qalami asardan asarga o'tkirlashib borayotganini, yozuvchi o'z ustida astoydil ishlab, jahon fantastikasining ijodiy

tajribalarini o'zlashtirib borayotganini ko'rsatardi. Shundan keyin Hojiakbarning o'z kitobxonlari paydo bo'la boshladi. Ular adib asarlarini qidirib topib o'qish bilan birga uning shaxsiyatiga, qanday hayot yo'lini bosib o'tganiga, e'tiqodlariga, ijodiy niyatlariga ham qiziqqa boshlashdi. Shunda ma'lum bo'ldiki, Hojiakbar hali yosh bo'lsa-da, hayotda anchamuncha jiddiy sinovlarga ro'para kelgan, turli-tuman qiyinchiliklarni ko'rib pishgan, hayot qozonida ozmi-ko'pmi qaynab, tajriba orttirgan yigit ekan.

Hojiakbarning ota-bobolari asli toshkentlik, lekin taqdir ularni ona yurtidan olislarga ketishga majbur qildi. Ular bolsheviklarning «Quloqlarni sinf sifatida tugatish» siyosatidan qochib, Sharqiy Turkistonga ketishadi. Shu sababdan Hojiakbar 1945-yilda Xitoy Xalq Respublikasiga qarashli Shinjon o'lkasidagi Chuguchak shahrida tug'iladi. Hojiakbar o'n yoshga kirganidagina zamonlar o'zgarib, ularning vatanga qaytishiga yo'l ochiladi. Hojiakbar Toshkentda maktabni tugatadi va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Politehnika institutining energetika fakultetiga o'qishga kiradi.

1971-yilda uni muvaffaqiyat bilan bitirgach, har xil tashkilotlarda muhandis bo'lib ishlaydi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Elektronika institutida xizmat qiladi. Bu paytlarga kelib, Hojiakbar 5-6 ta kitob chiqarib, iste'dodli yozuvchi sifatida tanilib qolgan edi.

Shuning uchun u muhandislikni qo'yib, ijodga yaqin sohalarda ishlay boshlaydi. Chunonchi, u bir necha yil mobaynida «Yosh gvardiya» nashriyotida bo'lim mudiri bo'lib ishladi, keyin Yozuvchilar uyushmasi birinchi kotibining ijodiy ishlar bo'yicha muovini bo'ldi. Bu vaqt mobaynida Hojiakbar ikki marta yosh yozuvchilar kengashida ishtirok etdi. Bu faktni ta'kidlayotganimizning boisi bor. albatta, kengashga quruq qo'l bilan borilmaydi, har kim unga yangi asar olib borishi kerak. Bu asarlar juda talabchanlik bilan muhokama qilinadi va ko'pchilikka ma'qul bo'lsa yosh yozuvchi uchun katta istiqbol yo'li ochiladi. Hojiakbar uchun ham shunday bo'ldi – uning asarlari tez-tez markaziy matbuotda ko'rina boshladi, har xil nufuzli to'plamlarda, almanaxlarda, majmualarda bosila boshladi. Shunday qilib, Hojiakbar fantast yozuvchilar armiyasining oldingi saflaridan o'rin ola boshladi. Uning «Ajib yulduzlar», «Yettinchi operatsiya», «Rene jumbog'i», «G'aroyib ko'lanka», «Ajdodlar xotirasi», «Olmos jilosi», «Telba dunyo» degan asarlari fantastik adabiyot sohasida sezilarli hodisa bo'ldi. Uning ayrim hikoyalari, qissalari Rossiya, Fransiya, Chexoslovakiya, Bulg'oriya, Olmoniya, Ispaniya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda

turli to'plamlarda nashr etildi. Bu hammamizni quvontirmay qolmaydi albatta, chunki har bir yozuvchining asari Vatanimiz sarhadlaridan tashqarida shuhrat topar ekan, bu o'zbek xalqining dong'ini olamga yoyishga xizmat qiladi, ayni chog'da bu turli madaniyatlarning yaqinlashishiga, xalqlarning o'zaro hamkorligiga yo'l ochadi.

Xo'sh, Hojiakbar Shayxov asarlarining o'ziga xosligi nimada? U fantast yozuvchi sifatida nimalarga e'tibor beradi? Qanday muhim gaplarni ko'tarib chiqadi? Bu savolga qoniqarli javob berish uchun uning butun ijodini tahlil qilish kerak. Afsuski, biz muxtasar maqolada bu imkonga ega emasmiz. Shuning uchun bu haqda qisqacha to'xtalishimiz mumkin. Hojiakbar asarlarida hozirgi fantastik adabiyotning hamma zarur belgilari mavjud, ya'ni ulardagi voqealar Yerdagina emas, butun Koinotda, qo'shni Galaktikalarda sodir bo'ladi. Hojiakbarning qahramonlari turli-tuman robotlar, o'zga sayyoraliklar, odamlarga o'xshagan yoxud o'xshamagan maxluqotlar. Biroq voqealar silsilasi qanchalik g'ayritabiiy kechmasin, qahramonlari qanchalik g'aroyib bo'lmasin, ular oxir-oqibatda qay bir tomonlama bilan Yerdaagi odamlarning bugungi hayotiga, bugungi tashvishlariga bog'lanib ketadi.

Adib biri-biridan qiziq maroqli sarguzashtlar to'qib, kitobxon xayolini band qilishni emas, balki insonning mangu muammolarini o'rta qo'yib, inson vijdoniga murojaat qilib, uni g'aflat uyqusidan uyg'otish va barkamolroq qilishni o'ylaydi. Shuning uchun Hojiakbar asarlarining zamirida inson hayotining ma'nosi, e'tiqodi, halollik, poklik masalalari yotadi. Adib ilmiy-fantastik shakllarda ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va egrilik, bag'rikenglik va xudbinlik o'rtasidagi kurashni ko'rsatadi. Xuddi shu jihatlari bilan Hojiakbarning asarlari adabiyotga, san'at hodisasiga aylanadi va kitobxon-larning yuragini zabt etadi.

Xuddi shu ma'noda muallifning «Tutash olamlar» va «Ikki jahon ovorasi» romanlari e'tiborga sazovor. Bu asarlar bugungi adabiyotimiz uchun yangilik – 6–7 yil avval bunday asarlarning paydo bo'lishi mumkin emas, hatto ularni yozishni o'ylash ham dushvor edi. Ularning yangiligi shundaki, bu asarlar o'zbek nasridagi birinchi mistik-fantastik romanlardir. Ular eng munozarali va eng qiziqarli muammolardan biriga bag'ishlangan. Insonning tabiati, hayoti qanaqa – inson vafot etishi bilan uning hayoti tugaydimi yoxud u boshqa shakllarda, boshqa tarzda qayta tug'ilib, yashashda davom etadimi? Inson jismi bilan ruhiyati o'rtasida qanday munosabatlar bor?

Arvohtar, Iblis va uning malaylari, turli-tuman ajina-yu alvastilar bor narsami yo faqat xayolot mevasimi? Ehtimol, moddiyunchilik suyak-suyaklarigacha singib ketgan ba'zi birovlarga bunday savollar juda jo'n va hatto noo'rin ko'rinishi mumkin. Lekin jahon adabiyotida bunday muammolar ko'p asrlardan beri diqqatni jalb etib keladi. Hatto Dante va Hyotega o'xshash daho san'atkorlar ham bu masala atrofida umr bo'yi bosh qotirganlar. Sobiq sovet adabiyotida esa bu masalalar haqida yozish qat'iy tanqizlangan edi.

Mana, mustaqillik sharofati bilan bunday cheklashlar bekor bo'ldi va birinchi ilmiy-fantastik va mistik romanlar qo'limizga yetib keldi.

«Tutash olamlar» romanining bosh qahramonlari uch opa-singil Nazira, Nargiza, Nafisalaridir. Ular o'ta ajoyib qobiliyatga ega – kelajakka nazar tashlay oladilar, ularga ruhiyat dunyosining eng zo'r kuchlari homiylik qiladi. Romanda real odamlar bilan birga G'avsul A'zam, Hazrat Shayxon Tohur kabi aziz avliyolar, Iblis va uning xizmatkorlari, turli-tuman olijanob va pok odamlar bilan birga o'g'ri, muttaha odamlar, bugungi mafiya kuchlari ham bor. Asarni o'qish davomida «Hayot» deb atalmish ulug' ne'matning bitmas-tuganmas bir ummon ekanligiga, uning sir-u asrori hadsiz, jumboqlari mo'l ekaniga, tagiga yetib bo'lmasligiga va ayni shu xislati bilan hayot inson uchun g'oyat qadrli va aziz ekaniga amin bo'lasiz. Biz butun umrimizni bebaho deb atalmish moddiy dunyoda yashab o'tamiz, ammo bu dunyo bilan yonma-yon unga tutashib ketgan boshqa bir dunyo – boqiy dunyo, ruhiyat dunyosi yo'q ekaniga kim kafil bo'ladi?

Hojiakbar Shayxovning ushbu turkumga kirgan ikkinchi romani – «Ikki jahon ovorasi» ham hozirgi kunning dolzarb muammolari, umminsoniy ruhiy-ma'naviy masalalarga bag'ishlangan. Muallif ularda fantastika, mistika, ba'zan detektiv janrlarining shiddatli rivojlanuvchi syujetlari, usul va unsurlaridan mohirona foydalangan holda yana o'sha badiiy adabiyotning mangu muammolari – nur va zulmat kuchlari o'rtasidagi kurash, hayot va o'lim masalalarini badiiy tadqiq etar ekan, bu olamda hech narsa – yaxshilik ham, yomonlik ham izsiz yo'q bo'lib ketmaydi, insonning har qanday qilmishi (vahshiylik, qotillik, mahdudlik, ma'naviyatsizlikning jami ko'rinishlari va hokazo) hech qachon jazosiz qolmaydi, deya ta'kidlaydi. Gunohkor odamni qismat yozmishi uning o'limidan keyin ham vaqt va fazoning aql bovar qilmas o'lchamlarida ta'qib va tazyiq etaveradi.

Bugina emas, pirovardida bu qismat uning avlodlari – farzandlari, nevara-chevaralariga ham tinchlik bermay, ularni ham turli azob-uqubatlardan, g'am-g'ussa va ruhiy xastaliklarga giriftor qiladi. Bunday falsafiy dunyoqarashni yozuvchi irsiyat va biologiya fanining eng so'nggi yutuqlari, ko'hna Sharq ilohiyot ilmlari va diniy ta'limolarning eng ezgu aqidalariga tayangan holda mantiqan teran, hayotiy dalolatlar orqali ishonarli asoslab beradi.

Hozirgi davrda ko'z oldimizda fan mistik tus olib, mistika fanniy yo'nalishga kirayapti. Chunki fanning ham, dinning ham, jumladan, mistikaning ham oxir-oqibat maqsadi bir: ya'ni dunyoni va insonning o'z-o'zligini anglash. Ular bu olamshumul maqsad yo'lida birlashib, hamkorlikda xizmat qilishsa, bundan bani bashar faqat yutadi.

Foniy va boqiy dunyo, Koinot, Galaktika va Inson hayoti shu darajada tutashib-chirmashib ketganki, bu bizda osmon qadar g'ayrat tuyg'usi uyg'otadi, xolos. Hayotimizda kechadigan har bir yaxshi-yomon hodisa zamirida biz hali tagiga yetmagan qandaydir ilohiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonuniyatlarni bilish uchun biz ana shu tutash olamlar, tutash taqdirilar bilan bog'liq sir-sinoatlarni anglab yetmog'imiz kerak. Bunga esa, o'ylashimcha, odamlar o'zaro mehr-oqibat, ezgulik, yuksak ma'naviyat va ma'rifat orqaligina erishishlari mumkin.

Hojiakbar Shayxovning ushbu kitobiga kirgan romanlarida ana shu murakkab ijtimoiy-falsafiy masalalar xususida teran pardalarda fikr-mulohaza yuritiladiki, ular ohangrabeday o'quvchi qalbini rom etadi, ana shular haqida o'ylashga majbur qiladi. Haqiqatan ham, bu dunyo – sirli dunyo! Hojiakbar o'zbek adabiyoti ummonida kech paydo bo'lganiga qaramay, u darg'alik qilayotgan kema bu ummonda juda dadil suza boshlagan kezda, qolaversa, Hojiakbar Shayxov ijodining avji yoz pallasiga qadam qo'yganda adabiyotimiz katta yo'qotishga uchradi. U o'zining uchar kemalari bilan sirli olamni kashf eta turib, boqiy olamga qaytmas safarga ketdi va fantastik adabiyotimiz allaqanday g'ariblashib qolganini sezib turibmiz. Adibning chinakam qadri endi bilinmoqda.

2003.

Ocherk ruscha so'z bo'lib, u badiiy adabiyotning epik tur janrlari bo'lmish kichik qissa yoki hikoyaga yaqin bo'lgan janrdir. Ocherkda publitsistika elementlari mavjud. U «o'zining hozirjavobligi, ishonarliligi, haqiqiy hayotda ro'y bergan voqealarni ifodalashi, hujjatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ocherknavis aniq tarixiy sharoitda bo'lib o'tgan, o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan voqeani qalamga oladi, yaratajakk.

qahramoni bilan yuzma-yuz suhbatlashadi, uning hayoti va faoliyatini aniq ifodalaydi».

Ammo bu ifodalashda bo'rttirish, ocherk qahramoni hayotida bo'lmagan voqealarni to'qishga yo'l qo'yilmaydi.

Ocherkning tarbiyaviy ahamiyati katta. U yangi odamning axloqiy qiyofasini, xarakterini shakllantirishga yordam beradi.

Gazeta va jurnallarning boshqa janrlariga xos bo'lgan haqqoniylik, hozirjavoblik, tezkorlik kabi xususiyatlar ocherkka begona emas.

Uni badiiy publitsistik janrlar «qiroli» deb bejiz aytishmagan.

Chunki ocherk saviyasiga qarab matbuotning gazeta-jurnal, televideniye yoki radio tahririyatlarining adabiy saviyasini bilish mumkin.

Professor Feliks Petrovich Nesterenkoning: «Ocherk aniq fakt va hodisalarga tayangan holda ma'lum inson qiyofasi, dolzarb ijtimoiy muammo yoki aniq bir jarayonning tahlilini badiiy publitsistik tarzda amalga oshiradi. Unda bir vaqtning o'zida hujjatlilik, aniqlik, tezkorlik va adabiy-badiiy vositalar uyg'unlanishini kuzatish mumkin», degan fikriga to'la qo'shilamiz.

Ocherk hikoyadan yagona, tez hal qilinuvchi konfliktning yo'qligi va tavsifiy xarakterda bo'lishi bilan farqlanadi.

O'zbek ocherkining asoschilaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor ocherk haqida shunday yozadi: «...ocherk ham adabiyotda to'la huquqli janr... ocherkist yozuvchidir. Demak, gap janrda emas, asarning qanday yozilganida. Hikoya hikoyanavisdan qancha mehnat, qancha mohirlik, qancha madaniyat talab qilsa ocherk ham ocherkistdan shuncha mehnat, shuncha mahorat, shuncha madaniyat talab qiladi».

Ocherkning bir qancha turlari bor. Ammo ularni ikkita asosiy shaklga bo'lsa bo'ladi. Bittasi syujetli ocherk, ikkinchisi tavsifiy ocherkdir.

Syujetli ocherk turiga portretli va muammoli ocherklar kiradi. Portretli ocherkda xalq e'tiboriga tushgan shaxs haqida hikoya qilinadi.

Bular ishlab chiqarish ilg'ori, mashhur olim, san'atkor va boshqa xalq ardoqlagan insonlardir.

Ko'pchilik ularning hayoti va faoliyati bilan qiziqadi. Portretli ocherkning vazifasi asar qahramonining fazilatlarini, xizmatlarini, qanday yangiliklar yaratgani, ko'pchilikka ibrat bo'ladigan ishlarini ko'rsatib berishdan iborat. Muammoli ocherkda ba'zi fakt va hodisalar odamlarning muayyan vaziyatdagi portreti bilan bir qatorda ishlab chiqarish qahramonlari, fan va san'atning ilg'or namoyandalari obrazi umumlashtirilgan holda yoritiladi. Ko'pincha haqiqiy qahramonlar ismi sharifi o'zgartirilgan bo'ladi. Shaharlar, korxonalar va tashkilotlar nomi aniq ko'rsatilmaydi. O'quvchilarning e'tibori, asosan, dolzarb masalalar yechimiga qaratiladi.

Ishlab chiqarish jamoalari hamda qandaydir yangiliklar, ilg'or tajribalar haqida yozilgan ocherklar ham syujetli ocherk hisoblanadi.

Tavsifiy ocherkka qandaydir yangilikka, deydik ko'proq qurilishning boshlanishi yoki tugaganiga, yangi elektrostansiyaning ishga tushganiga bag'ishlangan ocherklar misol bo'la oladi.

Yaxshi ibratning kuchi katta. Shu bois yaxshi yozilgan syujetli ocherk kishilarni yangi mehnat zafarlariga chorlaydi, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Yo'l ocherki deb nomlanadigan ocherklarda muallif hayotimizdagi biron bir fakt va hodisani o'zining safari vaqtida kuzatishi natijasida yozadi. Yo'l ocherkida muallif nafaqat faktlarga murojaat qiladi, balki ularni tahlil qiladi, mohiyatini ochib beradi, o'z qarashlarini bildiradi va bunda publitsistik usuldan foydalanadi.

Yo'l ocherkining mohiyati uning g'oyasidir. Aniq fakt va hodisalarga tayangan holda ma'lum inson qiyofasini, aniq jarayonning tahlilini badiiy-publitsistik tarzda amalga oshirishi ocherk xususiyatini belgilovchi ko'rsatkichlardir. Tabiiyki, ocherkda hujjatlilik, aniqlik, tezkorlik kabi xususiyatlar mavjudligini esdan chiqarmaslik zarur.

Shuni unutmaslik kerakki, ocherk janrida faktlar tahlili va ularga muallif munosabatining ifodasi, albatta, mavjud bo'ladi. Ocherk bu portret asar desak to'g'ri bo'ladi. Uning tahliliy asarligi publitsistikaning ijtimoiy fikrga ta'sir etishini ta'minlaydi.

Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, shu narsaga amin bo'lamizki, ocherk janrining eng xarakterli namunasi «Boburnoma» asaridir.

Keyinchalik bu janrning rivoji, asosan, o'tgan asrning 20–30-yillarida rivoj topdi. Unda Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, A'zam Ayupov, Asqad Muxtor, Adham Rahmat va boshqalarning xizmatlarini e'tirof etmoq kerak. Hamid G'ulom ko'plab mamlakatlarda safarda bo'lib, yo'l ocherklari yozgan edi.

Abdulla Qahhorning «Sinchalak», Oybekning «Oltin vodiyan shabadalar» asarlari avvaliga ocherk tarzida yozilgan edi. Ocherkning ajoyib bir xususiyati shundan iboratki, u o'zida badiiylilik, voqelik va xolislikni mujassamlashtirgan badiiy-publitsistik janr sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'zbek jurnalistikasida ham ocherkning portret, muammoli, yo'l, sud ocherklari kabi turlari mavjud. Voqelikni aks ettirishda ocherkning hujjatli, etnografik ko'rinishlari borligini ham e'tirof etmoq kerak.

Ocherk – samarali hammabop janr bo'lgani sabab u voqea va hodisalarni jonli ifodalash orqali hayotni to'g'ri anglashga yordam beradi. Shu bois ocherk gazeta va jurnal sahifalarida, televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlarida o'ziga xos o'rinni egallashi kerak.

Ocherk taraqqiyotida yuqorida nomlari zikr qilingan adiblardan tashqari Yo‘ldosh Shamsharov, Habib No‘mon, Sunnatillo Anorboyev, Rasul Rahmon, Dadaxon Nuriy, Yoqubjon Xo‘jamberdiyevlarning xizmatlarini ham yuksak baholash kerak. Shu o‘rinda portretli ocherkning bir namunasi sifatida yozuvchi, olim Meli Normatovning «Tanti va halol-pokiza ijodkor» deb nomlangan portretli ocherkini to‘lalig‘icha berishni lozim topdik. Bu ocherk «O‘zbekiston matbuoti» jurnalining 1999-yil 3-sonida chop etilgan.

Tanti va halol-pokiza ijodkor

1956-yilning ayni saraton kunlari. Havo nihoyatda issiq, eru ko‘k yonadi. Ishxonamiz – O‘zbekiston Davlat nashriyoti Poligrafiya ko‘chasidagi yangi binoga ko‘chib o‘tganiga hali hech qancha vaqt bo‘lmagan.

Shu bois zarur shart-sharoit yo‘q. Yonginamizdagi mahalla choyxonasini hisobga olmaganda, tushlikka qayerga borishimizni bilmasdik. Bugun ham shu choyxonaga kirishga majbur bo‘ldik.

Choyxonachi juda shinavanda, dilkash va shirinso‘z, doim ko‘nglingizdagini topib gapiradigan inson bo‘lgani uchun, imkoniyat bo‘ldi deguncha, o‘sha yerga chiqardik. U bizni ko‘rish bilan darhol qoshimizga keldi:

– Marhabo, kelinglar, ukalar, kelinglar! Ko‘kidanmi, qorasidanmi?

– Pamilidan bo‘lsin, – dedik hazillashib. U zavqlanib kuldi.

– Bir og‘iz so‘zingiz. Ammo bugun rosa dog‘ yegan, – u choynak va piyolalarni qayta-qayta chayqab, choy damladi va patnida non-u parvarda bilan oldimizga qo‘ydi. – Qazi-qartasiga qarzdormiz. Choyni qaytarmasayam bo‘ladi, akasi, chap qo‘lim bilan damlaganman.

Bugun negadir odam kam, bizdan boshqa ikki-uch kishigina choyxo‘rlik qilardi. Nonni ushatib, endi choy quyishimiz bilan ichkariga qirq besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, qotma bir yigit tortinibgina kirdi. Mo‘g‘ul kelbatli mehmonning egnida kalaminga shimko‘ylak, sochi ustara bilan olingan, dumaloqqina boshida urinib qolgan chust do‘ppi, oyog‘ida oq tufli. U ta‘zim bəjo keltirib, ko‘rpacha to‘shalgan so‘ri chetiga o‘tirdi. Qo‘lidagi to‘r xaltasini yer-u ko‘kka ishonmaganday, qo‘ltig‘iga qisib olgan. Men choy quyib uzatdim:

– Marhamat!

– Rahmat, o‘zingiz iching.

– Kattadan-da...

– Tashakkur.

Mehmon hamon iymanardi. Negadir suhbatimizga emin-erkin qo'shilib ketolmasdi.

– Parvarda, nondan oling.

– Bemalol. Hozirgina ovqatlandim.

U bilan ortiqcha gaplasholmadik. Nimalar haqidadir so'zlab, ko'nglini yozgisi kelardi-yu, yuragi dov bermas, «Sutdan og'zi kuygan qatiqniyam puflab ichar» qabilida ish tutardi. Mehmon bilan xayrlashdik. Ikki qo'li ko'ksida, o'rnidan dast turib, bizni kuzatib qoldi...

Nazarimda, tashqaridan ko'ra ishxonamiz issiqroq va dim edi.

Nafas olib bo'lmasdi. To'xtasin Jalolov (u o'n sakkiz yil deganda Magadan surgunidan qaytib, yaqindagina nashriyotga ishga kelgan edi) bilan birga Sadridin Ayniyning «Doxunda» romanini nashrga tayyorlayotgan edik. (Kezi kelganda aytib qo'yay, asar chop etilishi bilan «Doxunda» nomli taqriz yozgan edim, u «Toshkent haqiqati» gazetasida e'lon qilindi). Kutilmaganda bo'limimiz kichik muharriri Roza Taziddinova: «Bosh muharrir chaqiryaptilar», deb qoldi.

Nasrullo Oxundiy ochiq chehra bilan qarshi oldi.

– Xo'sh, mulla Melivoy, ishlar qalay?

– Yomormas.

– Qizcha katta bo'lyaptimi?

– Rahmat.

– «Doxunda» yaqinlashib qoldimi?

– Uzog'i bilan bir haftalik ishi bor.

– Yashang! To'xtasin Jalolov sizdan minnatdor. «Safarda yuraverib, ko'p narsadan mahrum bo'lgan ekanman. Melivoydan bir yo'la alifboniyam o'rganyapman», deb xursand bo'lyapti.

Nasrullo aka bir muhim gapni aytmoqchi-yu, lekin ochiqchasiga o'tmay, negadir ayiantirardi. Rosti, xavotirlandim. Nima gap o'zi?

Yoki... Avzoyimni sezdi shekilli, maqsadga o'tdi.

– Sizga bir topshiriq bor.

– Topshiriq?

– Ha.

– Nima topshiriq ekan?

– Turob To'lcni bilasizmi?

– Nima desam ekan? Ha, siyosiy mavzuda yozgan ayrim she'rlarini o'qiganman. Masalan, «It huradi – karvon o'tadi». Ammo o'zini ko'rmaganman.

– Demak, tanimaysiz?

– Ha.

– Unday bo'lsa, bilib qo'yganingiz ma'qul. Turob To'la talantli shoir. Ko'pgina ziyolilar qatori ungayam noxushlik shamoli tegib o'tgan. Lekin hibsga olish uchun yetarli asos topisholmagan. Shu sababdan partiyadan o'chirib, ishdan chetlashtirish bilan cheklanilgan. Markazqo'mda mas'ul vazifada xizmat qilardi.

– Ishlagan bo'lsa ishlagandir..

Nasrullo akaga gapim yoqmadi.

– Akasi jonidan, bir nafas...

– Uzr.

– Qisqasi, u Markazqo'mning birinchi kotibi qabuliga kirganda, o'rtoq Niyozov qo'liga kattakon kitob tutqazib: «Ana shu asarni tarjima qilganingizdan keyin gaplashamiz», deya xayrixohlik bildiradi. Turob To'la tarjima ustida rosa ikki yil ishlab, Markazqo'mga murojaat qiladi. Kotib va'dasiga muvofiq suhbatlashadi va uning ishtirokida shaxsan o'zi direktorimiz Fayzulla Yunusovga topshiriq beradi. Endi tushunarlimi?

– Ha, tushunarli.

– Ana shu kitobni nashr etishimiz kerak. Tarjimon muharrirlikka yaqin do'stlaridan ikki kishini tavsiya qildi. Ular qo'rqishdi shekilli, turli baholar bilan zimmalariga olishmadi. Men muharrirlikka shaxsan sizni tavsiya etdim. – Nasrullo aka fikrimni bilmoqchi bo'lib menga qaradi.

– Sizni uyaltirib qo'ymasmikinman?

– Aslo! Har qachon ko'makka tayyorman.

U shunday dedi-yu, xonadan chiqdi va hayal o'tmay o'sha biz choyxonada hamsuhbat bo'lgan odamni ergashtirib keldi:

– Tanishlinglar, Turobjon, muharririmiz Meli Normatov.

Buni qarangki, yaqindagina xayr-xo'shlashganimiz o'sha kamtar-kamsuqum inson shoir Turob To'la bo'lib chiqdi. Endi u mutlaqo boshqacha.

Chehrasidagi horg'inlik va ma'yuslikdan asar ham qolmagan, ko'zlari chaqnab, yuzlari kulib turardi.

– Biz tanishmiz. Hatto choyxo'rlik ham qilganmiz...

– Tanimasni siylamas, qabilida ish tudik, – deb qo'ydim.

– Aslo! E'tiboringiz uchun tashakkur, uka!

Nasrullo Oxundiy kashtagulli piyolaga quyilgan choydan bir ho'pladi-da, sekin o'rindiqqa o'tirdi.

– Qani, Turobjon, qo'lyozmani oling-chi.

Turob To'la qo'lidagi o'sha to'r xaltdan qavat-qavat gazetalarga

o'ralgan ikki papkani avaylabgina olib, Nasrullo akaga uzatdi.

– Marhamat, mana, asl nusxasi.

Oxundiy zalvorli kitobni menga tutqazdi.

«Полконик Медведев». «Сильные духом». Keyin u qo'lyozmani ko'zdan kechira borib, ovoz chiqarib o'qiy boshladi: «Irodasi mustahkam kishilar», «Metin irodalilar» yoxud «Matonatli kishilar», jami ming ikki yuz varaq ekan. Mana, Melivoy, boyagi aytgan gapim gap. Qo'lyozmani asliga yaxshilab solishtirib, o'qing. Iloji boricha, tezlashtiring.

– Bo'пти, Turobjon, bu ukamizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin.

Turob To'la ta'zim qilib chiqib ketdi. Xonada Nasrullo aka bilan ikkimiz qoldik.

– Har tomonlama qiynalgan. Aybsiz aybdor bo'lib qolish odamni ezib yuboradi, Melivoy! Bir paytlar meniyam boshimdan ko'p noxushliklar o'tgan. Aytaversam... Mayli, o'tgan gapga salovat. Yigit kishining boshi omon bo'lsa, hammasi unut bo'lib ketadi. Yana aytaman, siz aslo cho'chimang. hali Turob To'laning ishlari yurishib ketadi. Ehtimol, birga ishlarmiz...

Men qo'lyozmani ko'tarib xonamga kirdim. Tarjimani asi usxasiga solishtirmay, o'qiy boshladim. Juda qiziqib qoldim. Kitob urush yillaridagi partizanlar harakatiga bag'ishlangan bo'lib, unda mashhur partizan otryadining komandiri Medvedev o'z yigitlari va shaxsan afsonaviy razvedkachi Nikolay Kuznetsovning aql bovar qilmas darajadagi ko'rsatgan jasoratlari xususida hayajonlanib hikoya qiladi.

Asar aniq hujjatlar asosida shunday mahorat bilan yozilganki, o'quvchini larzaga soladi. Tarjimon ham katta kuch sarflab, hafsala bilan ishlagan.

Ko'p sahifalari oq she'r darajasiga keltirilgan...

Kitobni bir kecha-kunduzda o'qib tushirdim. Qattiq ta'sirlandim.

Oradan ikki kun o'tgach, Yozuvchilar uyushmasidan, aniqrog'i «Sharq yulduzi» tahririyatidan Vahob Ro'zimatov qo'ng'iroq qilib, meni mazkur tarjima muhokamasiga taklif etdi. Unda Turob To'la, Ro'zimatov, Ivashkev, kamina va yana ikki kishi qatnashdik...

Nashriyotga kelishim bilan katta muharrirlardan biri meni ataylab tashqariga taklif etib, qulog'imga shipshitdi:

– Uka, do'stligimiz uchun aytaman: juda qaltis vazifani zimmangizga olibsiz, ehtiyot bo'ling. Boshqalar unamaganidan keyin sizga yuklashibaida...

Nasrullo aka ogoh qilib qo'ysayam, baribir cho'chib, xavotirga tushib qoldim. Bu yog'i nima bilan tugar ekan? Nahotki, bosh

muharririmiz meni ko'ra-bila turib, jarga itarsa?!' Unday bo'lishi mumkin emas. Har kim o'z qilmishiga o'zi javob beradi, men esa endigina qo'linga qalam olib, ish boshlagan oddiy xodim bo'lsam, buning nimasidan qo'rqaman. Xullas, o'zimga o'zim dalda berib, tavakkal qilib, ish boshladim...

Turob To'la bilan yulduzimiz yulduzimizga to'g'ri kelib qoldi. U juda samimiy va dilkash inson edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay nashriyotga ishga qabul qilindi va biz bilan bir xonaga joylashtirildi. Hamkorlikda ishladik. Qo'lyozmani tezroq bosmaxonaga tushirish maqsadida ikkimizga ham uyda ishlashga ruxsat berildi. Biznikida sharoit yo'q edi. Shu bois Turob To'la xonadonida ishlay boshladik.

Tamara yangamiz yelib-yugirib xizmat qildi. Keyin bilsam, ataylab o'z hisobidan ta'til olgan ekan. U juda pokiza, epchil va pazanda ayol edi.

O'zi aslida arman gizi esa-da, bizning urf-odatlarimizni yaxshi bilar, o'zbekcha taomlarni hafsala bilan qoyilmaqom qilib tayyorlar, uy-ro'zg'or ishlarida ham namuna edi. Bir kuni dasturxonaga mastava qo'yayotib:

– Ukajon, ko'nglingiz tusagan taomni tortinmay buyuravering, – deb qoldi.

– Rahmat. Tayyorlayotgan taomlaringiz bir-biridan a'lo! Sizni tashvishga qo'yganim uchun...

– Yo'q, yo'q. Aslo unday demang. Odam bor joyga odam keladi. Turobjon akangiz tufayli kelgansiz bu xonadonga. Eh-ha, biznikiga kimlar kelmagan. hozir esa..., – Tamara opa o'pkasi to'lib, ko'ziga yosh oldi.

Turobjon aka kaftlarini ishqalab, uni yupatmoqchi bo'ldi:

– Juda zo'r mastava bo'libdimi!

Opa ko'z yoshini artdi va avvalgidek ochiq chehra bilan choy damlab keldi.

– Ko'nglingiz tusagan taomni buyuravering, deganimning boisi shuki, Turobjon akangiz ancha vaqtdan beri parhezdalar.

Turob aka kuldi:

– Mehmon buyurmasalar, mana biz buyuramiz: kechga palovxonto'ra tayyorlansin.

Turob To'la bilan ikkimizning o'rtamizda roppa-rosa o'n yosh farq bor edi. Chinakamiga og'a-ini bo'lib qoldik. Gohida dam olib o'tirib, qizg'in suhbat qurardik. U kishining so'zlari menga ta'sir etardi... «Hayot nihoyatda murekkab ekan, ukam. Eng yaxshi do'sting aytmagani:gni aytding, qilmagan ishingni qilding, deb ko'kragiga urib qasam ichib

turgandan keyin dardingni kimga aytasan?! Tavba, deb yoqa ushlaridan o'zga ilojing yo'q. Bunisiyam mayliya, duch kelganda ko'rmaganlikka olib teskari qarab ketaveradi. Bilsangiz, bir og'iz ili q so'zga zor bo'lgan kunlarim ko'p bo'lgan. Yaxshiyamki, Abdulla Qahhor bilan bir hovlida qo'shni bo'lib yasharkanmiz. Abdulla aka har safar ko'rishganimizda: «Bardam bo'ling, Turobjon. Hammasi o'tib ketadi», – deb qo'yardi. Ana shu so'z men uchun ham non, ham osh bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlardi. Ko'nglim tog'dek ko'tarilib, och-nahor bo'lsam-da, alamimni qalam-qog'oz, kitobdan olardim. E, bu bosh nimalarni ko'rmadi-yu, nimalarga bardosh bermadi. Bolalar uyida tarbiyalanib, ota-ona mehri qonmaganimni eslasam, yuragim orqasiga tortib ketadi...» Ishlarimiz ko'ngildagidek borardi. Qo'lyozmani erta-indin bosmaxonaga tushiramiz, deb turganimizda yana yangi to'siqqa duch keldik.

Tarjima bo'yicha bosh muharrir o'rinbosari kitobni badiiy kengash muhokamasiga qo'yadigan bo'ldi. Asosiy da'vogar uning o'zi edi. Endi Turob To'la qolib, butun qahr-g'azabini kaminaga to'kib-sochdi. Yaxshi tahrir qilinmagan. muharrir mas'uliyatni sezmagani, bu ahvolda qo'lyozmani bosmaxonaga tushirib bo'lmaydi, – deya turib oldi. Turob aka bu da'voga ortiq bardosh berolmadi va jahl bilan o'rnidan sapchib turib, raqibiga sherdek tashlandi: «Nima degan gap bu! Qizim senga aytaman – kelinim sen eshit, qabilida ish tutishmi?! Qancha da'voingiz bo'lsa, ochiqchasiga o'zimga aytavermaysizmi? Kamchiligi yo'q demogchimasman. Shubhasiz, bor. Nasrda birinchi bor katta tarjima qilishim. Bu kitobga taqdir taqozosi bilan qo'l urganimni hammadan ko'ra siz yaxshiroq bilasiz. Muharrir xususida gapiradigan bo'lsam, hali u yosh, lekin halol va sidqidi!dan xizmat qildi. Axir, bu dunyoda odamgarchilik degan gap ham bor-ku...» Oxirgi so'zni Nasrullo Oxundiy aytishi kerak edi.

– Tarjima, asosan, ma'qullansin va nashrga qabul etilsin. Ayrim juz'iy kamchiliklarni bartaraf etish, g'aliz jummalarni tuzatish uchun muharrir bilan tarjimonga o'n besh kun muhlat berilsin, – dedi u. Qisqacha, qo'lyozma bosmaxonaga tushirilib, oradan ko'p o'tmay «Matonatli kishilar» nomi bilan chop etildi. Kitobga bag'ishlab «Matonatli kishilar haqida roman»-degar maqola yozdim va u voshlar gazetasiida e'lon qilindi. Mazkur maqola radlodan O'zbekiston xalq artisti – mohir suxandon Qodir Tojiev tomonidan o'ttiz daqiqa davomida qiyomiga yetkazib o'qildi.

Ana shu kitob sabab Turob To'la qac'dini rostlab oldi va barcha uydirma-bo'htonlardan tamomila xalos bo'ldi. U mafkuraviy kurash

maydonida obdan toblanib, endi adabiyot, san'at, madaniyat iabhasida yangi kuch-quvvat, bitmas-tuganmas ilhom bilan hormaytolmay xizmat qilar ekan, badiiy ijodning turli janrlarida qalam tebrata boshladi va betakror asarlar yaratdi. Xizmatlari munosib taqdirlandi. «O'zbekiston xalq yozuvchisi», «Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» degan yuksak unvonlar, boshqa ko'pgina mukofotlar sohibi bo'ldi.

Ha, adabiyot, san'at, madaniyat darg'alaridan biri bo'lmish shoir va dramaturg, mohir kinostsenariychi va o'tkir publitsist, eng muhimi, sadoqatli do'st, mard va tanti, kamtarin va halol-pokiza inson Turob To'la hayot bo'lganida 80 bahorni ko'rgan bo'lardi.

Felyeton – publitsistikaning ajralmas qismi sifatida faoliyat ko'rsatadigan ommabop badiiy-publitsistik janrdir. Felyeton fransuzcha so'z bo'lib, Feuille – varaqa, varaqa degan ma'noni bildiradi.

Felyeton atamasi 1800-yil 28-yanvarda fransuz gazetalaridan biriga ilova tariqasida qo'shib chiqarilgan varaqa nomi bilan bog'liq. Ammo felyeton janr sifatida bundan oldinroq paydo bo'lgan.

Felyeton bizning tushunishimiz bo'yicha o'ziga xos maxsus uslubda mavjud muammolarni o'tkir satira tilida ifoda etadigan asar.

Felyeton ijtimoiy hayotdagi ba'zi salbiy voqea va hodisalar yoki ayrim kishilarga, ko'pincha katta boshliqlarga xos nuqsonlarni hajv qilinishi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Muallif o'zi tasvirlayotgan felyeton qahramonining nuqsonlarini ochib tashlash, qoralash maqsadida satirik mubolag'adan, ba'zan, hatto fantastik tasvir usulidan ham foydalanadi. Biroq felyetonning asosini hamma'vaqt hayotdagi konkret voqea tashkil etishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Felyeton o'z mohiyati, hayotdagi faktlarni ifodalash uslubiga ko'ra ikki turga bo'linadi: belletristik hamda publitsistik.

Belletristik, ya'ni o'qilishi oson bo'lgan yengil-yelpi asarda faktlarning abstraksiyalashgan holda sintezi beriladi. Bunda manzil ko'rsatilmaydi.

Felyeton ifoda shakllariga ko'ra felyeton maqola, felyeton reportaj, felyeton intervyu, felyeton dialog, felyeton monolog, felyeton xotira, felyeton taqriz va boshqa xillarga ega. Demak, felyeton faktlarning mohiyatiga ko'ra satirik, yumoristik hamda ijobiy bo'lishi mumkin. Unda publitsistik badiiy va hajviy unsur – tabiatlar uyg'unlashganini e'tirof etish lozim. Felyetonning publitsistik ruhida

dolzarb, ijtimoiy ahamiyatga ega fakt, hodisalarning tezkor tarzda tahlil etilishi, badiiylikda hajviy obrazlar yaratilishi va nihoyat hajviy tabiatida esa tahlil etilayotgan fakt-hodisalarda komik, kulgili mohiyatini anglash orqali namoyon etilishi mavjud.

Felyeton janrida Muqimiy, Azam Ayyubov, Zavqiy, Abdulla Qodiriy, H.H.Niyoziy, G'.G'ulom, A.Qahhor, Komil Aliyev, Said Ahmad, Xudoyberdi To'xtaboyev va boshqalarning asarlarida nafaqat kulgi, balki illatlarga nisbatan o'quvchilar g'azabini uyg'otadigan faktlar mavjud. Felyetonda tanqid har doim asosiy element hisoblansa-da, materialni satrik yo'sinda ishlash uning doimiy belgilovchi xususiyati emas.

Misol sifatida, «Taraqqiy» gazetasining 1906-yil 14-(27) iyunidagi birinchi sonida chop etilgan bosh maqolani keltirish mumkin.

«Biz musulmonlarni hurriyatda haqlari bormi? Yo'q qarindoshlar, yuz marta yo'q!» degan sarlavha ostidagi bosh maqolada chor hukumatining xalqqa erkinliklar va'da qilgan manifesti Turkiston xalqlariga hech qanday erkinlik bermaganligi, hamon milliy va siyosiy zulm-istibdod hukm surayotganligi ochib tashlanadi.

«Hozirgi ijtimoiy kalom, matbuot uchun berilgan hurriyatlar to'shak ustida, og'ziga suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekanini tilsiz va ko'r tabiblar ham tasdiq eturlar», deyiladi ana shu maqolada. Filologiya fanlari doktori, professor Muxtor Xudoyqulov «Jadid matbuotida hajviy publitsistika» maqolasida jadid matbuoti hajviy publitsistikaning felyeton janridan keng foydalanganligini yozib, misol sifatida Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lining «Taraqqiy» gazetasining birinchi sonida bosilgan «Bizning jaholat – jahli murakkab» sarlavhali felyetonini keltiradi. «Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! – deb boshlanadi felyeton. – Bir bolani maktabga bermoqdan maqsad va ijobat diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, misoili e'tiqodiya, farzin, vojib, namoz, ro'za va ham zaruriyati dunyoviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan, tarixi islom kabi foydali ilmlarni bildirmakdur».

Felyetonda yuqoridagi jiddiy mulohazalar bilan birga mustamlakachilikning tanqidiy lavhalari ham chizilgan, deb quyidagi jumlaning keltiradi. «Bu jaholat natijasidurki, o'zimiz yerli musulmonlardan o'ldig'imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o'ldik. Va bu jaholat xohishidirki, illat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridan chiqarib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarga sarf etmoqdadurlar».

Muallif bu maqolasida ijtimoiy hayotning taraqqiy qonunlarini to'g'ri tushingan «Taraqqiy»chilar keyinchalik «Xurshid»chilar jabr-zulmning har qanday ko'rinishlarini dadillik bilan fosh etganliklari haqida yozarkan, quyidagi misollarni keltiradi.

«Xurshid» gazetasining (1906-yil 21-sentabr) ikkinchi sonida bosilgan «Tarki odat – maqol» felyetonida hayotdagi qoloqlik, to'ylardagi isrofgarchilik tanqid qilinsa, Mulla gustohi Buxoriy imzosi bilan berilgan «Yig'orlar pora bo'yni yo'g'onni, solurlar o'rtag'a qizu juvonni», deb nomlangan felyetonda ayrim maishiy buzuq shaxslar masxara ostiga olingan.

Umuman olganda, hajviy publitsistikaga e'tibor doim baland bo'lgan, chunki ijtimoiy hayotni tasvirlash va unga ta'sir etishda u tasirchan ko'rinishga egadir.

Felyeton janri haqida gap ketganda publitsistik felyeton ustasi, o'z ijodi bilan o'zbek matbuotida felyeton janrini shakllantirish va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan Komil Aliyev to'g'risida aytmaslikning iloji yo'q.

Taniqli olim Tohir Pidaev o'zining «Felyetonchi Komil Aliyev» deb nomlangan maqolasida «Komil Aliyev o'z felyetonlarini uydirma hodisa, faktlar asosiga emas, balki hayotda mavjud, gazetaxonga tanish bo'lgan aniq dalil va hodisalar asosiga quradi... Uning har bir materialga o'zicha yondashuvi, o'ziga xos uslubi bor... Uning tanqidi keskin va hujumkor, felyetonlarida publitsistik tahlil ustun turadi... U yozib qoldirgan felyetonlarning aksariyati kompozitsiyasining pishiq va tiniqligi, sarlavhalarining jozibadorligi, tilining obrazli ifodalarga boyligi, shaklining ixchamligi bilan o'quvchini o'ziga rom etadi»¹, deb yozadi. Xuddi shu gaplar felyeton qanday bo'lishi, qanday yozilishi, nimalarga e'tibor berilishi kerak, degan savollarga ajoyib javob bo'ladi.

Felyeton siyosiy-falsafiy unumlashtiruvchi kuchi, hajviy-publitsistik pafosi, ta'sirchanligi va hozirjavobligi bilan boshqa publitsistik janrlardan farqlanadi.

Pamflet (inglizcha *pamphlet*) – qo'ldagi bir varaq, degan ma'noni anglatadi. Pamflet felyetonga yaqin bo'lgan publitsistik janr bo'lib, u biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqeelik, u yoki bu to'da hamda guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy-tanqidiy asardir. U boshqa hajviy janrlardan badiiy to'qimaning ozligi, aniq, tarixiy hujjatlarga asoslanishi bilan farq qiladi.

¹ «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1997, 4-son, 44-45-betlar.

Pamfletda jamiyatdagi turli shaxslar xarakteridagi nuqsonlar achiq kinoya, o'tkir sarkazm vositalari bilan fosh etiladi.

Pamflet ibora sifatida 14-asrda paydo bo'lgan. U she'riy, nasriy yoki dramatik shaklda bo'lishi mumkin.

Pamfletning ilk namunalari antik davrda yaratilgan. O'zbek adabiyotida A.Qodiriy, S.Ayniy, G'.G'ulom, A.Qahhor va boshqalarning pamfletlari bizga ma'lum. Jumladan, A.Qodiriyning «Sanamparast tentaklar», G'.G'ulomning «Sharaf qo'lyozmasi», A.Qahhorning «Baron fon Ring» pamfletlari bu janrning eng yorqin ko'rinishlaridir.

Ko'pincha pamflet bizning siyosiy qarashlarimizga begona bo'lgan qarashlarga qarshi yoziladi. Unda bu qarashlar ustidan kulish, uning mashhur arboblari tanqid ostiga olish yotadi.

Parodiya yunoncha so'z – *parodio* – zid qo'shiq degan ma'noni bildiradi. Olim Muhsin Qodirovning yozishicha, parodiya adabiyot, teatr, musiqa va estrada janri, kulgi san'ati, hajv va hazil turlaridan biri.

O'ziga xos harakat tarzi, shuningdek, biror uslub, yo'nalish, janr yoki muayyan qolipdagi nutq va boshqaga hajviy kinoyaviy va yumor bilan yondoshish maqsadini ko'zlab qilingan o'ngli taqlid. Biror san'atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo'li bilan yaratilgan kulgili asar.

Badiiy ijod sohalari muallifning dunyoqarashi, g'oyaviy pozitsiyasi, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi har xil illatlar parodiya obyekti bo'ladi.

Parodiya antik davrda, miloddan avval paydo bo'lgan. U ko'pincha mubolag'a xarakterida bo'ladi. Unda nuqsonlar, xato va kamchiliklar o'rtoqlik tanqidi bilan qoralanadi.

Parodiya komediya san'atining, satiraning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, aksari holda bo'rttirilgan bo'ladi. Parodiyada aks ettirilayotgan voqeaning shakli bilan mazmuni bir-biriga zid qilib ko'rsatiladi, deydi Muhsin Qodirov. Biz bu fikrga qo'shilamiz. Parodiya, asosan, badiiy adabiyotda ko'p qo'llanilsa-da, jurnalistikaning kam ishlatiladigan janri ekanini tan olish kerak. Keyingi vaqtlarda matbuotda ba'zi shoirlarning badiiy bo'sh, mazmunan sayoz she'rlariga yoziladigan parodiya ham kamayib ketdi. To'g'ri hozirgi davrda parodiya o'zbek sirk jamoalarida, estrada konsertlarida uchraydi. Televizion miniatyuralar teatrida, radioteatr va qo'g'irchoq teatrlarida ham parodiyadan foydalanish bor.

Epigramma deb dastlab Yunonistondagi ibodatxonalarning devorlariga, haykallarga va turli idishlarga she'r yoki nasrda bitilgan yozuvlarga aytilgan. Epigramma miloddan avvalgi 5-asarda paydo bo'lgan.

Uning ilk namoyandasi lirik shoir Simonid Keoskiy hisoblanadi.

Badiiy asarlarda epigramma deganda turli mazmundagi kichik lirik she'r tushuniladi. Matbuotda bu janr, asosan, hajviy rasmlar, sharj ya'ni o'rtoqlik hazillarida qo'llaniladi.

Ba'zida epigrammalar kinga qaratilganining aniq nomi berilmasada, masalan, byurokrat, aroqxo'r, giyohvand, hushomatgo'y kimsalar qalamga olinib, umumlashtirilgan holda ular ustidan mazax qilinadi.

O'zbek adabiyotida va jurnalistikasida epigramma juda kam uchraydi. H.H. Niyoziyning «Bir eshon o'pkasi», G'.G'ulomning «Istaklarim», A. Qahhorning «Nutq» kabi asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

REYTING TOPSHIRIQLARI

1. Janr deganda nimani tushunasiz?
2. Maqola janriga tavsif bering.
3. Maqola turlarini sanang va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. O'zbekistonda maqola janri tarixi va uning rivojiga munosib hissa qo'shgan jurnalistlarni ayting.
5. Fakt va misollar bosh, markaziy o'rinda bo'lgan janrni bilasizmi?
6. Korrespondensiya – publitsistikaning asosiy va qadimgi tezkor janri ekanini ta'riflab bering.
7. Korrespondensiyaning vazifasi nimadan iborat?
8. Ochiq xat janrining vazifasini ayting.
9. Ochiq xatning tili qanday bo'lishi kerak?
10. Ochiq xat uslubini sharhlab bering.
11. Xabar janri haqida nima ayta olasiz?
12. Xabarning shakllari.
13. Xabarning korrespondensiyadan farqini ayting.
14. Kimningdir faoliyati, qaysidir voqea-hodisa haqida tushuntirish, bayon qilish, tanishtirishdan iborat maqsadni ko'zlagan matbuot janrini bilasizmi?
15. Axborot janriga publitsistikaning qaysi xillari kiradi?
16. Axborot janriga yuklangan mas'uliyatni ayting.
17. Axborot xillaridan hisobot va suhbatga ta'rif bering.

18. Lavha (zarisovka) turining xususiyatlarini bilasizmi?
19. Reportaj nima va unga qo'yilgan talablar nimalardan iboratligini ayting.
20. Reportaj turlarini sanang.
21. Matbuotni tahlil qiladigan maxsus janr qaysi?
22. «Matbuot sharhi bosh maqolaga teng» degan fikrga munosabat-ingizni bildiring.
23. Jurnalistikaning mustaqil janri bo'lgan taqrizga ta'rif bering.
24. Taqrizning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
25. Taqriz janri qanday vazifani bajaradi?
26. Ocherk janriga ta'rif bering.
27. Ocherkda qaysi publitsistik elementlar mavjud?
28. Nima sababdan ocherk badiiy-publitsistik janrlar «qirol», deb ataladi?
29. Ocherk hikoyadan nimasi bilan farqlanadi?
30. Ocherk turlarini sanang va ularga qisqa-qisqa izoh bering.
31. Tarixda va hozirda ocherk janri rivojiga munosib qissa qo'shgan adiblarni ayting.
32. Felyeton atamasining tarixi haqida nima bilasiz?
33. Felyetonning boshqa janrlardan farqi nimada?
34. Felyeton turlarini sanang.
35. Felyetonning ifoda shakllariga ko'ra qaysi xillarini bilasiz?
36. Felyeton janrida ijod qilgan o'zbek adib va jurnalistlarining nomlarini ayting va ular ijodidan namunalar keltiring.
37. Pamfletga izoh bering.
38. Pamflet tarixi va shakllari.
39. O'zbek adabiyotida yozilgan pamfletlardan qaysilarini bilasiz?
40. Parodiya janrini tahlil qiling.
41. Parodiya ob'ektini ayting.
42. Parodiyadan hozir, asosan, qaerda foydalaniladi?
43. «Epigramma» degan so'zni tushuntirib bering.
44. Epigrammaning ilk namoyondasi kim edi? Epigrammalar qayerlarda qo'llaniladi?
45. O'zbek adabiyoti va jurnalistikasidan epigrammalarga misol keltiring.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ommaviy axborot vositalari matnlarining umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan voqelikni aks etishning badiiy va publitsistik shakliga

qaysi tushuncha to'g'ri kelishini ayting.

2. Ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinadigan publitsistik janrni bilasizmi?

3. Bosh maqolaning uch xili bor. Shularni izohlang.

4. Nazariy va targ'ibot maqolalarining asosiy vazifasini ayting.

5. O'zbekistonda maqola janri tarixini bilasizmi?

6. «Chimdin hayot»ni ko'rsatadigan, bo'lgan voqeani yoki voqealarni tahlil qiladigan janrni ayting.

7. Maqolaning korrespondensiyadan farqi nimada?

8. Korrespondensiya nimalarni taqozo qiladi?

9. Korrespondensiya uchun majburiy talab qaysi?

10. Publitsistikaning ochiqxat shakli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shularni tasvirlang.

11. Nega tajribani ommalashtirishning eng yaxshi shaklidan biri ochiqxat janri deyiladi?

12. «Bizga yozadilar», «Qisqa satrlarda» kabi ruknlar qaysi janrga xos?

13. Xabar xillarini ayting.

14. Xabarga qo'yilgan talablarni sanang.

15. Axborot janri va uning turlarini bilasizmi?

16. Axborot janriga publitsistikaning qaysi xillari kiradi?

17. Axborot mazmuni, uning mavzusini qayerdan axtarish kerak?

18. Axborotning qimmatini qanday belgilanadi?

19. Qaysi gazetalar axborotga qo'yilgan talab yuzasidan faoliyat ko'rsatyapti?

20. Axborotga qo'yilgan talablarni ayting.

21. Axborot xillari va ularga ta'rif bering.

22. Axborot turlarini sanab bering.

23. Axborotning hisobot turiga kiritilgan xillarini ayting.

24. Axborot janrining lavha turini qanday izohlaysiz?

25. Axborotning maxsus turi – reportaj janriga qo'yilgan talabni ayting.

26. Reportaj turlarini izohlang.

27. Tadqiqotchi Erik Fikteliyusning reportyor haqidagi fikri.

28. Telereportyorning cutq tezligi 1 daqiqada qancha so'zni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

29. Reportaj xususiyatlarini ayting.

30. Matbuot sharhi janrining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

31. Matbuot sharhining xillarini ayting.

32. Matbuot sharhi janriga qo'yiladigan talablarni bilasizmi?
33. Taqriz janrining turlari va ularning xususiyatlari.
34. Taqrizga nima sababdan gazetaning umumlashtirilgan janri deb aytiladi?
35. Taqriz bir qolip asosida yozilishi mumkinmi?
36. Taqrizga qo'yilgan asosiy talablarni ayting.
37. Ocherk janri qaysi xususiyatlari bilan publitsistika janrlaridan ajralib turadi?
38. Matbuot, televidenie yoki radio tahririyatlarining adabiy saviyasini ocherk orqali bilish mumkinmi?
39. Ocherkning hikoyadan farqini ko'rsatib bering.
40. O'zbek ocherkining asoschilaridan biri Abdulla Qahhorning ocherk haqidagi ta'rifini ayting.
41. Ocherkning turlarini sanab bering.
42. Syujetli ocherkning ahamiyatini bilasizmi?
43. Yo'l ocherkining mohiyatini ayting.
44. «Ocherk - portret asar» deyilishiga munosabatingiz?
45. Ocherk janrining eng xarakterli namunasiga misol keltiring.
46. Abdulla Qahhorning hamda Oybekning qaysi asarlari avvaliga ocherk tarzida yozilgan edi?
47. «Felyeton» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
48. Nega «felyeton - o'tkir satira tilida yoziladigan asar» deyiladi?
49. Felyetonning belletristik hamda publitsistik kabi turlariga misollar keltiring.
50. Felyeton ifoda shakllari va mohiyatiga ko'ra qanday bo'iishini ayting.
51. O'zbek felyetonchilaridan kimlarni bilasiz?
52. Pamflet janrini ta'riflab bering.
53. Parodiya kimlarga va qanday usulda yoziladi?
54. Epigrammaning matbuotda qo'llanilishiga misollar keltiring.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Теория и практика художественно-публицистических жанров, М., 1969.
2. *Abdusamatov X.* O'zbek satirasi masalalari. T., 1968.
3. *Tog'ayev O.* Publitsistika janrlari. Xat. Ocherk. Felyeton. T., 1976.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T., 2000, 1-jild, 2003, 5-6-jild, 2004, 7-8-jild.
5. O'zbekiston ensiklopediyasi T., 1979, 12-13-jild.

6. Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama. T., 2003.
7. *Muhammadiyev R.* Publitsistika janrlari. T., 1964.
8. *Tog'ayev O.* O'zbek badiiy publitsistikasi T., 1973.
9. *Tog'ayev O.* Adiblar va janrlar. T., 1976.
10. *Tog'ayev O.* Publitsistik tadqiqot san'ati. T., 1986.
11. *Saidov O.* Satira tili bilim. T., 1978.
12. *Saidov O.* O'zbek felyetoni. T., 1981.
13. *A.Ш.Саудов.* Сатирическая публицистика в периодической печати. T., 1986.
14. *T.Pidayev.* Qalami nayza edi. T., 1971.
15. *T.Pidayev.* Azam Ayupov. T., 1970.
16. *Mirzayev I.P.* Badiiy ocherkning ba'zi masalalari. T., 1964.

XOTIMA

Hajm jihatidan ancha kichik bo'lgan bu kitobchada jurnalistika asoslarini to'laqonli yoritish, uning barcha qirralarini ko'rsatish mumkin emas. Ushbu qo'llanma o'z hayotini jurnalistikaga bag'ishlashga ahd qilgan talabalar, shu sohaga qiziqib qolgan o'quvchilarga yordam sifatida yozildi.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda matbuotning roli bugun qanday? O'zbekiston Prezidentining qilgan ma'ruzasida «Ochig'ini aytganda, bizning matbuotimiz, televideniye va radio hozirgacha zamonaviy ish usullari va shakllarini egallab olganicha yo'q, xalqaro mezonlarga muvofiq emas. Matbuot sahifalarida va televideniya da chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro sharhlar yo'q, bahs-munozara ko'rinmaydi. Ayrim ommaviy davlat nashrlarining aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko'zga tashlanmaydi. Ular, asosan, rasmiy xabarlarini e'lon qilish bilan cheklanmoqda», degan fikrlari o'z ahamiyatini bugun ham yo'qotgan emas.

Publitsist Nazrulla Jo'rayev «Istiqloq epkini va so'z erkinligi» maqolasida shunday deydi: «...Hali milliy matbuotimiz faoliyatida jiddiy kamchiliklar bor. Shiddatli hayot islohotlar mohiyatini chuqur anglashni, butun miqyosi, ko'lamida qamrab olib tahlil qilishni va uning mohiyatini ochib berishni taqozo etadi. Matbuot esa islohotlar shiddatidan, yangilanishlar oqimidan orqada qolmoqda, uning shiddatiga tenglasha olmayapti, ijtimoiy hayotimizda, butun mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar mohiyati chuqur ochilmayapti.

Bir qaraganda matbuot sahifalari bejirim va u kishini qaysidir darajada qanoatlantiradi, serqirra hayotning hamma sohalarini qamrab olgandek, mavzu doirasi keng, barcha muammolarni yoritayotgandek tuyuladi. Biroq ayni ana shu sohalar va mavzularning barchasida ma'lum darajada yuzakilik, safsatabozlik, chuqur bilimning yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Ilmiy-tahliliy va hayot falsafasining sintezi sifatidagi xulosalar yetishmayapti»¹.

Demakki, jurnalistika oldida katta vazifalar turibdi, uni hal qilish, bu mas'uliyatli vazifalarni ilmiy tahlil qilish vaqti keldi.

Jurnalistikani ijtimoiy faoliyat turi deb qarasaq, demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan ijtimoiy faoliyat ham o'zgaradi, uning turi bo'lgan jurnalistika ham o'zgaradi, rivojlanadi, takomillashadi.

¹ «O'zbekiston matbuoti» jurnali. 2001. 5-son, 11-bet

JURNALISTIKA ASOSLARI KURSI

O'QUV DASTURI

BIRINCHI SEMESTR

| | |
|------------------------------|-----------|
| Auditoriyada | – 45 soat |
| Shundan: | |
| Leksiyalar | – 18 soat |
| Amaliy ishlar | – 18 soat |
| Yakka tartibda mashg'ulotlar | – 9 soat |
| Mustaqil ishlar | – 23 soat |
| JAMI | – 68 soat |

1. KIRISH

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, davlat qurilishi va iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlari, respublikamiz hamda uning atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ommaviy axborot vositalarining to'rtinchi hokimiyat sifatidagi roli va ahamiyatini oshirib yubormoqda.

Jahonda axborot olishga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan bexabar, ular bilan qiziqmaydigan inson deyarli yo'q. Har bir soha, kasb va muta-xassislikka oid ma'lumotlar shu soha va kasb sohiblarining kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda.

Yaqin kunlarga qadar qonunshunoslik, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, madaniyat, san'at va boshqa sohalarga oid maqolalar, televideniye va radio orqali tomoshabin va tinglovchilarga yetkazilayotgan materiallar umumiy jurnalistika bilimiga ega ijodkorlar tomonidan yozilar va yaratilar edi. Ular mutaxassislarni, umuman olganda, gazetxon, tomoshabin va tinglovchilarni qanoatlantirmas edi.

Mana shu ehtiyoj har bir soha bo'yicha kadr tayyorlash vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Haqiqatan ham keng ommaga tushunarli tarzda o'z sohasining bilimdoni sifatida shu sohaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi, taraqqiyoti, bugungi hayoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida nazariy va amaliy fikrlarga boy materiallar tayyorlay oladigan mutaxassislarga ehtiyoj ortib boryapti. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida har bir soha o'zining ichki va tashqi imkoniyatlarini yorqin namoyon etish, keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilish uchun intilayotgani bejiz emas.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, elektron va matbuot kommunikatsiyalarining keng ommaga ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik jihatdan ta'sir etish, xalqning ko'ngil ochish va hordiq chiqarish bo'yicha ehtiyojlarini qondirish xususiyatlariga ega bo'lgan adabiyot va san'at asarlariga e'tibor kuchaydi. Teleradio dasturlarini, Internet tarmog'ini, rasmiy va xususiy gazeta yoki jurnallar sahifalarini, asosan, ana shu nafis ijodga bag'ishlangan materiallar egallayotganligi haqiqat.

Toshkent Davlat san'at instituti 1990-yil boshida o'zining san'atshunoslik bo'limida san'atning turli sohalarini bo'yicha matbuot va elektron kommunikatsiyalarida professional ommabop materiallar yarata oladigan va faoliyat ko'rsata oladigan san'atshunos kadrlarni tayyorlashga kirishgan edi. Hozirga qadar mutaxassislarning bir necha guruhi institutni bitirib, hayotga yo'llanma olishdi. Ular ommaviy axborot vositalarida mehnat qilishyapti.

Mamlakat oliy ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad ham respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlash, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga amal qila borib, institut ma'muriyati va Ilmiy kengashi san'atshunos jurnalistlar tayyorlashga katta e'tibor berdilar.

OAVda ishlash uchun oliy o'quv yurtimiz tayyorlayotgan bakalavr san'atshunoslarga jurnalistikaning o'ziga xos va nozik xususiyatlarini o'rgatish yuzasidan bir muncha tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Jurnalistika asoslari», «Statistika va tahrir», «Muharrirlik faoliyati», «Noshirlik ishi», «Teleradiojurnalistika», «San'at jurnalistikasi» kabi fanlar o'qitilmoqda.

«Jurnalistika asoslari» predmeti OAVga yo'naltirilgan bakalavr san'atshunoslar uchun yetakchi, ixtisosli fan hisoblanib to'rt semestr o'tiladi.

Talabalar leksiyalar tinglab, amaliy hamda yakka tartibda mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, jurnalistikaning qonun-qoidalarini o'rganishadi,

tahririyatlarda bo'lib, haqiqiy ishlar bilan tanishadilar.

Talabalar ikki yil davomida kursning predmet va vazifalari, jurnalistikaning shakllanishi, mohiyati, modellari, janrlarini o'rganib, jurnalist huquqi, maqomi, odobi va axloqi, matbuot erkinligi, oshkoralik to'g'risidagi talab va ma'lumotlarni, matbuotning asosiy funksiyalarini bilib olishadi.

«Jurnalistika asoslari» kursi uchun jami 270 soat ajratilgan. Shundan auditoriyada leksiya va mashg'ulotlar uchun 180 soat: shundan, leksiyalar – 72 soat, amaliy mashg'ulotlar – 72 soat, 36 soat esa yakka mashg'ulotlar (laboratoriya ishlari). Mustaqil ishlar uchun jami 90 soat.

«Jurnalistika asoslari» predmeti – gazeta, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan davlat tasarrufidagi mustaqil va boshqa ommaviy davriy janrlar faoliyatini o'rganuvchi fandır.

MAVZU: KURSNING PREDMETI VA VAZIFALARI

«Jurnalistika asoslari» kursining ma'lum kasblarga oid fanlarni o'qitish rejalaridan tubdan farq qilishi. Uning o'rganadigan obyektlari. Ommaviy axborotning jurnalistika mazmuni matnini ifodalovchi sifatida namoyon bo'lishi.

Kursning vazifasi jurnalistika fanining ichki, obyektiv qonuniyatlarini talabalarga chuqur o'rgatish, mutaxassisligi bo'yicha malaka hosil etishdan iborat.

MAVZU: JURNALISTIK MA'LUMOT VA TA'LIM

Jurnalistik ma'lumot tarixiga nazar. Ehtiyoj taqozosi tufayli jurnalistika ta'limining yuzaga kelishi. Jurnalistikaga oid adabiyotlarda bu soha ta'limi bo'yicha tushunchaning tahlili yo'qligi. O'zbek tilida adabiyotlar yetishmasligi. Jurnalistika faoliyatini tahlil qiladigan kadrlarning yetishmasligi.

II. JURNALISTIKANING SHAKLLANISHI, MOHIYATI VA MODELLARI

Jurnalistika bugungi mavqega ega bo'lgunga qadar mashaqqatli tarixiy sinovlardan o'tdi. U shakllanish davridan boshlab to XX asr oxirlarigacha, asosan, hukmron tuzumga xizmat qildi.

Insoniyatning yangilik, xabar va axborotlarga ehtiyoji matbuotning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini tezlatgani to'g'risida.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach jurnalistikaning rivoj topishi.

MAVZU: JURNALISTIKANING PAYDO BO'LISHI

Jurnalistikaning paydo bo'lishini insoniyat tarixi, hayoti taraqqiyoti bilan jazviy bog'liq tarzda o'rganishning muhimligi.

Jurnalistikaning rivoji vujudga kelgan davridan boshlab mafkuraviy va siyosiy jarayonda faol qatnashganligi bilan bog'liqligi.

O'zbek jurnalistikasining mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi faoliyati.

MAVZU: JURNALISTIKANING G'OYAVIY-NAZARII ASOSLARI

O'zbek jurnalistikasi – g'oyaviy-nazariy konsepsiyasining yaratilishida jadidchilik harakatining ta'siri. Sobiq she'ro tuzumi davrida matbuot kishilararo ommaviy muloqot va g'oyalar tarqatishning asosiy vositasi rolini o'taganligi, umumdemokratik qoidalarga zid ravishda yakka partiyaviylik, yakka hokimlik sharoitidagi faoliyat ko'rsatganligi.

Istiqlol tufayli O'zbekiston matbuotida yangi davr – demokratik rivojlanish davri boshlanishi.

IKKINCHI SEMESTR

| | |
|------------------------------|-----------|
| Auditoriyada | – 45 soat |
| Shundan: | |
| Leksiyalar | – 18 soat |
| Amaliy mashg'ulotlar | – 18 soat |
| Yakka tartibda mashg'ulotlar | – 9 soat |
| Mustaqil ishlar | – 22 soat |
| JAMI | – 67 soat |

MAVZU: JURNALISTIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY KO'RINISHLARI

Jurnalistik faoliyatning mohiyati – axborot tarqatish ekanligi. U insonning dunyoni bilishi hamda tajriba orttirishida asosiy vositadir.

Axborotlarning ijtimoiy, siyosiy, xalqaro, harbiy, maxfiy va boshqa shu kabi tur'larga bo'linishi.

Axborotlarni qabul qilib oluvchi asosiy guruhlar..

Jurnalistikaning turli soha va xillarga bo'linishi.

MAVZU: OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TASNIFI VA TARKIBI

Ijtimoiy hayot, amaliyot bilan jurnalistikaning o'zaro uzviy aloqasi o'laroq axborot vositalarining ma'lum bir tarkibi paydo bo'lishi. OAVning tasnifi, har bir nashr hamda axborot vositalarining aniq ifoda etilgan tarkibining vujudga kelishi.

O'tgan asrning 90-yillarigacha matbuot tasnifida ommaviy axborot vositalari markscha-lenincha ta'limot asosida sinfiy-g'oyaviy nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lsa, O'zbekiston mustaqilikka erishgach, yangicha, xolis, umuminsoniy g'oya va qarashlarning ilgari surilganligi.

III. JURNALLIST HUQUQI, UNING IJODIY UYUSHMASI. IJTIMOIY-LAVOZIMIY MAQOMI

Jurnalist maqola yozganda, ko'rsatuv yoki eshittiruv tayyorlaganda masalaning mohiyatidan kelib chiqib, xolisona fikr yuritadigan kasb egasi va ijtimoiy shaxs ekanligi. Jurnalist kasbining o'ziga xosligini e'tiborga olib, uning ijtimoiy-kasbiy maqomini aniq belgilash zarurati.

Gazeta, jurnal, televideniye, radioeshittirish, axborot agentliklari va nashriyotlarda xizmat qiladigan jurnalistlarning ko'ngilli ijodiy jamoat tashkiloti mavqei va zarurligi.

MAVZU: O'ZBEKISTON JURNALISTLARI IJODIY UYUSHMASI

1959-yil 20–22-aprelda jurnalistlarning birinchi ta'sis qurultoyida tuzilgan uyushmaning tarqatib yuborilishi. 1996-yil 30-avgustda O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasining tashkil etilishi.

2004-yilning 26-martida jurnalistlarning ta'sis konferensiyasida O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining tashkil topishi.

Ijodiy uyushmaning asosiy vazifasi – jurnalistlarning jamiyatdagi o'rni va mavqini ko'tarish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha OAVda ishlayotgan, shuningdek, erkin shug'ullanayotgan ijodkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi.

MAVZU: JURNALIST – AQLIY MEHNAT KISHISI

Tahririyat ishi ijtimoiy – ishlab chiqarish xarakteriga egaligi. Uning uzluksiz faoliyati, komponent tizimining vujudga kelishi jurnalist

mehnatini yanada takomillashtirishni ko'ndalang qo'yayotganligi.

Aqliy mehnat kishisi hisoblangan jurnalistlar axborot mahsuloti tarqatuvchilar guruhiga kirib, yana boshqaruvchilar va bajaruvchilarga bo'linishi.

MAVZU: AXBOROT ALMASHINUVI

Axborot almashinuvida auditoriyaning tutgan o'rni. Uning faollar va sustkashlar guruhlariga bo'linishi. Tahririyatlarning tadbirkorligi bo'yicha rejalarining ahamiyati. OAVning xalq bilan aloqa rishtalarini o'rnatish yo'llari va shakllari.

UCHINCHI SEMESTR

| | |
|------------------------------|-----------|
| Auditoiyada | – 45 soat |
| Shundan: | |
| Leksiyalar | – 18 soat |
| Amaliy maslig'ulotlar | – 18 soat |
| Yakka tartibda mashg'ulotlar | – 9 soat |
| Mustaqil ishlar | – 23 soat |
| JAMI | – 68 soat |

IV. JURNALISTIKA AMALIYOTINI BOSHQARISH, MATBUOT ERKINLIGI MASALASI

Jurnalistika amaliy ishlarini boshqarish ommaviy axborot vositalari tizimida ham ichki, ham tashqi tarafdan amalga oshirilishi.

Ommaviy axborot vositalari nimani va qanday yoritish mumkin yoki mumkin emas, degan savolning javobi matbuot erkinligi bilan belgilanadi.

Matbuot erkinligi taraqqiyotning buyuk qadriyatlari: fikr, vijdon, ong erkinligi bilan bir qatorda turadi.

Matbuot erkinligining uchta: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy asoslarining mavjudligi.

MAVZU: AXBOROT TIZIMI HUQUQLARI MAZMUNI

Axborot tizimi huquqlari to'g'risida O'zbekiston qonunlari. OAVning erkin faoliyat yuritishlari, axborot izlash, olish va tarqatish huquqlaridan foydalanishlarining davlat tomonidan kafolatlanishi.

Muassisning senzurani amalga oshirishga, materiallarni taqrizdan

o'tkazishga yoki tahririyatning ijodiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ishlab chiqarilishi va tarqatilishiga aralashuvga haqli emasligi qonunda o'z ifodasini topgani.

MAVZU: OSHKORALIK VA UNING QO'LLANILISHI

Oshkoralik mavzusining matbuot erkinligi haqidagi masala bilan uzviy bog'liqligi. Oshkoralik demokratiyaning zarur sharti ekani. Oshkoralik – har xil qarashlar, fikr-mulohazalar mavjudligi. Oshkoralikning rivoj topishi uchun kafolatning zarurligi, axborot almashinuvida ishtirok etayotgan shaxslarning siyosiy, axloqiy hamda kasbga oid madaniyati yuksakligining zarurligi.

Oshkoralikning o'ta murakkab va ko'p jihatli hodisa ekanligi.

MAVZU: JURNALIST ODOBI VA AXLOQI

Axloq – odoblar majmui, deb qarash va unga bir yoqlama yondoshmaslik. Sho'rolar istibdodi davrida axloqqa sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan yondoshilgani.

Xalqning urf-odati, marosimlariga hurmat bilan qarashning jurnalist odobi, axloqi bilan chambarchas bog'liqligi.

Axloq me'yorlari va ularga har xil qarashlar mavjudligi.

Matbuotning bosh tamoyillaridan qaysilari odobli, axloqli jurnalistlar rioya etishlari uchun shart ekanligi.

MAVZU: MATBUOTNING ASOSIY FUNKSIYALARI

Matbuotning asosiy funksiyalari: mohiyati, faoliyati, oldiga qo'ygan maqsad va yo'nalishlari. Matbuotning uch asosiy: tasvir, tahlil, ta'sir funksiyalarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi hamda ularning hamisha takomillashib borishi.

Matbuotning asosiy funksiyalarini belgilovchi xususiyatlar.

MAVZU: PUBLITSISTIKA VA UNING KO'RINISHLARI

Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti unga aloqador o'tmish va kelajak dalillari-publitsistika predmeti ekani.

Publitsistikaning janr jihatdan uch targa yoki guruhga bo'linishi.

Voqeyiy axborot guruhga qaysi janrlar, tahliliy guruhga qaysi janrlar, ta'sir guruhiga qaysi janrlar kirishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Publitsistikaning so'z san'ati, timsol tasavvurlariga tayanib, ijtimoiy fikrga ta'sir etuvchi ijod turi ekanligi.

TO'RTINCHI SEMESTR

| | |
|----------------------------|-----------|
| Auditoriyada | – 45 soat |
| Shundan: | |
| Leksiyalar | – 18 soat |
| Amaliy mashg'ulotlar | – 18 soat |
| Yakka tarzda mashg'ulotlar | – 9 soat |
| Mustaqil ishlar | – 22 soat |
| JAMI | – 67 soat |

V. JURNALISTIKA JANRLARI

Jurnalistikada «janr» degan tushunchaning mavjudligi. Ommaviy axborot vositalari matnlarining umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan, voqelikni aks ettirishning bediyy va publitsistik shakli ekani. Bu tushunchaning voqelikni bilish usullari, aks ettirish va ijtimoiy hayotga ta'sir o'tkazishiga ko'ra, asarlarning mazmun va shaklining umumiy xususiyatlari yig'indisi ekani.

MAVZU: MAQOLA

Jurnalistikaning eng ko'p tarqalgan publitistik janri – maqolada ijtimoiy hayotda yuz bergan voqea va hodisaning chuqur tahlil qilinishi. Maqolaning tadqiqot, biron bir aniq masala yoki dolzarb mavzuga bag'ishlangan publitsistika ekani.

Maqolaning bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola. tajribani umumlashtirib, ommalashtiradigan maqola, tanqidiy maqola va boshqa turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.

MAVZU: KORRESPONDENSIYA

Korrespondensiya gazeta publitsistikasining asosiy va qadimgi tezkor janrlaridan biri. Uning vazifasi – «chimdini hayotni» ko'rsatish, maqsadi esa – voqea yoki hodisalarni tahlil qilishdan iborat.

Korrespondensiyada muallifning dalillarni shundaygina sanab o‘tmasdan, voqea yoki hodisani ifodalashi, baholashi va izohlashining muhimligi.

Korrespondensialarning janr xususiyatlari.

MAVZU: OCHIQ XAT

Ochiq xat publitsistikaning bir shakli bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ochiq xat muallifi ko‘tarilayotgan masalani yoritishda badiiy usuldan foydalanishi, hikoyasini jo‘shqinlik bilan ifodalashi, o‘z dunyoqarashini bildirishining muhimligi.

Bu janr tili ta‘sirchan, ehtirosga to‘la, ibratli, munozaraga chorlovchi bo‘lishi kerak.

MAVZU: XABAR

Xabar matbuotimizda keng yoyilgan tez yoziladigan janrligi. Dalillarni taqqoslash, tahlil qilish, o‘zaro munosabatlarni aniqlash kabi xususiyatlari.

Xabar janrining axboriy xabar, aks-sado, tanqidiy, hajviy, bahsli ko‘rinishlarga egaligi va ularning o‘ziga xos tomonlari.

Xabarning hajm jihatdan korrespondensiyadan ixchamligi, u tor mavzuni ko‘tarib chiqishi, unda bittagina voqea va dalil ustida fikr yuritilishi.

MAVZU: AXBOROT

Axborot matbuotda qadimdan foydalanib kelinayotgan janr bo‘lib, uning maqsadi kimningdir faoliyati, qaysidir voqea-hodisani tushuntirish, bayon qilish, tanishtirishdan iboratligi.

Axborot – yangilikni yetkazish demakdir. Uning ovoz va to‘lqindan tez tarqatilgani uchun ta‘sirchanligining oshishi. Axborotga qo‘yiladigan talablar.

Axborotning xronika, qisqa axborot, kengaytirilgan axborot, suhbat, hisobot, lavha (зарисовка), reportaj kabi janrlar va turlarga bo‘linishi.

MAVZU: MATBUOT SHARHI

Bu maxsus janrning asosiy faoliyati matbuotni tahlil qilishdan iborat. Uning vazifasi gazeta va jurnallarning tajribalarini ommalashtirish, faoli-

yatlaridagi kamchiliklarni ko'rsatish, ularni yana ham o'qishli va ta'sirchan bo'lishlari uchun tavsiya, taklif va fikr-mulohazalar bildirilishining muhimligi.

Matbuot sharhining ahamiyati jihatdan bosh maqolaga tengligi. Mazmun jihatdan u tematik sharh, umumiy sharh, axborot sharhi kabi turlarga bo'linishi.

MAVZU: TAQRIZ

Jurnalistikaning mustaqil janri – taqriz adabiy tanqidning bir turi ekanligi. Uning tanqidiy bibliografik maqola (adabiy taqriz) hamda san'at mavzusidagi maqola (teatr spektakliga, kinofilmga va boshqa san'at asarlariga yozilgan taqriz) xillariga bo'linishi.

Taqrizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning gazetaning umumlashtirilgan janri deb aytilishi.

Har qanday janrga qo'yiladigan talabning yagonaligi – taqrizning quruq gaplar yig'indisiga aylanib qolmasligi, uning haqqoniy, adolatli bo'lishi.

MAVZU: OCHERK

Ocherkning badiiy adabiyotning epik janrlari: kichik qissa yoki hikoyaga yaqin janr ekanligi. Ocherkning tarbiyaviy ahamiyati. Uning badiiy publitsistik janrlar «qiroli» ekanligi to'g'risida.

Ocherkning hikoyadan yagona, tez hal qilinuvchi konfliktning yo'qligi va tavsifiy xarakterda bo'lishi bilan farqlanishi. Lekin bu – ocherk konfliktsiz bo'ladi, degan gap emas. O'zbek matbuoti tarixida konfliktli ocherklarni mahorat bilan yozgan ijodkorlar behisob.

Ocherkning syujetli ocherk, tavsifiy ocherkka bo'linishi.

Ocherkning portret asar, tahliliy asarligi va uning portret, muammoli, yo'l, sud ocherklari kabi turlarining mavjudligi.

MAVZU: FELYETON

Felyeton -- ommabop-publitsistik janr bo'lib, uning o'z mohiyati, hayotdagi faktlarni ifodalash uslubiga ko'ra, belletristik hamda publitsistik turlarga bo'linishi.

Felyeton maqola, felyeton dialog, felyeton monolog, felyeton xotira, felyeton taqriz va boshqalar.

Felyetonning siyosiy-falsafiy umumlashtiruvchi kuchi, hajviy-publitsistik jo'shqinligi, ta'sirchanligi va hozirjavobligi bilan boshqa janrlardan farq qilishi.

MAVZU: PAMFLET

Pamflet felyetonga yaqin publitsistik janr bo'lib, uning biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik, u yoki bu to'da hamda guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy-tanqidiy asarligi. Uning boshqa hajviy janrlardan farqi.

Pamfletning she'riy, nasriy yoki dramatik shaklda bo'lishi.

Pamfletning ko'pincha bizning siyosiy intilishlarimizga begona, g'arazli qarashlarni fosh etish uchun yozilishi.

MAVZU: PARODIYA

Parodiyaning adabiyot, teatr, musiqa va estrada janri, kulgi san'ati, hajv va tahlil turlaridan biri ekanligi. Uning ongli taqlidligi.

Ijtimoiy hayotdagi har xil illatlar parodiya obyekti bo'la olishi. Uning ko'pincha mubolag'a xarakterida bo'lishi. Parodiyaning jurnalistikada kam qo'llanilishi.

Parodiya qilinayotgan janrda aks ettirilayotgan voqeaning shakli bilan mazmunining bir-biriga zidligini ko'rsatib, kulgi, hajv qamchisi ostiga olinishi.

MAVZU: EPIGRAMMA

Badiiy asarlarda epigramma deganda, turli mavzudagi kichik lirik she'ring tushunilishi. Matbuotda epigramma janr sifatida, asosan, hajviy rasmlar, sharj, ya'ni o'rtoqlik hazillarida qo'llanilishi.

Epigrammaning asosiy vazifasi – byurokratlar, ichkilikbozlar, giyohvandlar, xushomadgo'ylarni tanqid qilish va umumlashtirilgan holda ular ustidan kulishdan iborat.

ADABIYOT

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 1992.

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.

O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.

O'zbekiston Respublikasining «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.

O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.

O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.

Karimov I.A. Asarlar. 1–10 jildlar. T., 1996–2002.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2000–2004, 1–8 jildlar.

Levitin L. Karlayl D.S. Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti. T., 1996.

Левитин Л. Узбекистан на историческом повороте, М., 2001.

Шарифходжаев М. Формирование открытого гражданского общества в Узбекистане. Т., 2002.

Авраамов Д.С. Профессиональная этика журналиста, М., 1999.

Ворошилов В.В. Журналистика, СПб, 2001.

Журналистское образование в XXI веке (сост. Л.М. Макусхин, Екатеринбург. 2000.

Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М., 2001.

O'zbek Ensiklopediyasi T., 1971–1980. 1–14-jildlari.

Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., 2001.

Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshnz. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama. T., 2003.

Jurnalistik mahorat kursi bo'yicha metodik tavsiyalar (Tuzuvchi: Miralimov Sh.A. T., 1989).

Muhammadiyev R. Publitsistika janrlari. T., 1964.

Tog'ayev O. O'zbek badiiy publitsistikasi. T., 1973.

Tog'ayev O. Publitsistika janrlari. T., 1976.

Saidov G. Satira tili bilan. T., 1978.

Саидов А.Ш. Сатирическая публицистика в периодической печати Т., 1986.

Pidayev T. Qalami nayza edi.T., 1971.

Pidayev T. Mohir jurnalist va redaktor. Т., 1973.

Nasriddinov F. Mahorat jilolari. Т., 1974.

«O‘zbekiston matbuoti» jurnali 1999-2004.

Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san’ati. Т., 1971.

Qodirov M. O‘zbek teatri an’analari. Т., 1976.

Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. Т., 1962.

Abdusamatov H. O‘zbek satirasi masalalari. Т., 1968.

Shog‘ulomov I. Buni umr derlar... Т., 1998.

Нестеренко Ф.П., Миралимов Ш.А. Журналистика профессия ответственная. Т., 2003.

Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. Т., 1998.

Xudoyqulov M. Matbuot va jamiyat. Т., 1976.

Нестеренко Ф.П. Миралимов Ш.А. Журналистика: координаты профессии. Т., 2001.

Matbuotimiz fidoyilari. (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z.Yesenboyev). Т., 1991.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Muallifdan | 3 |
| Soʻzboshi | 4 |
| I. Kursning predmeti va vazifalari | 6 |
| Jurnalistik maʼlumot va taʼlim | 11 |
| II. Jurnalistikaning shakllanishi, mohiyati va modellari | 16 |
| Jurnalistikaning yaratilishi | 16 |
| Ommaviy axborot vositalari tasnifi va tarkibi | 24 |
| III. Jurnalist huquqi, uning ijodiy uyushmasi hamda ijtimoiy-lavozimiy maqomi | 33 |
| Oʻzbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi | 35 |
| Jurnalist aqliy mehnat kishisi | 36 |
| Axborot almashinuvi | 37 |
| IV. Jurnalistika amaliyotini boshqarish | 41 |
| Matbuot erkinligi masalasi | 41 |
| Axborot tizimi huquqlari mazmuni | 45 |
| Oshkoralik va uning qoʻllanilishi | 47 |
| Jurnalist odobi va axloqi | 50 |
| Publitsistika va uning koʻrinishlari | 53 |
| Jurnalistika janrlari | 56 |
| V. Xotima | 111 |
| Ilova. Jurnalistika asoslari kursi oʻquv dasturi | 112 |
| Adabiyot | 123 |

TO‘LQIN QOZOQBOYEV

JURNALISTIKA ASOSLARI

Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma

Nashr uchun mas’ul *M.Po‘latov*

Muharrir *Z.Jo‘rayev*

Sahifalovchi *M.Xolbekova*

AB № 51

“MUSIQA” nashriyoti. Toshkent, B.Zokirov ko‘chasi, 1.

Bosishga ruxsat etildi. 14.06.2007. Ofset usulida chop etildi.

Ofset qog'oz. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Shartli bosma tabog'i 8.0.


Nashr bosma tabog'i 8,3. Adadi 1000 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida.

«Ren-POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Muqimiy, 178.

Buyurtma № 702



ISBN 978-9943-307-16-2